

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

***HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI***  
*yoʻnalishi*

**MEHNAT MUHOFAZASINING  
HUQUQIY VA TASHKILY  
ASOSLARI**

**TOSHKENT-2023**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** TDTU, katta o‘qituvchi F.F. Xamidullayev

**Taqrizchi:** TDTU, t.f.d. professor S.S. Suleymanov

O‘quv – uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrda 4-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	14
III. NAZARIY MATERIALLAR	19
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	112
V. KEYSLAR BANKI	202
VI. GLOSSARIY	204
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	210

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi o‘quv dastur mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash, mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish, mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish, xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish, xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish va boshqa mehnat muhofazasi bo‘yicha masalalari bayon etilgan.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi** – tinglovchilarni ishlab chiqarishda xavfsiz va sog‘lom ish sharoitlarini yaratishning nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash, ishlab chiqarish muhitida ishchi va xizmatchilarni to‘g‘ri harakat qilish va himoyalani sh bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasini shakllantirishdir.

**“Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari” modulining vazifalari:**

- ishlab chiqarishdagi ish joylari va zonalarida mavjud va yuzaga kelishi ehtimoli bo‘lgan zararli va shikastlovchi salbiy omillar, ularni sinflari, asosiy manbalari bo‘yicha tasavvurlarini kengaytirish;
- mazkur sohaga tegishli qonunlar, meyoriy-texnik hujjatlar, pedagogik kasbiy faoliyatda, ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladigan texnologiyalarning, foydalaniladigan texnik vositalarning hamda jihozlarning mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararli va shikastlovchi salbiy omillarini identifikatsiyalash hamda baholashni o‘rgatish va kasbiy mahoratini oshirish;
- zararli va shikastlovchi ishlab chiqarish omillarini inson sog‘lig‘i va hayotiga, uni avlodlari sog‘lig‘i va hayotiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish yoki oqibatlarini kamaytirishga oid tashkiliy, texnik, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlarni muqobilini tanlash, ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tatbiq etish bo‘yicha ilm (bilim va malaka) berish va kasbiy mahoratini oshirish;
- mehnat muhofazasini tashkiliy masalalarini zamonaviy talablar darajasida hal etish, boshqarish usullarini, himoya vositalarini amaliyotga joriy etish orqali mehnat xavfsizligini, sohadagi ilg‘or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish, ko‘nikmasini shakllantirish va kasbiy mahoratini oshirish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini;
- Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilarini;
- xodimning hamda ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlarini;
- kirish yo'l-yo'rig'ini o'tkazish bo'yicha dasturni;
- ish joyidagi yo'l-yo'riqni o'tkazish bo'yicha dasturni;
- mehnat muhofazasi holati nazoratining birinchi bosqichini;
- mehnat muhofazasi holati nazoratining ikkinchi bosqichini;
- mehnat muhofazasi holati nazoratining uchinchi bosqichini;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini;
- tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibini;
- ishlab chiqarishdagi ish joylari va zonalarida mavjud va yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan zararli va shikastlovchi salbiy omillarni;
- O'zbekiston Respublikasi, xamdo'stlik mustaqil davlatlari, boshqa yetakchi davlatlardagi mehnat muhofazasining hozirgi vaqtdagi masalalarini;
- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu modulning asosiy muammolarini;
- mehnat qilish va dam olishning maqbul sharoitlarining inson fiziologiyasiga ta'sirini;
- ishlab chiqarishdagi ish joylari va zonalarida mavjud va yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan zararli va shikastlovchi salbiy omillarni sinflari, asosiy manbalarini;

- mehnat muhofazasiga tegishli qonunlar, milliy, davlatlararo va xalqaro standartlar, texnik, tashkiliy, sanitar-gigiyenik meyorlarni **bilishi kerak.**

#### **Tinglovchi:**

- zararli va shikastlovchi ishlab chiqarish omillarini inson sog‘lig‘i va hayotiga, uni avlodlari sog‘lig‘iga va hayotiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish;
- oqibatlarini kamaytirishga oid tashkiliy, texnik, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlarni muqobilini tanlash;
- mehnat muhofazasining tashkiliy masalalarini va bulardan kelib chiqayotgan muammolarni yechish;
- zararli va shikastlovchi ishlab chiqarish omillarini inson hayoti va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sirini bartaraf etishga oid zamonaviy texnik yechimlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish bo‘yicha **ko‘nikmaga** ega bo‘lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

- mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash;
- mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish;
- ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibini amalga oshirish;
- mehnat muhofazasi bilan bog‘liq turfa masalalarni zamonaviy talablar darajasida hal etish;
- mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish kabi **malakalarga** ega bo‘lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- zararli va shikastlovchi ishlab chiqarish omillarini inson hayoti va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sirini bartaraf etishga oid zamonaviy texnik yechimlarni amalga tadbiriq etish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish;

- sohadagi ilg‘or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish malakasini shakllantirish bo‘yicha **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari” modulini o‘rganish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”, “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” va “Yong‘in xavfsizligini ta’minlash asoslari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning mazkur fan bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini hamda ta’lim xizmati sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ma’lumotli kadrlarda “Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari” bilan bog‘liq turfa masalalarni zamonaviy talablar darajasida hal etish usullarini, mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash, mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish, mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish, sohadagi

ilg'or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga o'rgatish malakasini shakllantirishga, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri).	2	2		
2.	Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash.	4	2	2	
3.	Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish tartibi.	2		2	
4.	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish va yetkazilgan zararni to'lash.	4	2	2	
5.	Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi.	4	2	2	
6.	Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari.	2		2	
	<b>Hammasi:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri).

Qonunning maqsadi, amal qilish sohasi. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari. Xodimning hamda ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari.

## **2-mavzu: Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash.**

Ishchilarni o'qitish va bilimlarini sinash. Ishchilarga yo'l-yo'riq o'tkazish. Ishchilarning bilimlarini sinash. Rahbar va mutaxassislarni o'qitish va bilimlarini sinash. Kirish yo'l-yo'rig'ini o'tkazish bo'yicha dastur. Ish joyidagi yo'l-yo'riqni o'tkazish bo'yicha dastur.

Xodimlarning mehnat sharoitlari va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar. Mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil qilish. Korxonada mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish. Ish beruvchining mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi. Korxonada bosh muhandisning mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi. Korxonada bosh mexanigining mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi. Korxonada bosh energetigining mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi. Sex boshlig'ining mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi. Korxonada xodimining mehnat muhofazasi bo'yicha vazifasi.

Mehnat muhofazasi holatining tahlili va nazorati. Ma'muriy – jamoat nazorati. Ma'muriy nazorat. Jamoat nazorati. Mehnat muhofazasi holati nazoratining birinchi bosqichi. Mehnat muhofazasi holati nazoratining ikkinchi bosqichi. Mehnat muhofazasi holati nazoratining uchinchi bosqichi.

## **3-mavzu: Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish va yetkazilgan zararni to'lash.**

Umumiy qoidalar. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishlarini tekshirish va hisobga olish tartibi. N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish tartiblari.

Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida shikastlanishlarning og'irlik darajasini belgilash sxemasi. Sog'lig'iga shikast yetkazilganligi bilan bog'liq holda zararning jabrlanuvchiga to'lanadigan miqdori. Mehnat jarohatlari tufayli qilingan qo'shimcha harajatlarni jabrlanuvchiga to'lash. Boquvchining vafoti sababli zararni to'lash.

#### **4-mavzu: Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfiligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi.**

Umumiy qoidalar. Attestatsiyani o‘tkazish. Attestatsiyani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi. Mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar talablariga muvofiqligini baholash tartibi.

Ish o‘rinlarining ayrim turlarini attestatsiyadan o‘tkazish xususiyatlari. Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Rejadan tashqari attestatsiya o‘tkazish tartibi. Ish joyining mehnat sharoitlari xaritasi. Ish joylarining jarohatlash xavfiligini baholash. Xodimlarning shaxsiy himoya vositalari (SHHV) bilan ta‘minlanganligini baholash. Kafolat va preferensiyalar.

#### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

##### **1-amaliy mashg‘ulot: Mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash.**

Kirish yo‘l-yo‘rig‘ini o‘tkazish bo‘yicha dastur tuzish. Ishchilarga yo‘l-yo‘riq o‘tkazilishini qayd qilish jurnallarini rasmiylashtirish tartibi. Ishchilarni o‘qitish bo‘yicha dastur ishlab chiqish va bilimlarini sinash bayonnomalarini rasmiylashtirish tartibi bilan tanishish.

Mehnat muhofazasi holatining tahlili va nazorati. Mehnat muhofazasi holati nazoratining birinchi va ikkinchi bosqichini o‘tkazish tartibi. Mehnat muhofazasi holati nazoratining uchinchi bosqichini o‘tkazish tartibini tahlil qilish.

##### **2- amaliy mashg‘ulot: Mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish tartibi.**

Mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni tuzilishi va mazmuni. Mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi. Yo‘riqnomalarni rasmiylashtirish tartibi. Mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni tekshirish va qaytadan ko‘rib chiqish tartibini o‘rganish.

### **3- amaliy mashg'ulot: Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish va yetkazilgan zararni to'lash.**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishlarini tekshirish va hisobga olish tartibi. N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish tartiblari.

Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish dalolatnomasini tuzish talablari. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida shikastlanishlarning og'irlik darajasini belgilash sxemasidan foydalanish.

### **4- amaliy mashg'ulot: Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi.**

Mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqligini baholash tartibi.

Ish o'rinlarining ayrim turlarini attestatsiyadan o'tkazish xususiyatlarini o'rganish. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Rejadan tashqari attestatsiya o'tkazish tartibi. Ish joyining mehnat sharoitlari xaritasini to'ldirish. Ish joylarining jarohatlash xavfliligini baholash tartibi. Xodimlarning shaxsiy himoya vositalari (SHHV) ta'minlanganligini baholash. Kafolat va preferensiyalarni belgilanish talablarini o'rganish.

### **5- amaliy mashg'ulot: Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari.**

Majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish, o'zgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tartibi. Sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash tartibi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi. Xizmatning huquqlari va majburiyatlarini o'rganish. Tashkilot rahbarining

va xizmat xodimlarining faoliyatini tashkil etish bo'yicha majburiyatlari. Xizmat rahbariga va mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish.

## TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv material mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- 1) ma'ruza;
- 2) amaliy mashg'ulot.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

- 1) jamoaviy;
- 2) guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- 3) yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – bunda o'qituvchi guruhlarining bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlariga, juftliklarga va guruhlararo shaklga bo'lish mumkin.

*Bir turdagi guruhli ish* o'quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

*Tabaqalashgan guruhli ish* guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida-alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI**

### **“Aqliy xujum” metodi**

Aqliy hujum, g‘oyalarni ishlab chiqish usuli ishtirokchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar.

Aqliy hujum, oldindan ularning tanqidisiz, mavzuga nisbatan erkin fikrlarni ishlab chiqishdagi harakatidir. Aqliy xujum usuli serqirra qo‘llanish xususiyatiga ega “Aqliy hujum”ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g‘oyalarni yaratishdir (kichik guruhning birgalikdagi kuchi - uning alohida a‘zolarining kuchlari yig‘indisidan ko‘p bo‘ladi). Aqliy hujumning muammoni hal qilayotgan kishilarning ko‘proq aqlbovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning hech bo‘lmaganda bittasi ayni muddao bo‘lishi mumkin. Bu aqliy hujum negizidagi tamoyildir. Aqliy hujum to‘xtatilgandan so‘ng barcha aytilgan g‘oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi. Yakka tartibda yoki juftlikda, amaliy mashg‘ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda shuningdek, guruh bo‘yicha ham o‘tkazish mumkin. Aqliy hujum mashg‘ulotlarda talabalar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

#### **Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar:**

1. Ishtirokchilarni majburiy bo‘lmagan tarzda o‘tkazing.
2. Fikrlarni bayon qilish uchun qog‘oz va doskani tayyorlang.
3. Aqliy hujumning ishtirokchilariga muammoni yetkazish kerak.
4. Ish tartibini aniqlang:
  - a) fikrlar tashlanganda hech qanday baholashlar;
  - b) doimiy fikrlash ozodligi;
  - v) qancha aqlli fikr ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi;
  - g) “ushlang”, “tuting”, boshqalarning fikrlarini rivojlantiring.
5. Fikrlar to‘g‘risida surishtiring va tezda ularni kelishi bilan yozing.
6. Qog‘oz varag‘i to‘ldirilganda, uni muhokama uchun qo‘ying.

7. O'z g'oyalaringizni qo'shib yangi g'oyani rag'batlantiring.

8. Boshqalarning fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo'l quymang.

9. O'zingizning fikrlaringizni boshqa tomonga tarqab ketmasidan bir joyga jamlang.

Aqliy hujumning asosiy ko'rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdir. Agar ish daliliy axborotga bog'liq bo'lsa, unda talabalarga dalillar ro'yhatini tuzishga taklif beriladi. Ikki daqiqadan so'ng individual ishdan keyin ular bir-birlari bilan muloqotda bo'lib muhokama qiladilar va o'zlarining ro'yxatlarini birlashtiradilar.

Metodning mavzuga tadbig'i: tinglovchilarning birlamchi bilimlarini aniqlashda ko'yidagi savollar beriladi:

#### **Savollar:**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisani tekshirish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
2. Baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklardan xodimlarni majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkazish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
3. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qanday qoplandi?
4. Qanday baxtsiz hodisalar ishlab chiqarishga oid deb tekshiriladi va hisobga olinadi?
5. Ish kuni davomida jabrlanuvchi haqida xabar berilmagan hollarda baxtsiz hodisalar qanday tekshiriladi va hisobga olinadi?
6. Tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan o'quvchi va talabalarga oid sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
7. O'rindoshlik asosida ishlaydigan shaxslar bilan sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
8. Bir hududda bir necha tashkilotlar tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan hollarda sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?

9. Tashkilot hududida avtotransport xaydovchisi aybi bilan sodir etiladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?

10. Qanday baxtsiz xodisalar maxsus tekshiruvdan o'tkaziladi va hisobga olinadi?

### **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

## **Mavzuga tadbig‘i:**

### **Test savollar:**

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar uchun qisqartirilgan ish vaqtining muddati qanchani tashkil qilishi kerak?	36 soat	15 soat	18 soat	24 soat
O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi” qachon qabul qilingan?	21 dekabr 1995 yil	18 yanvar 1992 yil	2 iyun 1994 yil	5 aprel 1998 yil

### **Amaliy topshiriq:**

Majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin to‘xtatish tartibini yozib bering.

### **Nazorat savol:**

To‘qimachilik sanoatida uchraydigan jarohatlar, kasbiy kasalliklar va zaharlanishlarning sabablari nimada va ular nechta guruhga bo‘linadi?

## **NAZARIY MATERIALLAR**

### **1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri)**

#### **Reja:**

1. Umumiy qoidalar;
2. Mehnatning muhofaza qilinishini ta‘minlash;
3. Ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini ro‘yobga chiqarishdagi kafolatlar;
4. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati;
5. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik.

**Tayanch soʻzlar:** mehnat muhofazasi, zararli ishlab chiqarish omili, ishlab chiqarish faoliyati ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, mehnat sharoitlari, mehnatda mayib boʻlish, noqulay ishlab chiqarish omillari, xavfli ishlab chiqarish omili, shaxsiy himoya vositalari.

## **1. Umumiy qoidalar**

### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### **2-modda. Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunchilik**

Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Oʻzbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan boʻlsa, xalqaro shartnoma qoidalari qoʻllaniladi.

### **3-modda. Ushbu Qonunning amal qilish sohasi**

Ushbu Qonun:

korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) bilan, shuningdek alohida yollovchilar bilan mehnat munosabatlarida boʻlgan xodimlarga;

ishlab chiqarish amaliyotini oʻtayotgan oliy taʼlim muassasalari talabalariga, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻquvchilariga, boshqa taʼlim muassasalari tinglovchilariga;

tashkilotlarda ishlash uchun jalb etiladigan harbiy xizmatchilarga;

muqobil xizmatni oʻtayotgan fuqarolarga;

sud hukmiga koʻra jazoni oʻtayotgan shaxslarga ular jazoni ijro etish muassasalari tomonidan belgilanadigan tashkilotlarda ishlashi davrida, shuningdek maʼmuriy qamoqqa olish tarzidagi maʼmuriy jazo qoʻllanilgan shaxslarga, boshqa turdagi ishlarni bajarishga, shu jumladan jamiyat va davlat manfaatlarini koʻzlab tashkil etiladigan ishlarni bajarishga jalb etiladigan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun ish beruvchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan shaxslar bundan buyon matnda xodimlar deb ataladi.

#### **4-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**jamoaviy himoya vositalari** — tuzilishi yoki vazifasi jihatidan ishlab chiqarish binosi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, xodimlarga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalar va boshqa vositalar;

**zararli ishlab chiqarish omili** — ta'siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili;

**ish o'rni** — mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik bo'lish joyi;

**ishlab chiqarish faoliyati** — mahsulot ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish chog'ida amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi;

**ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa** — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa;

**kasb kasalligi** — xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta'siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasalligi;

**mehnat sharoitlari** — mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

**mehnatni muhofaza qilish** — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta‘minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

**mehnatda mayib bo‘lish** — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi;

**noqulay ishlab chiqarish omillari** — zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi;

**xavfli ishlab chiqarish omili** — ta‘siri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish omili;

**shaxsiy himoya vositalari** — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta‘sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalani uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

## **5-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari**

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xodimning hayoti va sog‘lig‘i ustuvorligini ta‘minlash;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag‘batlantirish;

fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

### **6-modda. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish**

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonunchilikka muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

## **2. Mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlash**

### **7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;

mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibini belgilaydi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish tartibini belgilaydi;

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarini tuzish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibini belgilaydi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **8-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi, kelishib oladi hamda tasdiqlaydi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi, shu jumladan noqulay va alohida mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar berilishi yuzasidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiradi;

mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi o‘tkazilishini ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha hamkorlik qiladi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining yagona reyestrini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi;

mehnatni muhofaza qilishning holati monitoringini o‘tkazadi;

ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarning sabablarini tahlil qiladi hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga bunday jarohatlanishlarning oldini olish bo‘yicha takliflar kiritadi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning maxsus tekshiruvi o‘tkazilishini va hisobga olinishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

xodimlarning dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘riklarini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og‘irligi va tig‘izligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha sanitariya qoidalarini, normalarini va gigiyena normativlarini belgilaydi;

mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo‘lgan xodimlarga beriladigan sutni (shunga teng bo‘lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini), davolash-profilaktika oziq-ovqatini, gazlangan tuzli suvni (issiq sexlarda ishlovchilar uchun) berish normativlarini belgilaydi;

xodimni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta’sirini istisno etadigan ishga o‘tkazish uchun tibbiy va boshqa ko‘rsatkichlar ro‘yxatini tasdiqlaydi;

xodim kasb kasalligiga chalingan deb gumon qilinganda uning mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyena tavsifini tuzishga doir talablarni belgilaydi;

kasb kasalliklarini aniqlash va xodimlarning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi darajasini aniqlash uchun yo‘llanma berish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **10-modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari**

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi tarmoq maqsadli va maxsus dasturlarni tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

tizimidagi tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

tizimidagi tashkilotlarda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning va xodimlar sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilishining tekshiruvdan o‘tkazilishi hamda hisobga olinishini tashkil etadi va ta‘minlaydi;

tizimidagi tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha tayyorlanishi, qayta tayyorlanishi, malakasi oshirilishi va bilimlari tekshirilishini tashkil etadi.

## **Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa 11-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tegishli hududiy bo‘linmalarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **12-modda. Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari**

Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo'lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati mutaxassislari mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga barcha xodimlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, tarkibiy bo'linmalarning rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tashkilot rahbariga taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

### **13-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari**

Mehnatni muhofaza qilish sohasida shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari:

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalarini amalga oshirishi;

ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazishi;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashi va ularning malakasini oshirishi;

tashkilotda mehnatning muhofaza qilinishini boshqarish tizimi auditini o'tkazishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilariga va ular tomonidan xizmatlar bajarilishiga doir talablar, shuningdek ularning yagona reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **14-modda. Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasi**

Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasi mehnat sharoitlarining, ish o'rinlaridagi mehnat jarayoni og'irligi va tig'izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmuidir.

Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasidan quyidagilar o'tkazilishi kerak:

mehnat sharoitlari bo'yicha xodimlarga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozlar va kompensatsiyalar nazarda tutilgan ish o'rinlari;

nogironlar band bo'lgan ish o'rinlari;

imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarida ko'rsatilgan ish o'rinlari;

xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi ish o'rinlari.

Qonunchilikda, shuningdek jamoa shartnomalari va kelishuvlarida boshqa ish o'rinlarining ham mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilishi nazarda tutilishi mumkin.

Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasi belgilangan tartibda ish beruvchining o'zi tomonidan o'tkaziladi. Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazish davriyligi qonunchilikda belgilanadi, biroq besh yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

### **15-modda. Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi**

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi mehnatni muhofaza qilish tizimining holatini baholash bo'lib, ushbu audit ish beruvchining qaroriga binoan o'tkaziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishlashi sifatini, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga, darajasini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini baholash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

## **16-modda. Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish**

Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag‘lari;

ish beruvchining o‘z mablag‘lari;

qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan mehnatni muhofaza qilish jamg‘armalarining mablag‘lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mehnatni muhofaza qilish uchun byudjet mablag‘lari tegishli (respublika va mahalliy) byudjetlarda alohida qayd bilan ajratiladi, bu mablag‘lardan boshqaruv organlarining, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarning ta‘minoti, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, mehnatni muhofaza qilishga oid davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni qonunchilikda, jamoa shartnomasida, shuningdek jamoa kelishuvlarida yoki boshqa ichki normativ hujjatlarda belgilanadigan miqdorda ajratadi. Xodimlar ana shu maqsadlar uchun biror-bir chiqim qilmaydilar.

Tashkilotlar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha jamg‘armani o‘zining tijorat faoliyati va boshqa faoliyatidan olinadigan foyda (daromadlar), shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tashkil etishga haqlidir.

Mehnatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan mablag‘lardan boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin emas.

Mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag‘lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha jamg‘armalarni tashkil etish va ularning mablag‘laridan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ishtirokida belgilanadi.

## **17-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish**

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi belgilangan tartibda ta'minlanadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha xususiyatlari hisobga olingan holda talabalar va o'quvchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish kursi majburiy o'rganilishini tashkil etishi kerak.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ish beruvchilar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar qayta tayyorlanishini va ularning malakasi oshirilishini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **3. Ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar**

#### **18-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash**

Mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, ularni berish normalari, ular bilan ta'minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishuvlarida belgilanadi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishuvga ko'ra, qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

## **19-modda. Obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ta'mirlash chog'ida mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni ta'minlash**

Mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga javob bermaydigan obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanishga, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga, texnologiyalarni joriy etishga, shu jumladan xorijdan olinganlarini joriy etishga yo'l qo'yilmaydi.

Yo'l qo'yiladigan eng yuqori normativlari (konsentratsiyalari) belgilangan tartibda ishlab chiqilmagan va tegishli ekspertizalardan o'tkazilmagan zararli moddalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi taqiqlanadi.

## **20-modda. Tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini rag'batlantirish**

Tashkilotlar foydasining mehnatni muhofaza etishga oid adabiyotlarni, plakatlarni, boshqa targ'ibot vositalarini nashr etish hisobidan hosil bo'lgan qismiga, shuningdek ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik tashkilotlari foydasining jamoaviy himoya vositalari va shaxsiy himoya vositalarining, ishlab chiqarish muhitini nazorat qilish asboblari va dozimetriya vositalarining yangilarini yaratish, mavjud vositalarni ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish hisobidan olingan qismiga qonunchilikka muvofiq imtiyozli soliq solish belgilanishi mumkin.

## **21-modda. Ishga qabul qilishda va boshqa ishga o'tkazishda mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning kafolatlari**

Mehnat shartnomasining shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik, jamoa shartnomalari, shuningdek jamoa kelishuvlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi boshqa ichki normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Fuqarolarni sog'lig'ining holatiga ko'ra o'ziga to'g'ri kelmaydigan ishga qabul qilish va xodimlarni boshqa shunday ishga o'tkazish taqiqlanadi.

Fuqarolarni sog‘lig‘i va hayotiga yuqori darajada xavf tug‘dirishi mumkinligi oldindan ayon bo‘lgan ishga qabul qilish hamda xodimlarni boshqa shunday ishga o‘tkazish chog‘ida ish beruvchi ularni bu haqda ogohlantirishi shart.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta‘sirini istisno etadigan ishga o‘tkazishga muhtoj xodimlarni ish beruvchi ana shunday ishga ularning roziligi bilan, tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamay o‘tkazishi shart.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta‘sirini istisno etadigan kam haq to‘lanadigan ishga o‘tkazishda xodimlarning avvalgi o‘rtacha oylik ish haqi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda saqlanib qoladi.

## **22-modda. Xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari**

Xodim quyidagi huquqlarga ega:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning va normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga mos bo‘lgan ish o‘rniga ega bo‘lish;

ish beruvchidan mehnat sharoitlari to‘g‘risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish ehtimoli mavjudligi, shu munosabat bilan o‘ziga berilishi lozim bo‘lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shuningdek shaxsiy himoya vositalari va jamoaviy himoya vositalari haqida axborot olish;

mehnatni muhofaza qilishga oid belgilangan normalar va talablarga muvofiq ish beruvchining mablag‘lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlanish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug‘urta qilinish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida o‘z hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda, agar shunday holatlar mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, ishlarni bajarishni bunday xavf bartaraf etilguniga qadar rad etish;

o‘z ish o‘rnidagi mehnat sharoitlari hamda muhofazasi mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organ tomonidan tekshirishdan o‘tkazilishi uchun so‘rovnoma berish;

ish beruvchining mablag‘lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo‘yicha o‘qish;

qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni olish;

o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetishi munosabati bilan hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararining o‘rnini ish beruvchidan undirish;

o‘z ish o‘rnida mehnat qilish uchun xavfsiz sharoitlar ta‘minlanishi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilayotganda va o‘zi bilan sodir bo‘lgan baxtsiz hodisa yoki uning kasb kasalligi tekshirilayotganda shaxsan o‘zi ishtirok etish yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish;

tibbiy tavsiyalarga muvofiq navbatdan tashqari tibbiy ko‘rikdan o‘tish, ushbu tibbiy ko‘rikdan o‘tish vaqtida uning ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlanishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida ish o‘rni tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag‘lari hisobidan qayta tayyorgarlikdan o‘tish.

Xodim qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Xodim:

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi;

shaxsiy himoya vositalarini to‘g‘ri qo‘llashi;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar olishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quvdan va malaka oshirishdan o‘tishi;

odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diruvchi har qanday vaziyat to‘g‘risida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida ish beruvchini darhol xabardor qilishi shart.

Xodimning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

### **23-modda. Ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari**

Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

xodimlardan mehnatni muhofaza qilishga hamda ishlarni xavfsiz olib borishga doir normalar, qoidalar va yo‘riqnomalarga rioya etishni talab qilish;

xodimlarning alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik moddasi yoki toksik modda ta’siridan mast holatda ekanligini aniqlash uchun ularni tekshiruvdan o‘tkazish;

xodimlar ishlab chiqarishda olgan jarohatlanishlarning og‘irlik darajasi, xodimlarda ularning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan kasallik mavjudligi to‘g‘risida, shuningdek ularning alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik moddasi yoki toksik modda ta’siridan mast holatda ekanligi haqida ma’lumotlar olish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bevosita sudga yoki bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat qilish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etganlik uchun xodimlarni taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda aybdor xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish.

Ish beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ish beruvchi:

har bir ish o‘rnida mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lishini ta’minlashi;

binolar, inshootlar, asbob-uskunalardan foydalanish, texnologik jarayonlarni amalga oshirish chog‘ida, shuningdek ishlab chiqarishda xom ashyo va materiallarni qo‘llash, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida xodimlarning xavfsizligini ta’minlashi;

ish o‘rinlarida mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli ishlab chiqarish omillari yuzasidan nazoratni amalga oshirishi;

mehnat sharoitlari to‘g‘risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklar xavfi mavjudligi, muayyan ish o‘rinlarida va ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishning holati haqida, shuningdek shu munosabat bilan xodimlarga berilishi lozim bo‘lgan imtiyozlar va kompensatsiyalar, shaxsiy himoya vositalari to‘g‘risida xodimlarni o‘z vaqtida xabardor qilishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish xizmatini va yo‘l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etishi;

xodimlarni belgilangan normalar bo‘yicha sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya hamda gigiyena vositalari bilan ta‘minlashi, shuningdek jamoaviy himoya vositalari qo‘llanilishini ta‘minlashi;

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar olishini, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quvdan, qayta tayyorgarlikdan o‘tishini, malaka oshirishini va bilimlari tekshirilishini ta‘minlashi;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘quvdan o‘tmagan, yo‘l-yo‘riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo‘ymasligi;

xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironlar band bo‘lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o‘rinlarida qonunchilikda belgilangan tartibda ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasini o‘tkazishi;

dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘riklar belgilangan tartibda o‘tkazilishini tashkil etishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarga, shuningdek kasaba uyushmalariga va xodimlarning boshqa vakillik organlariga ularning mehnatni muhofaza qilish holati, baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirishi yuzasidan nazoratni, tekshirishni va monitoringni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan axborot va materiallarni taqdim etishi;

avariya vaziyatlarining oldini olish, bunday vaziyatlar yuzaga kelganda xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, shu jumladan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalarini bajarishi hamda kasaba uyushmalarining va xodimlar boshqa vakillik organlarining taqdimnomalarini ko'rib chiqishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishini, shuningdek ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinishini ta'minlashi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazishi, shuningdek ularning hisobini yuritishi shart.

Ish beruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

#### **24-modda. Majburiy tibbiy ko'riklar**

Ish beruvchi o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning va umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslarning, nogironlarning, shuningdek bir qator kasblar va ishlab chiqarishlar xodimlarining O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini tashkil etishi shart.

Tibbiy ko'riklar tashkilotlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, bunday muassasalar mavjud bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi hududiy davolash-profilaktika muassasasi tomonidan o'tkaziladi.

Qonunchilikka muvofiq majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi lozim bo'lgan shaxslar boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda ham tibbiy ko'riklarni o'tkazish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Tibbiy ko'riklardan o'tilishi munosabati bilan xodimlar chiqimdor bo'lmaydilar.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlashga haqli emas.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlagan yoki ular o'tkazilgan tekshiruvlar natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarmagan taqdirda ish beruvchi ularni ishga qo'ymaslikka haqli.

Agar xodim o'z sog'lig'ining holati mehnat sharoitlari bilan bog'liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko'rik o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

### **25-modda. Xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish va ularni o'qitish**

Ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga o'qitishni tashkil etishi shart.

Xavfliligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishga ishga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo'yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so'ngra mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davriy attestatsiya o'tkaziladi.

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

## **26-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlarning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi, shuningdek kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi hamda hisobga olinishi shart.

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlar bajaruvchi (xizmatlar ko'rsatuvchi) shaxslarga nisbatan ham ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar hamda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi, kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi va hisobga olinishi shart.

## **27-modda. Xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Mehnat sharoiti og'ir, zararli va xavfli ishlarda band bo'lgan xodimlar, shuningdek xodimlarning ayrim toifalari (ayollar, o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslar, mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar) uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

### **4. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati**

## **28-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi**

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshiruv vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, tushuntirishlarni, axborotni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirishlardan o'tkazish yoki tekshirishda ishtirok etish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni taqdim etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan hamda xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalaridan foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish;

qurilishi, rekonstruksiyasi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiya ishida ishtirok etish va ular mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan taqdirda tegishli xulosalar berish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ish yuritish.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

### **29-modda. Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi**

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va

mehnat munosabatlari vazirligining mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasi:

ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazish sifatini; xodimlarga zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun kafolatlar hamda kompensatsiyalar berilishining to'g'riligini;

xodimlarning haqiqiy mehnat sharoitlarini baholash maqsadida amalga oshiriladi.

Mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshiruv vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, tushuntirishlarni, axborotni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni taqdim etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni va shartlarni buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalaridan foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ishtirok etish.

Mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**30-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mehnatni muhofaza qilishni ta'minlashdagi ishtiroki**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etishi, mehnatni muhofaza qilishni ta'minlashda ishtirok etuvchi davlat organlariga va boshqa organlarga ko'maklashishi, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ishtirok etishi mumkin.

**31-modda. Kasaba uyushmalarining, xodimlar boshqa vakillik organlarining mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash borasidagi huquqlari**

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida vakillikni, shuningdek xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

tashkilotlarning rahbarlaridan va boshqa mansabdor shaxslaridan mehnat sharoitlari va muhofazasi to'g'risida, shuningdek ishlab chiqarishdagi barcha baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklari haqida axborot olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etish;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarni to'xtatib turish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishga oid talablarning buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ish beruvchiga takliflar kiritish;

mehnatni muhofaza qilish holatini o'rganish, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;

ishlab chiqarish obyektlarini va ishlab chiqarish vositalarini sinash hamda foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalar ishida mustaqil ekspert sifatida ishtirok etish, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi majlislarida ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar faktlarini yashirganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi talablar bilan tegishli organlarga murojaat qilish;

mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararining o'zni qoplanishi uchun hamda xodimlarning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari cheklangan boshqa hollarda xodimning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik, jamoa shartnomalarida va kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar buzilganligi, shuningdek mehnat sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq mehnat nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etish.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etilgan shaxsga o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun har haftada kamida ikki soat ish vaqti ajratiladi va bu vaqt uchun ish joyi (lavozimi) bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida ijtimoiy sheriklikni amalga oshiradi, bosh kelishuvlar, tarmoq va hududiy (mintaqaviy) jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari tuzishi mumkin.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **5. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik**

### **32-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun javobgarlik**

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va yetkazib berganlik iste'molchilarga yetkazilgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan ishlab chiqarish vositalarini, shaxsiy himoya vositalarini va jamoaviy himoya vositalarini, shu jumladan chet ellardan olingan shunday vositalarni sotish, tarqatish va reklama qilish taqiqlanadi hamda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

### **33-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi**

Ish beruvchi xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli uning hayoti va sog'lig'iga o'zi yetkazgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi shart.

Xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan jabrlanuvchi tomonidan kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi har oylik to'lovdan, shuningdek xodimning bir yillik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovidan hamda xodimning sog'lig'i shikastlanishidan kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlarni (agar u davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj deb topilgan bo'lsa, ushbu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek jabrlanuvchining qayta tayyorgarligi va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishi uchun xarajatlar va boshqa xarajatlar) kompensatsiya qilishdan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida xodim vafot etgan taqdirda, zararining o'rnini qoplanishi huquqiga ega bo'lgan shaxslarga boquvchining vafoti bilan bog'liq holda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda har oylik to'lovlar amalga oshiriladi, shuningdek vafot etgan xodimning o'rtacha yillik ish haqining olti baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi va dafn etish xarajatlarining o'rnini qoplanadi.

Voyaga yetmagan xodimning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda zararining o'rnini qoplash uning avvalgi ish haqidan kelib chiqqan holda, ammo qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

#### **34-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qoplash**

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda zararining o'rnini qoplash bo'yicha tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasida bo'ladi. Zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talablar ham unga taqdim etiladi.

Xodimning mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda tegishli summalar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi. Mazkur summalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham davlat tomonidan to'lanadi.

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda tegishli to'lovlar ularni jabrlanuvchiga to'lash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda kapitallashtirilishi kerak.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki mavjud bo'lmaganligi yoki yetarli bo'lmaganligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda

tegishli summalar jabrlanuvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

### **35-modda. Nizolarni hal etish**

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

### **36-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasiga ta'rif bering.
2. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?
4. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlariga nimalar kiradi?
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?
6. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilarning vazifalari.
7. Tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining auditni o'tkazish tartibi.
8. Xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari.
9. Ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlari.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi -T. O'zbekiston. 1992 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni (yangi taxriri) 2016 yil 22 sentabr, O‘RQ-410-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. X.Rahimova, A.A‘zamov, T.Tursunov. Mehnatni muhofaza qilish.T. – “O‘zbekiston” -2003.
5. G‘.Yormatov va boshqalar Mehnatni muxofaza qilish: Darslik - Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2002 - 345 b.
6. Friend, Mark A.Fundamentals of occupational safety and health Mark A. Friend and James P.Kohn. Government Institutes. An imprint of.The Scarecrow Press, Inc. Lanham, Maryland Toronto Plymouth, UK-2007.—4th ed.
7. Veb saytlar: [www.lex.uz](http://www.lex.uz); [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz); [www.norma.uz](http://www.norma.uz); [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz); [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz); [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz); [www.mchs.gov.uz](http://www.mchs.gov.uz); [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz); [www.standart.uz](http://www.standart.uz); [www.sgktn.uz](http://www.sgktn.uz); [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz); [www.hsea.ru](http://www.hsea.ru); [www.ohranatruda.ru](http://www.ohranatruda.ru);

## **2-mavzu: Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish va bilimlarni sinash.**

### **Reja;**

1. Umumiy qoidalar.
2. Ishchilarning mehnat sharoitlari xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha vazifalar.
3. Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil qilish.
4. Mehnat muhofazasi holatining nazorati.
5. Mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitishni va bilimlarni tekshirishni tashkil qilish.
6. Xodimlarni o‘qitish va bilimlarini tekshirish.

**Tayanch so‘zlar:** mehnat muhofazasi, mehnat xavfsizligi talablari, mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi, mehnat sharoitlari, mehnatda mayib bo‘lish, xavfsiz mehnat sharoiti, xavfning tahlili, zarar, shaxsiy himoya vositalari.

### **1. Umumiy qoidalar.**

Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi “Mehnatni

muhofaza qilish to'g'risida»gi 839 XII-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va amaldagi mavjud normativ hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan.

Jamiyat boshqaruv apparati, filiallari va uning tizimidagi pochta aloqasi tarmoqlari, pochta almashinuv punktlari, aloqa bo'linmalarida mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi masalalariga oid bo'lgan vazifalarni mazkur Nizom asosida olib boradi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni olib borish va tashkillashtirish uchun Jamiyat boshqaruv apparati va filiallarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'yicha muhandislari lavozimlari joriy qilinadi. Mas'ul mutaxassislar tomonidan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish bo'yicha nazoratni hamda profilaktik ishlarni ushbu Nizomda belgilangan funksional vazifalarni bajaradi.

Rahbar xodimlar, uchastka va bo'limlar boshliqlari, mehnat muxofazasiga mas'ul bo'lgan xodimlar, joylarda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratib berish, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, ish joylarida mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha mazkur Nizomda belgilangan vazifalarni bajarishlari shart.

Jamiyat boshqaruv apparati, filiallari va tarmoqlari, bo'limlariga yangi ishga kirayotgan mutahassislar, xodimlar va ishchilar bilan mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha dastlabki yo'l-yo'riqni mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha ma'sul bo'lgan xodimlar tomonidan berib boriladi.

Ishlayotgan ishchi-xodimlar bilan ish joyida xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha davriy, joriy va navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlarni Jamiyat boshqaruv apparati, uchastka, guruh, bo'lim boshliqlari, filial va tarmoqlardagi uchastka, bo'limlar boshliqlari o'tkazadilar va bu haqda jurnallarda qayd qilib boradilar.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha filiallarning mas'ul hodimlari filial xodimlar bo'limi, uchastka, tarmoqlar va aloqa bo'limlari boshliqlari bilimini mahsus tuzilgan doimiy harakatdagi komissiyasi tomonidan sinovdan o'tkaziladi. O'tkazilgan sinov natijalari bayonnomalar bilan

rasmiylashtiriladi va mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha mas'ul xodimlarda belgilangan tartibda saqlanadi.

Jamiyat uning filiallari va tuman-shahar pochta aloqasi tarmoqlari rahbar xodimlari, bo'lim, uchastka va aloqa bo'limlari boshliqlari o'zlariga ushbu Nizomda belgilangan funksional vazifalarni bajarmaganliklari uchun qonunchilikda belgilangan intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

## **2. Ishchilarning mehnat sharoitlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar**

1. Mehnatni muhofaza qilish — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimidir.

2. Ish jarayonida mehnatning xavfsiz usullarini, inson sog'lig'i va ish qobiliyatini saqlashni ta'minlash uchun quyidagi o'zaro bog'langan masalalar majmuini hal qilishi zarur:

### **a) Ishchilarni kasb bo'yicha tanlash:**

- 1) Kasbiy tanlov o'tkazish zarur bo'lgan kasb va mutaxassisliklarni aniqlash;
- 2) Psixofiziologik tekshiruv o'tkazish va ishga yangi kirayotganlarning kasbiy yaroqliligini baholash;
- 3) Kasbiy tanlovdan o'tgan shaxslarni sharoitga kasbiy moslashishining nazorati.

### **b) Ishlayotganlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va bilimlarini tekshirish:**

- 1) Kirish yo'l-yo'rig'idan o'tkazish;
- 2) Ish joyida birlamchi yo'l-yo'riq o'tkazish;
- 3) Ish joyida davriy yo'l-yo'riq o'tkazish;
- 4) Rejadan tashqari yo'l-yo'riq o'tkazish;
- 5) Ishchilarni har yili o'qitish, bilimlarini tekshirish;
- 6) Yuqori xavf bilan bog'liq bo'lgan ishlarga qabul qilinuvchi ishchilarni o'qitish;

7) Baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha o'qitish.

**v) Mehnat muhofazasining targ'iboti masalalarini ta'minlash:**

- 1) Tashkilotlarda mehnat muhofazasi bo'yicha xonani jihozlash;
- 2) Ishlab chiqarish uchastkalarini xavfsizlik texnikasi bo'yicha axborot stendlar yoki burchaklar bilan bezatish;
- 3) Mehnat muhofazasi bo'yicha ilg'or tajribani o'rganish, targ'ibot qilish va joriy etish;
- 4) Mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rgazmalar tashkil ilish;
- 5) Mehnat muhofazasi bo'yicha ma'ruzalar o'qish, kinofilmlar namoyish qilish.

**g) Ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish xavfsizligini ta'minlash:**

- 1) Uskunalarining xavfsizlik standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash;
- 2) Uskunaning MXST va uskunalarining texnik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash;
- 3) Uskunalariga to'g'ri xizmat ko'rsatilishini ta'minlash;
- 4) Davriy ta'mirlash amallarini o'tkazilishini ta'minlash;
- 5) Rejaviy ta'mirlashlarning bajarilishini ta'minlash;
- 6) Davriy ko'riklarni ta'minlash;
- 7) Mehnat muhofazasi qoidalari va meyorlari talablariga muvofiq ish joylarini tashkil qilish;
- 8) Ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari manbalarini aniqlash va bartaraf etish;
- 9) Texnologik jarayonlarni oqilona tashkil qilish, xavfli bloklar va uchastkalarni germetizatsiya hamda izolyatsiya qilish maqsadida uskunalarni takomillashtirish;
- 10) Issiqlik manbalarini va issiqlikni saqlash uchun izolyatsiyalash ekranlash;
- 11) YUCH va O'YUCH radiochastotalar diapazonida nurlanishni ekranlash.

**d) Ishlab chiqarish jarayonlari va amallari xavfsizligini ta'minlash:**

- 1) Texnologik jarayonlarning MXST talablariga muvofiqligini ta'minlash;
- 2) Texnologik jarayonlar tartiblariga rioya qilishni ta'minlash;

3) Mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligining meyorlari talablariga muvofiq portlaydigan va yonadigan moddalarni saqlash, tashish va ulardan foydalanishni ta'minlash;

4) Ruxsat etilgan meyorlari chegarasida (konsentratsiyalari) ishlab chiqilmagan va belgilangan tartibda ekspertizadan o'tmagan zararli moddalarni ishlab chiqarishda qo'llanilishini taqiqlash;

5) Zararli, zaharli, ionlovchi va boshqa xavfli moddalar qo'llaniladigan texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.

**ye) Ishlab chiqarish, yordamchi bino va inshootlardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash;**

1) Bino va inshootlarning QMQ, SNiP va MXST talablariga muvofiqligini ta'minlash;

2) Bino va inshootlarning potensial xavfli elementlarini aniqlash va bartaraf etish;

3) Bino va inshootlarning joriy va kapital ta'mirini o'tkazish.

**j) Mehnatning sanitar – gigiyena sharoitlarini meyorlashtirish;**

1) Sexlarda va ishlab chiqarish xonalarida sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan, zarur harorat-namlik tartibini yaratish;

2) Mazkur texnologik jarayonga qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan ventilyatsiya qurilmalari, konditsionerlar, isitish tizimlarini saqlash va foydalanish;

3) Sun'iy yoritish chiroqlarini soz va tozalikda saqlash;

4) Ishlab chiqarish xonalarini tozalashni o'z vaqtida o'tkazish;

5) Ish joylarini va ishlab chiqarish binolarini rejalashtirish va ranglar bilan bezatish estetika va dizayn qoidalariga mos kelishi kerak.

**i) Ishchilarni shaxsiy himoya vositalari (SHHV) bilan ta'minlash;**

1) SHHVga ehtiyojni aniqlash va talabnomalarni o'z vaqtida tuzish;

2) SHHVlarni qabul qilish, saqlash va berishni tashkil qilish;

3) SHHVlarni ta'mirlash, kimyoviy tozalash va yuvishni tashkil qilish;

4) SHMVlarning sinashni va to'g'ri foydalanilishini ta'minlash.

**k) Mehnat va dam olishning eng maqbul tartibini ta'minlash:**

- 1) Mehnat va dam olishning belgilangan tartibiga rioya qilishni ta'minlash;
- 2) Mehnat va dam olish tartibini oqilona tashkil qilish.

**l) Ishlaydiganlarga davolash – sog'lomlashtirish xizmati ko'rsatilishini ta'minlash;**

- 1) Dastlabki va davriy tibbiy ko'riklar o'tkazish;
- 2) Ishlab chiqarishning zararli omillar ta'sirida bo'luvchi ishchilarning sog'lig'ini kuzatish;
- 3) Kasbiy kasallik belgilari bo'lgan shaxslarni tekshirish va davolash;
- 4) Davolash-kasallikni oldini olish tadbirlarini ta'minlash;
- 5) Ishchilarni kasallikni oldini olish va maxsus ovqatlanish bilan ta'minlash;
- 6) Ishchilarga shifokor kelgunga qadar birinchi yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatish;
- 7) Barcha ishlab chiqarish xonalarini dori saqlanadigan idish va boshqa birinchi yordam ko'rsatish vositalari bilan ta'minlash.

**m) Ishchilarga sanitar – maishiy xizmat ko'rsatishni meyorlashtirish:**

- 1) Ishchilarni ishlab chiqarish meyorlari va xususiyatlariga muvofiq sanitar-maishiy xonalar va qurilmalar bilan ta'minlanganligi;
- 2) Sanitar-maishiy xonalar va qurilmalarni gigiyenik talablarga mos holda saqlanishi;
- 3) Tashkilotning tarkibiy bo'linmalari (ishlab chiqarish uchastkalari) ishchilarini ovqatlanish uchun maxsus joylar bilan ta'minlash;
- 4) Ishlab chiqarish uchastkalari va xonalarni saturator qurilmalar bilan ta'minlanganligi;
- 5) Ishchilarni tarkibiy tashkilotlar (ishlab chiqarish uchastkalari) ni dam olish joylari bilan ta'minlash.

**3. Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish.**

1. Tashkilotlarda har bir ish joyidagi mehnat sharoitlari mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, qoidalar va meyorlar talablariga mos kelishi kerak.
2. Tashkilotlar jamoa shartnomasi, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushma qo'mitasi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha, yoki ishchilarning boshqa

vakolatli organi tomonidan belgilangan miqdorda zarur mablag'larni mehnat muhofazasiga ajratishlari zarur.

3. Korxonalar xo'jalik, tijorat, tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat, shuningdek boshqa manbalardan foyda (daromad) hisobiga mehnat muhofazasi bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalarni tuzishlari mumkin.

4. Mehnat muhofazasi jamg'armasiga yo'naltirilgan foyda soliqqa tortilmaydi; Mehnat muhofazasi mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Mehnat muhofazasi bo'yicha talablar ta'minlanmagani uchun tashkilotlar mehnat holati, bajariladigan ishlarning xavfliligini, zararliligi va og'irligiga qarab, vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladigan oshirilgan tariflar bo'yicha ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalligidan ijtimoiy sug'urta qilish maqsadida mablag'lar ajratiladi.

5. Tashkilotlar ishchilari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ravishda sug'urta qilinadilar.

6. Ish beruvchining funksiyalari:

- korxonalarda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha ishlarda umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, buning uchun u shaxsan javobgardir;

- ishlab chiqarishning, alohida ishlarning ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarining, shuningdek tashkilotning ombor, transport va boshqa yordamchi xo'jaliklarini to'g'ri tashkil qilinishini ta'minlaydi;

- qurilish meyorlari va qoidalariga muvofiq bino va inshootlardan foydalanishni, ularning meyorda ishlashini hamda sanitar - maishiy xona va qurilmalardan belgilangan maqsadlarda foydalanishni tashkil qiladi;

- yangi va qayta ko'rilgan tarkibiy bo'linmalarni faqat qurilish meyorlari va qoidalariga muvofiq, ular maxsus komissiya tomonidan qabul qilingandan keyin foydalanishga kiritishni ta'minlaydi;

- mehnat to'g'risidagi qonun, xavfsizlik qoidalari va meyorlariga rioya qilishni, shuningdek hukumat, kasaba uyushmasi qo'mitalari yoki ishchilarning boshqa

vakillik organlari, yuqori turuvchi tashkilotlar, davlat va idoraviy nazorat organlari qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;

- namunaviy va soha qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan ichki mehnat tartibi qoidalarini kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlaydi;

- xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat intizomi meyorlariga rioya qilish uchun, mehnat muhofazasi bo'yicha belgilangan tadbirlarni hamda davlat va idoraviy nazorat organlari va kasaba uyushmasi tashkilotlarining ko'rsatmalarini (takliflarini) o'z vaqtida bajarish uchun ishchilarning javobgarligini oshirish choralarini ko'radi;

- ishchilarning shaxsiy muhofaza vositalarini berish, saqlash, foydalanish, tozalash va ta'mirlashni ta'minlaydi va nazorat qiladi;

- mehnat sharoitlari zararli va xavfli bo'lgan ishlab chiqarishlarda, shuningdek alohida temperatura sharoitlarida bajariladigan ishlarda yuvish va dezinfeksiyalovchi vositalarni, sut yoki boshqa tenglashtirilgan oziq - ovqat davolash-profilaktika taomlarining belgilangan meyorlar bo'yicha bepul berilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

- mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishni tashkil qiladi, ushbu tadbirlarni o'tkazish rejalarini tasdiqlaydi, ularning bajarilishini va belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan nazoratni tashkil qiladi, tadbirlarni o'tkazishning moliyalashtirilishini va ushbu maqsad uchun ajratilgan mablag'larni to'g'ri sarflanishini ta'minlaydi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish kompleks rejasi bajarilishining borishini (yilning har choragida kamida bir marta) ko'rib chiqadi.

- mehnat muhofazasi kabinetlarini tashkil qiladi va ularni zarur o'quv qurollari, o'qitish vositalari bilan jihozlash bo'yicha choralarni ko'radi.

- tashkilotning barcha ishchilari, shu jumladan tarkibiy bo'linma rahbarlarini mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha o'qitish, yo'l-yo'riq va ularning bilimlarini tekshirishni tashkil qiladi va olib boradi;

- ishchilarni kasbiy-texnik tayyorgarligini tashkil qilish va xodimlarga ishning xavfsiz usullarini o'rgatish bo'yicha umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

- sogʻliqni saqlash organlari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, bir qator kasb ishchilarini shartnoma tuzish vaqtida va uning amal qilish davomida, davriy tibbiy koʻrikdan oʻtkazishni amalga oshirishni tashkil qiladi.

- kasb kasalligining paydo boʻlish darajasi yuqori boʻlgan ishga ishchilarni qabul qilishda ularni bu haqda ogohlantiradi;

- baxtsiz hodisalarni hamda ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olish boʻyicha tezkor axborotni “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bogʻliq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish toʻgʻrisida”gi Nizom talablariga muvofiq oʻz vaqtida va toʻgʻri tekshirishni taʼminlaydi.

Guruhli, oqibati oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir va oʻlim bilan tugagan baxtsiz hodisa toʻgʻrisida ish beruvchi darhol sxemaga binoan quyidagilarga xabar berishi kerak:

hududiy mehnat organining davlat mehnat inspeksiyasiga;

yuqori turuvchi xoʻjalik organiga;

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga;

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga;

Oʻzbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qoʻmitasining mahalliy organiga va «Oʻzenergoinspeksiya»ning hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxonada yuz bergan boʻlsa;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchiga.

7. Tashkilot bosh muhandisining vazifalari:

- sogʻlom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va taʼminlash boʻyicha barcha tashkiliy-texnik ishlarga boshchilik qiladi;

- eng yangi ilmiy-texnik yutuqlar va boshqa tashkilotlarning ilgʻor tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yangi yanada xavfsiz texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga joriy qilishni tashkil qiladi. Tarkibiy boʻlinmalarni normativlarga muvofiq moslama va qurilmalar bilan taʼminlash choralarini koʻradi;

- yangi texnologik jarayonlar va ish tartiblari, tashkilot va uning tarkibiy boʻlinmalarining kapital qurilishi va qayta qurilishi, binolar va inshootlarni kapital

ta'mirlash loyihalarini ko'rib chiqishda qatnashadi. Texnologik uskunalarni rejaviy-oldini olish ta'mirlashning o'tkazilish jadvallarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mehnat xavfsizligi bo'yicha doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi komissiyaga boshchilik qila turib, har chorakda, kamida bir marta tanlov asosida tarkibiy bo'linmalardagi mehnat sharoitlari holatini, shuningdek uskunalar va saqlovchi moslamalarning ishga yaroqliligini, davlat va idoraviy nazorat organlari ko'rsatmalari va topshiriqlarining bajarilishini tekshiradi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tezkor choralarni qabul qiladi;

- tarkibiy bo'linmalarning barcha rahbarlari va muhandis-texnik xodimlari tomonidan xavfsizlik qoidalari va ishlab chiqarish sanitariyasi meyorlari talablariga rioya qilinishi, buyruq va ko'rsatmalar hamda davlat va idoraviy nazorat organlarining yozma ko'rsatmalari va kasaba uyushmalari tashkilotlarining takliflarini bajarilishining nazoratini amalga oshiradi;

- muhandis-texnik xodimlarning majlislarda (har chorakda kamida bir marta) mehnat muhofazasi masalalarini, mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirishning kompleks rejalarini ko'rib chiqadi;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun choralar ko'radi;

- xodimlarning kasbiy-texnik tayyorgarligini tashkil etadi va ta'minlaydi, xodimlarni ishning xavfsiz usullari va uslublariga o'z vaqtida va sifatli o'qitadi. Xodimlarni o'qitishni tashkil etilishining tekshiruvini amalga oshiradi;

- yuz berishi mumkin bo'lgan avariylarni bartaraf qilish rejalarini bo'yicha xodimlarni o'qitish, shuningdek ishchilarni ishning xavfsiz uslublari va usullariga o'qitish bo'yicha nazoratni amalga oshiradi;

- mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha muhandis-texnik xodimlarni o'qitishni va malakasini oshirishni tashkil qiladi.

Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari uchun dastlabki yo'l-yo'riq berishni o'tkazadi, yo'l-yo'riqlar berish dasturlarini, xodimlarning bilimlarini tekshirish uchun savol varaqalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi:

- ishlarni xavfsiz olib borish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqishda va tuzishda rahbarlik qiladi va kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda ularni tasdiqlaydi;

- muhandis-texnik xodimlarni va ishchilarni normativ hujjatlar, qoidalar va yo'riqnomalar bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;

- mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarning joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda rahbarlik qiladi, ushbu rejalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlashga kiritadi, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;

- nizomlar va yo'riqnomalar talablariga muvofiq ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va avariylarni o'z vaqtida va to'g'ri tekshirish hamda hisobga olishni ta'minlaydi;

- guruhli, o'limga olib kelgan yoki og'ir baxtsiz hodisalarni tekshirishda, ularning oldini olish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishda qatnashadi zarur hollarda, tekshiruv materiallarini tegishli organlarga yuboradi;

- baxtsiz hodisalar to'g'risidagi dalolatnomalarni (N-1 shakl) ko'rib chiqadi va dalolatnomaning uch nusxasining hammasini tegishli tashkilotlarga yuborish uchun mehnatni muhofaza qilish xizmatiga topshiradi;

- ishlab chiqarishdagi jarohatlanish bo'yicha tezkor axborotni tashkil qiladi va ta'minlaydi;

- baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha bajariladigan chora-tadbirlarning nazoratini amalga oshiradi va o'tkazilgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi;

#### 8. Tashkilot bosh mexanigining funksiyalari:

- bosh mexanik xizmatiga biriktirilgan uskunar va inshootlarni oldini olish ko'riklarini, rejaviy oldini olish ta'mirlashlarni to'g'ri tashkil qilish va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi;

- yuk ko'taruvchi maxanzimlarni, yuk oluvchi va bog'lovchi moslamalarni, bosim ostida ishlovchi apparat va idishlarni, elektrpayvandlovchi apparatura, atsitelen, kislorod va kompressor qurilmalaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni ta'minlaydi;

- barcha ishlab chiqarish uskunalari va sanoat inshootlarining texnik xolati ulardan foydalanish va o'z vaqtida ta'mirlash yuzasidan nazoratni amalga oshiradi; mashinalar, qurilmalar, asboblarning va inshootlarning xavfsizlik va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari talablariga muvofiqligini ta'minlaydi. Texnik hujjatlarni yuritish bo'yicha nazoratni amalga oshiradi;

- uskunalar, mexanizmlar va asboblarning aniqlangan konstruktiv kamchiliklarini bartaraf etish, ma'naviy eskirgan mashinalarni, mexanizmlarni va qurilmalarni o'z vaqtida almashtirish bo'yicha tadbirlarni qabul qiladi. Texnikaning yangi namunalarini sinashda qatnashadi;

- ventilyatsion qurilma va tizimlarning samarali ishlashini va ularni o'z vaqtida ta'mirlashni ta'minlaydi;

- bosh mexanik xizmati xodimlarining, shuningdek yuk ko'taruvchi kranlarda, bosim ostida ishlaydigan idishlarda va boshqa murakkab mexanizmlarda ishlaydigan xodimlarni o'qitishni, ularning bilimlarini tekshirishni va shahodatlashni tashkil qiladi va o'tkazadi;

- bosh mexanik xizmati xodimlari uchun ishlarni xavfsiz olib borish bo'yicha yo'riqnomalarni o'z vaqtida ishlab chiqishni tashkil qiladi, ishchilarga yo'riqnomalar tuzishda sex va xizmat ishchilariga yordam ko'rsatadi;

- xodimlarning murakkab mexanizmlar va agregatlarga xizmat ko'rsatishga yo'l qo'yish xuquqiga rioya qilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi;

- uskuna va asboblarning mas'ul detallari va uzellarining nuqsonlarini aniqlashni o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi;

- mehnat muhofazasi holatining uch bosqichli nazoratini o'tkazishda qatnashadi;

- yer usti uskunasi bilan yuz bergan, baxtsiz hodisalarga olib kelgan, avariyalarni o'z vaqtida tekshirish va hisobga olishni ta'minlaydi;

- tashkilot tarkibiy bo'linmalarining doimo ishlaydigan komissiya tomonidan o'tkaziladigan kompleks va maqsadli tekshirishlarda qatnashadi;

- tashkilotning amaldagi tarkibiy bo'linmalarida uskunalaridan foydalanishda va ta'mirlash, montaj qilish va sozlash ishlarini o'tkazishda xavfsizlik qoidalari rioya qilinishini ta'minlaydi;

- davlat va idoraviy nazorat organlarining, mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlari ko'rsatmalarining, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha bo'yruq va farmoyishlarining bajarilishini tashkil qiladi va ta'minlaydi.

#### 9. Sex boshlig'ining funksiyalari:

- mehnat qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilishni ta'minlaydi;

- tashkilotning bosh muhandisi (mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilot rahbarining o'rinbosari) tomonidan tasdiqlangan o'z uchastkasida xavfi yuqori ishlarning ro'yxatiga ega bo'ladi;

- ishlar bajarilishini, xavfsizlik qoidalari va ishlab chiqarish sanitariyasi meyorlari talablariga muvofiq texnologik jarayonlarni to'g'ri olib borilishini tashkil qiladi;

- uskunalar, mexanizmlar, aloqa inshootlari va liniyalari, moslama, ihotalovchi va saqlovchi qurilmalar, shuningdek ishlab chiqarish va yordamchi binolarning sozligini va xavfsiz foydalanilishini ta'minlaydi;

- Davlat nazorat organlarining va Agentlik hamda tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlarining buyruq va ko'rsatmalari, yozma ko'rsatma va talablari, ishchilar va mehnat muhofazasi mutaxassislarining mulohaza va takliflarini belgilangan muddatlarda bajarilishini amalga oshiradi;

- barcha muhandis-texnik xodimlar va ishlarni bevosita bajaruvchilarni mehnatning xavfsiz sharoitlarini yaratish va ta'minlash bo'yicha ishlarga jalb etadi;

- ehtiyojni aniqlaydi va ishchilarni meyor va qoidalarga muvofiq maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari, sovun, sut bilan ta'minlaydi, shuningdek maxsus kiyim va maxsus poyabzalni o'z vaqtida yuvilishi va ta'mirlanishini ta'minlaydi;

- obyektlarda uskunalar, mexanizmlar, moslama va asboblari, ventilyatsiya uskunalari, isitish va yoritish tizimlari, ihotalovchi va saqlovchi qurilmalar, avtomatik nazorat va signalizatsiya qurilmalaridan obyektlaridan to'g'ri foydalanilishini, himoyaviy yerga ulanuvchi va himoyaviy o'chirish qurilmalarining mavjudligi va sozligini tekshiradi;

Tashkilotning kasaba qo‘mitasi yoki ishchilarning boshqa vakillik organlari bilan kelishuvga ko‘ra, o‘tkazilgan tadbirlar natijasida tejalgan pul mablag‘lari va moddiy resurslar mehnat muhofazasi bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlarni o‘tkazishga sarflanishi mumkin.

#### 10. Korxonada xodimining funksiyalari:

- tegishli qonuniy va normativ hujjatlar, jamoa shartnomalari bilan belgilangan mehnat muhofazasi bo‘yicha qoida va meyorlarning talablariga rioya qilishi shart;
- mehnat muhofazasi bo‘yicha standartlar, qoidalar, normalar va yo‘riqnomalar talablariga muvofiq ish joylarini tashkil qiladi;
- mehnat qonun hujjatlari, ichki mehnat tartibi qoidalari, ishlab chiqarish va mehnat intizomi talablariga rioya qiladi;
- shaxsiy tartibda va jamoa muhofaza vositalarini bilishi va ulardan foydalanishni bilishi kerak;
- shaxsiy gigiyena talablariga rioya qiladi;
- uning kasbi va ish turlari uchun belgilangan muddatda bilimlar tekshiruvini, o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berishdan o‘tishi shart;
- baxtsiz hodisalarda dastlabki yordam ko‘rsatish qoidalarini bilishi va u bo‘yicha amaliy malakaga ega bo‘lishi kerak;
- ish beruvchidan ish joylarida tegishli mehnat sharoitlarini, mehnat muhofazasi bo‘yicha standart, qoida va meyorlar talablariga rioya qilinishini talab qilishi kerak;
- xodim sog‘lig‘ining yomonlashuvi mehnat sharoitlari bilan bog‘liq deb hisoblasa, navbatdan tashqari tibbiy ko‘rikdan o‘tishni talab qilish huquqiga ega;
- inson hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan har qanday vaziyatlar, shuningdek ishni bajarilishida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisalar haqida o‘zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar qilishi shart;
- o‘z ish joyiga tegishli imtiyozlar va kompensatsiyalar haqida xabardor bo‘lish huquqiga ega;
- baxtsiz hodisa va kasbiy kasallikdan majburiy sug‘urtalanishi kerak;
- yo‘riqnoma talablarini bajarish majburiydir va ishchi tomonidan ularni bajarmaslik ishlab chiqarish intizomini buzish deb hisoblanadi.

#### **4. Mehnat muhofazasi holatining nazorati**

1. Tashkilotlarda mehnat muhofazasi holatini tashkil qilishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat tekshiruvi va nazorati;
- idoraviy tekshiruv va nazorat;
- uch bosqichli (maʼmuriy - jamoat) nazorat;
- jamoat nazorati.

2. Oʻzbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonuniga asosan mehnat muhofazasi holatining Davlat tekshiruvi va nazorati ushbu organlar toʻgʻrisida belgilangan tartibda tasdiqlangan qoidalarga muvofiq amal qiluvchi davlat organlarining maxsus vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Idoraviy tekshiruv va nazorat idoraning tekshiruv idoralari, tashkilotning mehnat muhofazasi xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

4. Uch bosqichli nazorat kasaba uyushmasi tashkiloti ishtirokida tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

5. Oʻzbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq Agentlik tizimida faoliyat koʻrsatuvchi aksiyadorlik kompaniyalar va korxonalarda mehnat muhofazasi sohasida qonuniy huquq va xodimlarning manfaatlariga rioya qilinishing jamoat nazorati mehnat jamoasi va aloqa xodimlarining kasaba uyushmasi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Tashkilotlarda mehnat muhofazasining holati yomonlashganda kasaba uyushmasi tashkilotining tegishli idorasi bilan kelishuviga koʻra, mehnat muhofazasini nazorati boʻyicha qoʻshimcha choralarni koʻzda tutuvchi nazoratning alohida shartlari kiritilishi mumkin.

7. Ayrim tashkilotlar uchun mehnat muhofazasi holati ustidan nazoratning yuqorida qayd etib oʻtilgan asosiy koʻrinishlaridan tashqari, zarur boʻlganda, tegishli rahbarlar tomonidan ish joylarda ishchilar mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilishlari boʻyicha nazoratning boshqa shakllari ham belgilanishi mumkin.

8. Idoraviy tekshiruv va nazorat:

Tashkilotlarda mehnat muhofazasi holati boʻyicha idoraviy tekshiruv va nazorat:

- kompleks va maqsadli tekshiruvlar o'tkazilganda mehnatni muhofaza qilish xizmati, Agentlikning nazorat qiluvchi bo'limlari, rahbarlari va mutaxassislari, aksiyadorlik kompaniyalari, tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari tomonidan;

- tezkor nazoratda, barcha darajadagi rahbarlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

#### 9. Kompleks va maqsadli tekshiruvlar:

- tashkilotlarda mehnat muhofazasi holatlarining kompleks va maqsadli tekshirish yillik statistik hisobotlar, ishlab chiqarishda jarohatlanish va mehnat muhofazasi holatining tahlili natijalariga asosan o'tkaziladi;

- majmuaviy tekshiruvlar tashkilotlarda mehnat muhofazasi va sharoitlar holatini har tomonlama nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi;

- maqsadli tekshiruvlar mehnat muhofazasining ba'zi masalalari holatini, yuqori turuvchi organlarining buyruqlari, ko'rsatmalari, farmoyishlari va mehnat muhofazasi sohasida jamoa shartnomalarining bajarilishini borishi, shuningdek kompleks tekshiruvlarning natijalari bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish uchun o'tkaziladi.

#### 10. Tezkor nazorat:

- mehnat muhofazasini holati bo'yicha tezkor nazorat mehnat muhofazasi xizmati va Agentlikning nazorat qiluvchi bo'limlari, aksiyadorlik kompaniyalar, tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislari tomonidan - o'ziga bo'ysunadigan korxonaga chiqilganda, tashkilot rahbarlari tomonidan esa-unga buysunadigan bo'linmalarga borilganda o'tkaziladi;

- tezkor nazoratning asosiy vazifalari mehnat muhofazasi bo'yicha rahbar va mutaxassis tomonidan ularning lavozim majburiyatlarining, shuningdek xodimlarning mehnat sharoitlari va ish joylarida xavfsizlik talablariga rioya qilishning buzilishlarini aniqlash hisoblanadi;

- tezkor tekshiruv natijalari dalolatnoma (ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak, bir nusxasi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish

uchun tekshirilayotgan tashkilot rahbariga taqdim etiladi. 2-nusxasi tegishli choralarni qabul qilish uchun tekshiruvni tashkil qilgan rahbarga taqdim qilinadi;

#### 11. Uch bosqichli nazorat:

Uch bosqichli nazorat tashkilot, korxonalar rahbari uchun ish joylarda mehnat muhofazasi holatini tashkil qilinishining, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, mehnat xavfsizligi standartlar tizimi, mehnat muhofazasi bo'yicha meyor, qoida, yo'riqnoma va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni barcha mansabdor shaxslar va xodimlar tomonidan rioya qilinishining asosiy nazorat shakli hisoblanadi.

Uch bosqichli nazoratning asosiy vazifasi mehnat muhofazasi bo'yicha barcha majmuaviy tadbirlarning bajarilishini tashkil qilish, mehnat muhofazasi holatini o'z vaqtida tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun mas'ullarni belgilashdan iborat.

Uch bosqichli nazorat natijalari birinchi va ikkinchi bosqich qayd etish daftarlarida, uchinchi bosqich bayonnomasida aks ettiriladi.

Tashkilot tarkibiga qarab muvofiq uch bosqichli nazoratni tashkil qilish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- birinchi bosqichda-ishlarning bevosita rahbari;
- ikkinchi bosqichda-tashkilotning tarkibiy bo'linmasining rahbari (sex boshlig'i, usta va boshqalar);
- uchinchi bosqichda – tashkilot, korxonalar rahbari.

Nazoratning birinchi bosqichi ishning bevosita rahbari tomonidan (usta, brigadir va b.) ish kuni (smena) boshlanganda ham va butun ish kuni davomida ham har kuni o'tkaziladi.

Nazoratning ikkinchi bosqichi tashkilot tarkibiy bo'linmasining rahbari (sex boshlig'i, usta) boshchilik qiluvchi komissiya tomonidan oyda ikki marta o'tkaziladi.

Nazoratning uchinchi bosqichi korxonalar rahbari (rahbar o'rinbosari) va kasaba uyushma qo'mitasining raisi boshchiligidagi komissiya uch oyda bir martadan kam bo'lmagan holda o'tkazadi.

## **5. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitishni va bilimlarni tekshirishni tashkil qilish**

1. Tashkilotning barcha xodimlari, shu jumladan rahbarlari lavozim majburiyatlari va bajariladigan ishlarning tusidan kelib chiqib malakaviy talablari hajmida o'qitish, yo'l-yo'riq olish, bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishi zarur.

2. Tashkilotga ishga kirgan xodimlar faqat ishlarni xavfsiz olib borish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tgandan, tegishli tajriba orttirish va bilimlari tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga yo'l qo'yilishi mumkin.

3. O'ta xavfli ishlarga va bug' hamda suv isitish qozonlarga, yuk ko'tarish mexanizmlar, katta bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr qurilma, maxsus mashina va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarga tegishli ma'lumotga egaligi haqidagi hujjati bo'lgan shaxslar olinishi mumkin.

4. Agentlik tizimida faoliyat ko'rsatuvchi umuman aksiyadorlik kompaniyalar va tashkilotlar bo'yicha mehnat muhofazasi talablarini o'z vaqtida va sifatli o'qitish hamda bilimlarni tekshirishni tashkil qilish uchun javobgarlik Agentlik, aksiyadorlik kompaniyalar, tashkilotlarning rahbarlariga, tarkibiy bo'linmalarda (filiallar, sex, uchastka, bo'lim, laboratoriya, ustaxona va boshqalar) - tarkibiy bo'linma rahbariga yuklatiladi.

5. Tashkilot ishchilarining mehnat muhofazasi bo'yicha o'z vaqtida o'qitishni mehnat muhofaza xizmati yoki tashkilot rahbarining buyrug'i bilan ushbu majburiyat yuklatilgan shaxs (mehnat muxofazasi bo'yicha mutaxassis) nazorat qiladi. Mehnat muhofazasi xizmati yoki mutaxassis mavjud bo'lmagan hollarda nazorat xodimlar bo'limiga yuklatiladi.

6. Mehnat muhofazasi bo'yicha xodimlarni, jumladan tashkilot rahbarlarini ishdan ajralgan va ajralmagan holda o'qitish va ularning mehnat muhofazasi talablari bo'yicha bilimlarini tekshirishni mablag' bilan ta'minlash ish beruvchining xisobidan amalga oshiriladi.

7. Agentlik, aksiyadorlik kompaniyalar, tashkilotlarning rahbarlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- mehnat muhofazasi xizmatini mutaxassislar bilan to'ldirishni;

- kamida uch yilda bir marta, Agentlikning muntazam faoliyat ko'rsatuvchi imtihon komissiyasi tomonidan mehnat muhofazasi talablari bo'yicha bilimlar tekshiruvini o'tkazishni;

- uch yilda bir martadan kam bo'lmagan holda mehnat muhofazasi bo'yicha ularning malakasini oshirish.

8. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va yo'l-yo'riq berish ish vaqtida o'tkaziladi.

9. Mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha xodimlarni, shu jumladan tashkilot rahbarlarini o'qitish namunaviy dasturlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va tashkilotning kasaba uyushmasi, mehnat muhofazasi xizmati (mehnat muhofazasi bo'yicha mutaxassis) bilan kelishilgan va korxonah rahbari (bosh muhandisi, mehnat muhofazasi bo'yicha rahbar o'rinbosari) tomonidan tasdiqlangan dasturlar bo'yicha o'tkaziladi.

Xodimlarning, shu jumladan korxonah rahbarlarining mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha o'qitishning namunaviy dasturlari Agentlik yoki mehnat muhofazasi talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarini tekshirishga ruxsati bor o'quv markazlari, institutlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

## **6. Xodimlarni o'qitish va bilimlarini tekshirish**

1. Xodimlarga yo'l – yo'riq berish. Xodimlarga yo'l-yo'riq berish kirish va ish joyida yo'l-yo'riq berishlarga bo'linadi. Ish joyida yo'l-yo'riq berish o'z navbatida birlamchi, davriy va navbatdan tashqarilarga bo'linadi.

2. Kirish yo'l – yo'rig'ini berish.

Tashkilotga ishga kiruvchi barcha xodimlar va ushbu korxonahga ishlash uchun xizmat safariga jo'natilgan boshqa tashkilotlar xodimlari (malakasi, ish tajribasi va stajidan qat'i nazar), shuningdek amaliy ishni o'rganuvchi va o'quvchilar kirish yo'l-yo'rig'idan o'tadilar.

Xodimlarga kirish yo'l-yo'rig'ini berish mehnat muhofazasi xizmatining mutaxassisi yoki ushbu majburiyat yuklatilgan boshqa xodim o'tkazishi kerak. Agar xodimni ishga qabul qilish bevosita tarkibiy bo'linmalar o'zida o'tkazilsa, unda kirish yo'l-yo'rig'ini tarkibiy bo'linmalarining rahbarlaridan biri o'tkazishi kerak.

Shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish to'g'risidagi, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha yo'l-yo'riq berish tegishli mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi.

Kirish yo'l-yo'rig'ini o'quv materiallarining muayyan mazmuni va ishlab chiqarish sharoitlariga tegishli zamonaviy o'qitishning texnik vositalaridan, ko'rgazmali qo'llanmalar va adabiyotlardan foydalanib mehnat muhofazasi xonasida o'tkazilishi kerak.

Kirish yo'l-yo'rig'ini bir guruh xodimlar bilan, hamda alohida xodimlar bilan ham o'tkazilishi mumkin. Guruh tarkibining soni qoidaga ko'ra 10 kishidan oshmasligi kerak.

Kirish yo'l-yo'rig'ini tashkilotning kasaba uyushmasi bilan kelishuvga ko'ra, rahbar (bosh muhandis, mehnat muhofazasi bo'yicha rahbar o'rinbosari) tomonidan tasdiqlangan, mehnatni muhofaza qilish tizimi, mehnat muhofazasi bo'yicha qoida, meyor va yo'riqnomalarning talablarini, shuningdek ishlab chiqarishning barcha xususiyatlarini hisobga olib, mehnat muhofazasi xizmati (mehnat muhofazasi bo'yicha mutaxassis) tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha o'tkaziladi.

Kirish yo'l-yo'rig'ini o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot Kirish yo'l-yo'rig'ini o'tkazish jurnalida qayd qilinishi va xodimning qabul qilish to'g'risidagi yozuvlari yoki yo'l-yo'riq oluvchi va yo'l-yo'riqdan o'tuvchilarning imzosi bo'lgan nazorat varag'ida tegishli belgi qo'yilgan bo'lishi kerak.

Nazorat varag'i ishchining shaxsiy varaqchasi bilan xodimlar bo'limiga beriladi va saqlanadi, rahbar va mutaxassislarning nazorat varag'i esa shaxsiy jildda saqlanadi.

Xodimlar bo'limining xodimi nazorat varaqlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, xodimlarning bilimi tekshirilgandan so'ng va ular mustaqil ishlashga ruxsat olganlaridan keyin, uni o'z vaqtida xodimlar bo'limiga qaytarilishini nazorat qilishi kerak.

3. Ish joyida yo'l – yo'riq o'tkazish. Barcha ishchilar, kirish yo'l-yo'rig'idan tashqari ish joyida yo'l-yo'riqdan o'tishlari kerak.

Ish joyida yo‘l-yo‘riq o‘tkazishdan maqsad har bir xodimga to‘g‘ri va xavfsiz ishlash usul va uslublarini o‘rgatish, yo‘l-yo‘riq o‘tkazish jarayonida uskunalar, mexanizmlar, moslamalar, ularning tuzilish xususiyatlari va tavsiflari, mumkin bo‘lgan xavflar va xavfsiz ishlash usullari hamda ish joylarini tayyorlash tartibi bilan ishchilarni tanishtirish hisoblanadi.

Ish joyida yo‘l-yo‘riq o‘tkazishni ishchining tarkibiy bo‘linma bo‘yicha bevosita rahbariga yuklatiladi. Zarur hollarda, yo‘l-yo‘riq o‘tkazish tegishli mutaxassislar (mexaniklar, energetiklar, texnologlar, yo‘l-yo‘riq beruvchi vaxtalar va boshqalar) qatnashuvi bilan o‘tkaziladi.

Yo‘l-yo‘riq o‘tkazish mehnat muhofazasi uchun ma’sul mansabdor shaxslar yoki tashkilotning bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha yo‘riqnoma va qoidalar asosida tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar bo‘yicha bevosita ish joylarida o‘tkaziladi. Bunday yo‘riqnomalar va ularning ro‘yxati tashkilotning bosh muhandisi yoki mehnat muhofazasi uchun javobgar bo‘lgan mansabdor shaxs tomonidan kasaba uyushmasi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Ishlarni xavfsiz olib borish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va ular bilan ishchilarni hamda ish joylarni ta’minlash, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga yuklatiladi.

4. Birlamchi yo‘l-yo‘riqni o‘tkazish bevosita ish joylarida amaliy o‘rgatish (tajriba orttirish) bilan xodimlar mustaqil ishga tushishdan avval, boshqa ishga yoki ishni boshqa tUSDagi ishlab chiqarish bo‘linmalariga o‘tkazish vaqtida o‘tkazilishi kerak.

Tashkilotga ishga kiruvchi amaliy o‘rgatish (tajriba orttirish)ni tajribali malakali ishchida o‘tishi kerak. Xodimning tajriba orttirish uchun biriktirish, o‘rgatish davomiyligi va o‘rgatishni muntazam nazorat qilishga majbur javobgar shaxs ko‘rsatilgan tarkibiy bo‘linma rahbarining yozma farmoyishi bilan rasmiylashtiradi.

Birlamchi yo‘l-yo‘riqni o‘tkazish ish joyida yo‘l-yo‘riqni qayd qilish jurnalida va nazorat varag‘ida rasmiylashtiradi.

5. Davriy yo‘l-yo‘riq o‘tkazishning maqsadi ma’lum vaqtdan keyin ishchilarning asosiy va boshqa ular tomonidan eng ko‘p bajariladigan ishlarni xavfsiz bajarish bo‘yicha bilimlarini yangilash va to‘ldirishdan iborat.

Davriy yo‘l-yo‘riqni o‘tkazish alohida yoki guruhli (bir turdagi kasblar va alohida turdagi ishlar) bo‘yicha bo‘lishi mumkin va dastur bo‘yicha sex yoki tashkilotning amaliy ishidan olingan muayyan misollarni batafsil ko‘rib chiqish bilan suhbat shaklida o‘tkazilishi kerak.

Belgilangan vaqtda turli xil sabablar bo‘yicha (ta‘til, kasallik, xizmat safari va b.) yo‘l-yo‘riq olishdan o‘tmagan xodimlar ishga chiqqan kunda yo‘l-yo‘riq olishdan o‘tishi kerak.

Davriy yo‘l-yo‘riqni o‘tkazish to‘g‘risida ish joyida yo‘l-yo‘riq o‘tkazishni qayd qilish jurnaliga yozilgan bo‘lishi kerak.

6. Xodimlarga navbatdan tashqari ishini xavfsiz olib borish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

- ishlab chiqarish jarayonlari o‘zgarganda, bir turdagi uskunalarni boshqasiga almashtirish natijasida mehnat sharoitlari o‘zgarganda;

- tarkibiy bo‘linmada baxtsiz xodisa yoki avariya sodir bo‘lgan vaqtda ishni xavfsiz olib borish bo‘yicha yangi qoida va yo‘riqnomalar kiritilishi bilan bog‘liq qo‘shimcha talablarni xodimlarga yetkazish zarurati bo‘lganda;

- ko‘rilgan ta‘sir etish choralaridan qat’i nazar, qoida va yo‘riqnomalar, ishlab chiqarish intizomining buzilishi aniqlanganda.

Xodimlarga navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq berish birlamchi va davriy yo‘l-yo‘riq berish kabi ishning bevosita rahbarlari tomonidan o‘tkazilishi kerak.

Navbatdan tashqari yo‘l-yo‘riq berishni o‘tkazish birlamchi va davriy yo‘l-yo‘riq berish kabi yo‘l-yo‘riq o‘tkazishni qayd qilish jurnalida sababi ko‘rsatilib rasmiylashtiriladi.

## **7. Xodimlarning bilimini tekshirish**

1. Birlamchi yo‘l-yo‘riq o‘tkazish va tajriba orttirishdan keyin (mustaqil ishga ruxsat etishdan oldin yoki bir ishdan boshqasiga o‘tkazilganda) xodimlar ishni

xavfsiz olib borish bo'yicha qoida va yo'riqnomalarni bilishini tekshirishni o'tkazishi kerak.

2. Bilimlarni tekshirish birlamchi, davriy va navbatdan tashqarilarga bo'linadi.

Bilimlarni tekshirish tarkibiy bo'linma rahbarlaridan birining raisligida tashkilot rahbari tomonidan tayinlangan komissiya amalga oshiradi. Muayyan sharoitlardan kelib chiqqan holda, zarur bo'lganda komissiya tarkibiga mexanik, energetik va boshqa mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Asosiy ishi bo'yicha qoida va yo'riqnomalarni bilishini tekshirish bilan bir qatorda, zarur hollarda xodimlardan boshqa qoidalarni (masalan, yuk ko'tarish kranlari, elektr karalar va sh.k.) bilishlari tekshirilishi kerak.

Bilimlar birlamchi tekshirilgandan keyin, xodimlarga tegishli rasmiylashtirish bilan yagona shakldagi bilimlari tekshirilganligi to'g'risidagi guvohnoma beriladi.

Bilimlarni tekshirish ish joylarida yo'l-yo'riq o'tkazish dasturi asosida mehnat muhofazasi bo'yicha tarkibiy bo'linma rahbari, mutaxassisi tomonidan ishlab chiqilgan savol varaqchasi bo'yicha o'tkaziladi.

3. Barcha xodimlar jadvalga muvofiq bilimlarini davriy tekshiruvdan o'tkazishi kerak. Jadvallar tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari tomonidan har yili tuziladi.

4. Bilimlarni navbatdan tashqari tekshirish:

- ishlab chiqarish jarayonlari o'zgarganda, uskuna va mexanizmlarning yangi turlari joriy qilinganda, shuningdek yangi qoida va yo'riqnomalar amalga kiritilganda;

- qoida va yo'riqnomalar buzilgan hollarda;

- qoida va yo'riqnomalarni bilish yetarli bo'lmaganligi aniqlanganda, tashkilot, davlat va idoraviy nazorat organlari rahbarlarining talabi yoki farmoyishi bo'yicha o'tkaziladi.

5. Bilimlarni tekshirish natijalari xodimlar bilimlarini tekshirishni qayd qilish jurnalida rasmiylashtiriladi va bir vaqtning o'zida guvohnomada yoziladi. Tekshiriluvchining bilimlarini baholashdan (yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz) tashqari ishchini mustaqil ishga yo'l qo'yish mumkinligi to'g'risida xulosa beriladi.

6. Agar xodim tekshiruv vaqtida qoniqarsiz bilimlarni ko'rsatsa, unda uni mustaqil ishlashiga yo'l qo'yilmaydi va ikki hafta muddatdan kechiktirmay qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

7. Mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarini vaqt-vaqti bilan tekshiruvdan o'tkazilishi majburiy bo'lgan xodimlarning ro'yxati keltiriladi. Xodimlarning ro'yxati kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra kengaytirilishi mumkin.

Takroriy bilimlarning tekshiruviga kelmaslik yoki sababsiz tekshiruvga tayyor bo'lmaslik, mehnat intizomi buzilgan deb ko'riladi.

Ushbu buzilishlarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan ichki mehnat tartibi qoidalarida ko'zda tutilgan intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Eng yuqori yo'l qo'yiladigan konsentratsiyaga ta'rif bering.
2. Ishlab chiqarish obyektlariga qo'yiladigan umumiy talablar nimalardan iborat?
3. Xavfli ishlab chiqarish omiliga tarif bering.
4. Yordamchi binolar va xonalar uchun sanitariya talablari nimalardan iborat?
5. Ish joyini tashkil qilishda qanday talablarga rioya qilishi zarur?
6. Sanitar maishiy xonalarga qaysi normativ hujjatga asosan talab qo'yiladi?
7. Tik turgan holdagi ish joylari, odatda qachon tavsiya etiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev O.R., Raximov O.R., Xo'jaqulov R.T., Hasanova O.T., "Mehnatni muhofaza qilish", Toshkent-2005.
2. X.Rahimova, A.A'zamov, T.Tursunov. Mehnatni muhofaza qilish.T. – "O'zbekiston" -2003.
3. Friend, Mark A.Fundamentals of occupational safety and health / Mark A. Friend and James P.Kohn. Government Institutes. An imprint of.The Scarecrow Press, Inc. Lanham, Maryland • Toronto • Plymouth, UK-2007.—4th ed.

5. Rukovodstvo po oxrane truda na predpriyatiyax / Yunusov B.X., Parsegova L.T. i dr. - Izdatelstvo «Farg‘ona», 2004 – 332 s.

### **3-mavzu: Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va yetkazilgan zararni to‘lash.**

#### **Reja;**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblari.
2. N-1 shakldagi dalolatnomani to‘ldirish tartibi.
3. Xodimlarga shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash tartibi.
4. Sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi bilan bog‘liq holda zararning jabrlanuvchiga to‘lanadigan miqdori.

#### **1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblari.**

**Jarohat** deb tashqi muhit ta‘sirida kishi tanasining behosdan shikastlanishiga aytiladi.

Jarohatlar – ishlab chiqarish va maishiy jarohatlarga bo‘linadi.

Korxonada ishchi tomonidan xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinmaganda olingan jarohatlarga ishlab chiqarish jarohatlari deyiladi.

Ishlab chiqarish jarohatlari ta‘sir turiga qarab, mexanik (masalan, urib olish, kesib olish, mayib bo‘lish va boshqalar), issiqlik (kuyish va muzlash), kimyoviy (kimyoviy kuyishlar), elektr (elektr zarbalari), murakkab (ikki va undan ortiq jarohat turlarining birga kelishi) xillariga bo‘linadi.

Ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan jarohatlar ikki turga, ya‘ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq va ish bilan bog‘liq jarohatlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarohatlarga ishchi yoki xodimlarni korxonada yoki undan tashqarida hizmat vazifalarini bajarish paytida ro‘y bergan jarohatlar kiradi. Bu guruhga yana korxonada transportida ishga ketayotganida, qaytayotganida yoki shu transportni boshqarayotganda olingan jarohatlar kiradi.

Ish bilan bog‘liq bo‘lgan jarohatlarga – ishga ketayotganda yoki qaytayotganda va korxonada hududida o‘z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olingan jarohatlar kiradi.

Maishiy jarohatlarga ish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa hodisalarda olingan jarohatlar kiradi.

Bulardan tashqari, to‘qimachilik korxonalarida kasbiy kasalliklar va zararlanishlar bo‘lishi mumkin.

Kasbiy kasalliklar ishchilarga zararli ish sharoitlarining ta‘siri natijasida hosil bo‘ladigan kasalliklardir. Zararli ish sharoitlariga yomon (nobop) iqlim sharoitlari, ish joylarida zararli changlarning mavjudligi, meyoridan ortiq shovqin va titrash, atmosfera bosimining meyoridan oshishi, yoritilganlikning yetarli bo‘lmasligi va boshqalar kiradi.

Yuqorida aytilgan zararli ish sharoiti ishchilarning shu sharoitga moslashuvini talab qilib, bu esa ularning tez charchashiga, mehnat unumdorligini pasayishiga olib keladi.

### **Jarohatlar, kasbiy kasalliklar va zararlanishning asosiy sabablari**

To‘qimachilik sanoatida uchraydigan jarohatlar, kasbiy kasalliklar va zaharlanishlarning sabablari juda xilma-xildir. Ularni asosan 4 guruhga bo‘linadi: texnik, tashkiliy, sanitar-gigiyenik va psixofiziologik sabablarga bo‘lish mumkin.

#### **Texnik sabablar:**

- mashina va uskunalarning konstruktiv kamchiliklari, ya‘ni uskunalarning konstruksiyasining mukammal emasligi, ularning sexda noma‘qul joylashtirilishi;
- mashina va dastgohlarning xavfli joylari to‘silganligi yoki to‘siqlarning noto‘g‘ri konstruksiya qilinganligi, xavfsizlik to‘siqlari qilinmaganligi;
- mashina va uskunalarning sexlarda joylashtirish meyorlarining buzilishi;
- asbob va uskunalarning mukammal emasligi yoki ularning nosozligi va boshqalar.

#### **Tashkiliy sabablar:**

- xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong‘in xavfi bo‘yicha, yo‘riqnomaning umuman o‘tkazilmaganligi yoki sifatsiz o‘tkazilganligi;

- ish joylarining noto'g'ri tashkil etilganligi, maxsus kiyimlarning va shaxsiy himoya vositalarining shu ish jarayoniga mos kelmasligi;

- ish joylari, yo'lak va transport yo'llarining to'silib qolishi;

- sexlarni va konstruktiv elementlarni changdan sifatsiz tozalash;

- dastgoh va mashinalarni sozlash jadvallarining buzilishi;

- mos kelmaydigan asbob va uskunalarni qo'llash;

- mehnat muhofazasi haqidagi qonun va yo'riqnomalarning buzilishi;

- ish vaqtidan tashqari ishlash;

- mehnat muhofazasi tadbirlarini targ'ibot va tashviqot qilish ishlarining sustligi;

### **Sanitar-gigiyenik sabablar:**

- oqava suvlardagi va havodagi zararli moddalarning yuqori konsentratsiyasi mavjudligi;

- nobop iqlim sharoitlari;

- yoritilganlikning yetarli emasligi yoki yoritgichlarning noqulay o'rnatilganligi;

- sexlarda shovqinning meyordan ortiq bo'lishi;

- sanitariya-maishiy xonalarning yetishmasligi yoki ularni yomon holatda saqlanishi;

- har bir ishchiga to'g'ri kelishi kerak bo'lgan maydon va hajm bo'yicha qurilish meyorlarining buzilishi;

- ishchi va hizmatchilarni tibbiy ko'riklardan o'tkazish jadvallarining buzilishi va boshqalar;

### **2. N-1 shakldagi dalolatnomani to'ldirish tartibi**

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha baxtsiz hodisalar amalda "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi Nizomda ko'rsatilgani bo'yicha tekshiriladi va hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo'linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo'lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo'lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

darhol hodisa to'g'risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilishi zarur.

Korxonada tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona, poliklinika) bir sutka ichida yordam so'rab murojaat qilgan xodimlar, shu jumladan, xizmat safaridagi va korxonada ishlab chiqarish obyektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergan har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

Ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya:

uch ish kuni ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkoni bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotish chora-tadbirlari ko'rsatilgan N-1 shaklidagi dalolatnomani uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko'radi va tekshirish tamom bo'lgandan so'ng uch ish kuni davomida tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomalarni:

jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga hamda tekshirish materiallari bilan birga korxonaning mehnatni muhofaza qilish xizmati

rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga va hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga yuboradi.

N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxonada tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi (2-ilova).

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnoma nusxalarini, kasaba uyushmasi qo'mitasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organlariga, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi yoki O'zenergoinspeksiya organi vakiliga, agar baxtsiz hodisa nazoratdagi tegishli korxonalar (obyektlar)da yuz bergan bo'lsa, yuqori turuvchi xo'jalik organiga, tegishli vazirlik (xo'jalik boshqaruvi organlari)ga ham ularning talablariga muvofiq yuborishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga tekshirish materiallari bilan yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma 45 yil davomida saqlanishi lozim. Boshqa joylarga yuborilgan tekshirish materiallari, N-1 shaklidagi dalolatnomalar va uning nusxalari ehtiyoj yo'qolguncha saqlanadi.

### **Jarohatlarni o'rganish usullari**

Ishlab chiqarish jarohatlari – kasbiy kasalliklar sabablarini aniqlashda va ularning oldini olishda jarohatlarni o'rganishning statistik, topografik, monografik va iqtisodiy usullaridan foydalaniladi.

**Statistik usul** hisobot davrida ro'y bergan baxtsiz hodisalarning sabablarini aniqlashga asoslangan. Bunda asos qilib N-1 shaklida tuzilgan dalolatnoma va mehnatga layoqatsizlik varqasi olinadi. Bu usul jarohatlanishning umumiy holatini, uning o'zgarib borish jarayonini tadqiq etishda, ularning kelib chiqish sabab va holatlarining qonuniyatlarini va ular orasidagi aloqalarni aniqlashda qo'l keladi.

Jarohatlanish darajasini aniqlashda nisbiy statistik ko'rsatkichlar – chastota koeffitsiyenti va og'irlik koeffitsiyentidan foydalaniladi.

Jarohatlanishning chastota koeffitsiyenti  $K_{ch}$  ma'lum kalendar vaqt oralig'ida (oy, kvartal, yil) ro'y bergan va 1000 kishiga to'g'ri kelgan baxtsiz hodisalar sonining shu sexda ishlovchilarning ro'yxatdagi soniga nisbati bilan o'lchanadigan kattalik bo'ladi.

$$K_{\text{ch}} = \frac{a \cdot 1000}{b}, \quad (2.1)$$

Bu yerda,  $K_{\text{ch}}$  – chastota ko'effitsiyenti,

$a$  – baxtsiz hodisalar soni,

$b$  – ishlovchilarning o'рта hisobdagi ro'yxatdagi soni.

Og'irlik ko'effitsiyenti  $K_o$  har bir baxtsiz hodisaga o'рта hisobda qancha mehnatga layoqatsizlik kunlari to'g'ri kelishini ko'rsatadi:

$$K_o = \frac{C}{a}, \quad (2.2)$$

Bu yerda  $S$  – ma'lum davr ichida bo'lib o'tgan hamma baxtsiz hodisalarning mehnatga layoqatsizlik kunlarining yig'indisi.

Ishlab chiqarish jarohatlanishining sabablari dinamikasidan tashqari bunda baxtsiz hodisalarning turlari, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning organizmga ta'siri xarakteri o'rganiladi. Shu bilan birga jabralanuvchi haqida ma'lumot (kasbi, staji, yoshi va boshqalar) va baxtsiz hodisaning qachon va qayerda bo'lganligi haqida ma'lumotlar beriladi.

**Topografik usul** - baxtsiz hodisalar yuz bergan joyga nisbatan o'rganilishidir.

Sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar sex tarxiga ma'lum belgilar bilan muntazam ravishda qayd qilinib boriladi va muayyan muddat oralig'ida (yil oxirida, har chorakda yoki oy oxirida) qaysi ish joyida eng ko'p belgilar to'planilganligiga qarab xavfli joy aniqlanadi. Shunga asosan bu joy xavfli hisoblanib, u yerdagi ish sharoiti sinchiklab o'rganilib profilaktik tadbirlar qo'llaniladi.

**Monografik usul** - baxtsiz hodisa ro'y bergan ish joyini (mashina, dastgoh, uskuna va h.k.) har tomonlama batafsil tadqiq qilishni taqozo qiladi. Masalan: biror bir mashinaning texnologiyasini, kinematikasini, hom ashyo ta'minoti, tayyor maxsulotni olish, elektr ta'minoti, mashinani boshqarish va boshqalarni tadqiq qiladi.

Bu usulning afzalligi shundaki, faqatgina bo'lib o'tgan baxtsiz hodisalarning sabablari aniqlanib qolmasdan, ayni paytda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish choralari ham ko'riladi.

**Iqtisodiy usul** - ishlab chiqarish jarohatidan ko‘rilgan zararni aniqlashdan hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha bajarilgan tadbirlarning ijtimoiy – iqtisodiy samarasini baholashdan iboratdir.

Yuqorida ko‘rsatilgan usullar jarohatlanish haqida to‘liq ma’lumot beradi va ularning oldini olish choralarini oqilona hal qilishga yordam beradi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlarini rejalashtirishning ilmiy asosi mehnat xavfsizligini oldindan aytib berishdir.

Korxonada va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta’siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek tabiiy ofatlar (zilzilalar, o‘pirilishlar, suv toshqinlari, to‘fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

o‘z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek avariylarning, odamlar halok bo‘lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo‘lsa ham, korxonada manfaatlarini ko‘zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;

xodim xizmat safarida bo‘lgan yoki o‘z funksional vazifalarini bajarish vaqtida — yo‘l-transport hodisasidagi, temir yo‘l, havo yo‘llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;

ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo‘ljallangan transportda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq o‘zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;

ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug‘i mavjud bo‘lgandagi;

ish beruvchining topshirig‘ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek mehnat faoliyati xizmat ko‘rsatish obyektlari

orasida yurish bilan bog'liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;

tadbirlarning o'tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat'i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, ko'ngilli yong'in muhofazasi musobaqalari o'tkazilayotgandagi, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo'yicha korxonadan otaliq yordami ko'rsatilayotgandagi;

ichki ishlar organlarining ma'lumotlari asosida — ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;

smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

Tabiiy o'lim, o'zini o'zi o'ldirish, jabrlanuvchining o'z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari (sud-tibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma'lumotlariga ko'ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

**“TASDIQLAYMAN”**

Ish beruvchi

\_\_\_\_\_

(imzo, imzo yoyilmasi)

20 \_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_

korxonada muhri

N-1 shakli

Bir nusxadan yuboriladi:

— jabrlanuvchiga (o'lgan bo'lsa oilasiga);

— mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga;

— hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga

**DALOLATNOMA № \_\_\_\_\_**

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va salomatlikka boshqa xil zarar yetkazilishi to'g'risida**

1. Korxonaning nomi \_\_\_\_\_

1.1. Korxonaning manzili \_\_\_\_\_

(viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

1.2. Mulkchilik shakli \_\_\_\_\_

(davlat, aksiyadorlik, xususiy va hokazo)

1.3. Baxtsiz hodisa yuz bergan joy \_\_\_\_\_

(bo'linma, sex)

2. Vazirlik, xo'jalik boshqaruvi organi \_\_\_\_\_

3. Xodimni yo'llagan korxonasi \_\_\_\_\_

(nomi, manzili, vazirlik)

4. Jabrlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi \_\_\_\_\_

(xo'jalik boshqaruvi organi)

5. Jinsi: erkak, ayol (tagiga chizilsin)

6. Yoshi (to'liq yillar soni ko'rsatilsin) \_\_\_\_\_

7. Kasbi, lavozimi \_\_\_\_\_

7.1. Razryadi, klassi \_\_\_\_\_

8. Baxtsiz hodisa yuz berganda bajarilayotgan ish bo'yicha ish staji \_\_\_\_\_

9. Mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma, o'qitish:

9.1. Kirish yo'riqnomasi (sana) \_\_\_\_\_

9.2. Mehnat xavfsizligi bo'yicha o'qitish (sana) \_\_\_\_\_

9.3. Dastlabki (davriy) yo'riqnoma (sana) \_\_\_\_\_

9.4. O'ta xavfli ishlar uchun bilimlarni tekshirish (sana) \_\_\_\_\_

9.5. Ishga kirayotganida va davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi \_\_\_\_\_

10. Baxtsiz hodisa yuz bergan sana va vaqt \_\_\_\_\_

(yil, kun, oy) (ish boshlashdan to'liq soatlar soni)

11. Baxtsiz hodisa holati \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

11.1. Baxtsiz hodisa sabablari \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

11.2. Jarohat yetkazilishga sabab bo'lgan asbob-uskuna \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

11.3. Jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta'siridaligi) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(tibbiy xulosaga binoan)

11.4. Tashxis \_\_\_\_\_

(dastlabki, oxirgi)

12. Baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish tadbirlari:

No	Tadbirlar nomi	Bajarish	Bajaruvchi	Bajarish haqida
----	----------------	----------	------------	-----------------

		muddati		belgi

13. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va meyorlari buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslar

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., lavozimi, korxon nomi)

\_\_\_\_\_

(ular tomonidan buzilgan qonunlar, qoidalar va

\_\_\_\_\_

meyoriy hujjatlarning moddalari, bandlari)

14. Baxtsiz hodisa guvohlari \_\_\_\_\_

Dalolatnoma tuzildi \_\_\_\_\_

(yil, kun, oy)

Komissiya raisi \_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

Komissiya a'zolari \_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

### 3. Xodimlarga shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash tartibi.

Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi\* tufayli yetkazilgan zararni to'lash bo'yicha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek mazkur Qoidalar bilan tartibga solinadi.

Mazkur Qoidalarning amal qilishi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yollanma mehnatdan foydalanayotgan yuridik shaxslarga, yuridik shaxs bo'lmasdan faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklariga (keyingi o'rinlarda matnda ish beruvchi deb yuritiladi), shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat shartnomasi bo'yicha ishlagan yoki ishlayotgan hamda mehnat jarohati olgan xodimlarga joriy etiladi.

2. Ish beruvchi ish beruvchining hududida va uning tashqarisida, shuningdek ish beruvchi bergan transportda ishga kelish yoki ishdan ketish vaqtida xodimning sogʻligiga mehnat jarohati bilan yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar boʻladi.

Ish beruvchi, mehnat jarohati yoki boshqa mehnat vazifalarini bajarish bilan bogʻliq ravishda xodim sogʻligiga yetkazilgan zararni, agar u yetkazilgan zarar uchun oʻzining aybdor emasligini isbot qila olmasa, xodimga yetkazilgan zararni toʻlashi shart.

3. Ish beruvchi tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika choralari hamda sogʻlom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish tadbirlari taʼminlanmaganligi (mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi qoidalari va shu kabilarga rioya qilmaslik) tufayli olingan mehnat jarohati uning aybi bilan sodir etilgan deb hisoblanadi.

4. Quyidagi hujjatlar mehnat jarohati uchun ish beruvchining aybdorligini yoki javobgarligini isbotlovchi dalil boʻlishi mumkin:

baxtsiz hodisani maxsus tekshirish dalolatnomasi;

baxtsiz hodisa va ishlab chiqarishda sogʻliqqa yetkazilgan boshqa xil shikastlar toʻgʻrisida dalolatnoma;

sud qarori;

mehnatni muhofaza qilish va mehnat toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, sogʻliqqa yetkazilgan zarar sabablarini nazorat qilishni amalga oshiruvchi davlat mehnat texnika inspektori yoxud boshqa mansabdor shaxslar (organlar)ning xulosasi;

kasb kasalligi toʻgʻrisida tibbiy xulosa;

aybdor shaxslarga maʼmuriy yoki intizomiy jazo berish toʻgʻrisidagi qaror;

kasaba uyushmasi qoʻmitasi yoki korxonada xodimlarining boshqa vakolatli organi qarori.

Kelishmovchilik paydo boʻlganda yoki ish beruvchi zararni toʻlashni rad etganda, ushbu masala qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud tomonidan hal qilinadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlar sog‘ligiga yetkazilgan boshqa shikastlarni tekshirish va hisobga olish tartibi Hukumat tomonidan belgilanadi.

5. Jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi zararning kelib chiqishiga yoki uning ko‘payishiga sabab bo‘lgan taqdirda, zararning to‘lov miqdori summasi jabrlanuvchining aybiga qarab kamayishi mumkin, lekin kamayish ellik foizdan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi tufayli hamda ish beruvchining aybi bo‘lmagan hollarda, ish beruvchining javobgarligi, aybidan qat’i nazar (ya’ni uning mehnat vazifalarini bajarishda yuqori xavfli manbalar tomonidan xodim sog‘ligiga yetkazilgan zarar), zararni to‘lash summasi jabrlanuvchining aybdorligi darajasiga qarab kamayishi ham mumkin, lekin kamayish ellik foizdan ko‘p bo‘lmasligi lozim. Bunda zararni to‘lashdan bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jabrlanuvchining aybdorligi darajasi korxonada, muassasa, tashkilot kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi qarori bilan, mazkur masala bo‘yicha kelishmovchilik paydo bo‘lganda esa — sud tomonidan belgilanadi.

Zararni to‘lashning qo‘shimcha turlariga, bir yo‘la nafaqa to‘lashga, shuningdek boquvchisining vafoti tufayli yetkazilgan zarar to‘lovlariga nisbatan aralash javobgarlik qo‘llanilmaydi.

6. Jabrlanuvchining mehnat jarohati tufayli mehnatga layoqatsizlik darajasi Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi.

Kasb bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik darajasini belgilash bilan bir vaqtda, TMEK asoslari mavjud bo‘lganda, nogironlikning tegishli guruhi belgilanadi hamda jabrlanuvchining qo‘shimcha yordam turlariga bo‘lgan muhtojligi aniqlanadi.

7. Mazkur Qoidalarga muvofiq zararni to‘lash uchun zarur bo‘lgan pul summasi, qo‘shimcha xarajatlarni qoplash hamda bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasi (bitimlari) asosida oshirilishi mumkin.

8. Belgilangan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori\* oshirilganda sog‘liqning shikastlanishi bilan bog‘liq zarar yoki boquvchisining vafoti bilan bog‘liq ravishda beriladigan yo‘qotilgan ish haqi, boshqa to‘lovlarni qoplash summasi

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining oshirilgan summasiga mutanosib ravishda ko'paytiriladi.

9. Mehnat jarohati olgandan keyin mehnat munosabatlarini to'xtatish zararni to'lashdan ozod qilmaydi.

10. Quyidagilar jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'lashda summani to'lash manbalari hisoblanadi:

- byudjet tashkilotlari va muassasalari uchun — qonun hujjatlariga muvofiq davlat byudjeti mablag'lari;

- boshqa ish beruvchilar uchun — o'z mablag'lari.

#### **4. Sog'lig'iga shikast yetkazilganligi bilan bog'liq holda zararning jabrlanuvchiga to'lanadigan miqdori.**

11. Xodimga jarohat yoki sog'lig'iga boshqa shikast yetkazilganda jabrlanuvchining olgan yoxud olishi mumkin bo'lgan yo'qotgan ish haqi (daromadi) to'lanadi.

Zarar har oyda jabrlanuvchining kasbiy mehnat faoliyatini yo'qotish darajasiga tegishli ravishda mehnat jarohati olgunga qadar uning o'rtacha oylik ish haqiga foizlarda, sog'lig'iga shikast yetkazilishi sababli qilingan qo'shimcha xarajatlar kompensatsiyalarda, shuningdek belgilangan hollarda bir martalik nafaqalar to'lashda qoplanadi.

Ish haqi yoki uning bir qismi to'lanayotganda, jarohat olishi tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalari, shuningdek mehnat jarohati olgunga qadar va undan keyin tayinlangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlarning boshqa turlari yetkazilgan zararni to'lashda hisobga olinmaydi. Shuningdek jabrlanuvchining jarohat olgandan keyingi ish haqi ham zararni to'lashda hisobga olinmaydi. Bunda jabrlanuvchilarga — mehnat jarohati bo'yicha nogironlarga zararni to'lash miqdori belgilangan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining ellik foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

12. Jabrlanuvchining yo'qotgan ish haqi tarkibiga: ham asosiy, ham daromad solig'i undiriladigan o'rindoshlik ish joyi bo'yicha mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha barcha mehnat haqi turlari; tadbirkorlik faoliyatidan

olinadigan daromadi (soliq inspeksiyasi ma'lumotlari asosida); mualliflik haqi; vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi hamda homiladorlik va tug'uruq ta'tillari davri uchun to'langan nafaqalar kiritiladi.

Barcha ish haqi turlari soliqlar ushlab qolingunga qadar hisoblangan summalarda hisobga olinadi.

O'qish davrida to'lanadigan stipendiya (zararni qoplash to'g'risida murojaat qiluvchining xohishiga ko'ra) ish haqiga tenglashtiriladi.

13. Jabrlanuvchining yo'qotgan ish haqi tarkibiga quyidagilar kiritilmaydi: yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi qo'yilmalari yoki paylari bo'yicha ular tomonidan olinadigan dividendlar va foizlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlari; bir martalik tUSDagi to'lovlar (foydalanilmagan ta'til uchun pul kompensatsiyalari, mehnat shartnomasi to'xtatilganda beriladigan yordam nafaqalari).

14. O'rtacha oylik ish haqi mehnat jarohati olish yoki mehnat jarohati tufayli mehnatga layoqatsizlikdan yoxud mehnatga layoqat darajasi pasayishidan (fuqaroning tanlovi bo'yicha) oldingi oxirgi o'n ikki oy mobaynidagi ish (xizmat, muddatli harbiy xizmatdan tashqari) bo'yicha aniqlanadi. Kasb kasalligiga chalingan taqdirda o'rtacha oylik ish haqi ham bunday kasallikka sabab bo'lgan ishni to'xtatishdan oldingi oxirgi o'n ikki oy bo'yicha belgilanishi mumkin.

O'rtacha oylik ish haqi hisoblab chiqariladigan oylar sonidan (fuqaroning xohishiga ko'ra) ish oyning birinchi kunidan boshlanmaganligi yoki to'xtatilmaganligi munosabati bilan to'liqsiz ish oylari hamda uch yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilish munosabati bilan beriladigan ta'til oylari (shu jumladan, to'liq bo'lmagan oylar), shuningdek xodim nogiron hisoblangan yoki mehnat jarohati tufayli yetkazilgan zarar to'lovini olib kelgan, I guruh nogironi, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani yoki davolash muassasasining o'zganing parvarishiga muhtojlik haqidagi xulosasiga ko'ra qariyalarni parvarish qilish mobaynidagi ish vaqti chiqarib tashlanadi. Bunda chiqarib tashlangan oylar bevosita boshqa oldingi oylar bilan almashtiriladi yoki ularni almashtirish imkoni bo'lmaganda hisoblashdan chiqarib tashlanadi. Bunday almashtirish, jarohatlanishdan yoki kasb kasalligiga

chalinishdan oldingi ish joyidan qat'i nazar, oxirgi ikki yil doirasida amalga oshiriladi.

15. O'n ikki oydagi ish uchun o'rtacha oylik ish haqi mazkur Qoidalarning **14-bandida** ko'rsatilgan ish haqining umumiy summasini o'n ikkiga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi. Jabrlanuvchi zarar yetkazilgan vaqtda o'n ikki oydan kam ishlagan taqdirda, o'rtacha oylik ish haqi haqiqatda ishlagan umumiy ish haqini ishlagan oylar soniga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Ish davri to'liq oydan kam vaqtni tashkil qilgan taqdirda, zararni to'lash miqdori shartli oylik ish haqi (daromad) miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. U quyidagi tartibda aniqlanadi: butun ishlangan vaqt davomida olingan ish haqi (daromad) kunlar soniga bo'linadi, hosil bo'lgan summa bir yil uchun o'rta hisobda hisoblab chiqilgan bir oydagi ish kunlari soniga ko'paytiriladi.

Haqiqiy ish haqi miqdori to'g'risidagi hujjatlarni olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda zararni to'lash miqdori zararni to'lash to'g'risida murojaat qilingan vaqtda belgilangan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Jabrlanuvchining o'rtacha oylik ish haqi miqdori pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoridan ko'p bo'lmagan hollarda ham yetkazilgan zararni to'lash miqdori xuddi shu tartibda hisoblab chiqiladi.

16. Balog'atga yetmaganlar mehnat jarohati olgan taqdirda, zarar uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, ammo qonun hujjatlarida belgilangan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

17. Agar bir ish beruvchida ishlangan davrda mehnat jarohati takroran olingan taqdirda o'rtacha oylik ish haqi jabrlanuvchining xohishiga ko'ra birinchi yoki takroriy mehnat jarohati olingandan ilgarigi tegishli davrlar bo'yicha hisoblab chiqiladi. Zararni to'lash miqdori kasbga doir mehnatga layoqatsizlikning umumiy foiziga qarab hisoblab chiqiladi.

Agar mehnat jarohatlari turli ish beruvchilarda ishlaganda olingan bo'lsa, u holda zararning to'lov miqdorini aniqlash har bir ish beruvchi tomonidan, tegishli

mehnat jarohati bo'yicha kasbga doir mehnatga layoqatsizlik foiziga qarab alohida amalga oshiriladi.

18. Chet ellarda ishlagan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi (daromadi) chet elda ishlaganlik uchun to'lovlarni chiqarib tashlagan va mazkur Qoidalarning **8-bandini** hisobga olgan holda umumiy asoslarda hisoblab chiqiladi.

19. Ishlab chiqarish ta'limini (amaliy mashg'ulotni) o'tash davrida mehnat jarohati olgan fuqarolarning o'rtacha oylik ish haqi (daromadi) jabrlanuvchining qaysi kasb (mutaxassislik) bo'yicha o'qiganligiga qarab, shu kasb (mutaxassislik) stavkasi (maosh)dan kelib chiqqan holda (ammo 2 razryaddan past emas) hisoblab chiqiladi. O'qish (amaliy mashg'ulot) davomida ish haqi (daromad) olgan shaxslarga, ularning xohishiga ko'ra, o'rtacha oylik ish haqi (daromadi) shu davr uchun hisoblab chiqiladi. Jabrlanuvchilarning xohishiga ko'ra, o'rtacha oylik ish haqi (daromadi) o'qish davrida to'langan stipendiya bo'yicha ham hisoblab chiqilishi mumkin.

20. Mehnat jarohati tufayli o'zining roziligi bilan vaqtincha yengilroq, kam haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan jabrlanuvchiga ish haqi mehnatga layoqati tiklangunga qadar mehnat jarohati olgandan avvalgi o'rtacha oylik ish haqi (daromadi)dan kam bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

Boshqa ishga o'tkazish zarurligi, uning davom etish muddati va tavsiya etiladigan ish turi TMEK xulosasiga muvofiq belgilanadi.

21. Agar jabrlanuvchi mehnat jarohati tufayli avvalgi ishini bajara olmagan taqdirda ish beruvchi jabrlanuvchini uning xohishiga ko'ra TMEK xulosasiga muvofiq, o'z hisobidan yangi kasbga o'qitishi shart.

Yangi kasbga o'qitish davrida jabrlanuvchiga mehnat jarohati olgunga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqi (daromadi) to'lanadi. Mazkur davrda zararni qoplash summasini to'lash umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

## **Mehnat jarohatlari tufayli qilingan qo'shimcha xarajatlarni jabrlanuvchiga to'lash**

22. Yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan ish beruvchi jabrlanuvchiga, o'rtacha oylik ish haqi (daromadi)dan tashqari, mehnat jarohati tufayli qilingan qo'shimcha xarajatlarni ham to'lashga majburdir. To'lanadigan bunday xarajatlarga davolash, protezlash, qo'shimcha ovqatlanish, dori-darmonlar sotib olish, sanatoriya-kurortda davolanish, shu jumladan jabrlanuvchining davolanadigan joyga borish va kelish yo'l xarajatlari, zarur hollarda esa shuningdek o'zganing parvarishiga muhtoj bo'lganda, kuzatib boruvchi shaxsning ham yo'l xarajatlari, maxsus transport vositalarini sotib olish va boshqa turli yordam xarajatlari, agar u TMEK tomonidan yordamning ushbu turlariga muhtoj deb topilgan bo'lsa va ularni tegishli tashkilotlardan bepul olish huquqi bo'lmasa, shuningdek jabrlanuvchi bilan ish beruvchi o'rtasida zararni to'lash bo'yicha bahs paydo bo'lganda hamda bahs jabrlanuvchi foydasiga hal bo'lgan hollarda advokat yollash uchun qilingan xarajatlar kiradi.

Dori-darmonlar sotib olish uchun qilingan xarajatlar davolovchi shifokor tomonidan yozib berilgan belgilangan shakldagi retsept hamda pul to'langanligi to'g'risidagi chek taqdim etilganda ish beruvchi tomonidan jabrlanuvchiga to'lanadi.

I guruh nogironlari uchun TMEKning uy sharoitida parvarishga muhtojlik haqidagi xulosasi talab qilinmaydi (ular maxsus tibbiy parvarishga muhtoj bo'lgan hollar bundan mustasno).

Mazkur badda ko'rsatilgan yordamning bir nechta turlariga muhtoj bo'lgan jabrlanuvchiga yordamning har bir turini olish bilan bog'liq xarajatlar to'lanadi.

23. Maxsus tibbiy parvarishga muhtoj bo'lgan jabrlanuvchilar uchun qo'shimcha xarajatlar har oyda pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining ikki baravari miqdorida belgilanadi.

Uy sharoitida parvarish qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar har oyda pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining ellik foizi miqdorida belgilanadi.

Ham maxsus tibbiy parvarishga, ham uy sharoitidagi parvarishga muhtoj bo'lgan jabrlanuvchiga uy sharoitidagi parvarish bilan bog'liq xarajatlar maxsus tibbiy parvarish xarajatlariga qo'shimcha ravishda to'lanadi.

Jabrlanuvchini parvarish qilish uchun qo‘shimcha xarajatlar, ularning kim tomonidan amalga oshirilishidan qat’i nazar, to‘lanadi.

Maxsus transport vositalarini sotib olish xarajatlari ularning qiymati doirasida to‘lanadi.

Boshqa qo‘shimcha xarajatlar miqdori tegishli tashkilotlarning schyotlari va boshqa hujjatlar asosida yoxud jabrlanuvchi tomonidan ushbu xarajatlar qilingan vaqtdagi narxlarga muvofiq aniqlanadi.

24. Jabrlanuvchining sanatoriy-kurortda davolanishga muhtojligi haqida TMEK xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, unga har yilgi mehnat ta‘tilidan tashqari davolanish uchun qo‘shimcha ta‘til beriladi. Davolanish uchun berilgan ta‘til vaqti uchun to‘lov har yilgi ta‘til to‘lovi uchun belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Davolanish davridagi zararni to‘lash umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Mehnat jarohati olgan xodim boshqa ishga o‘tganda, davolanish uchun berilgan qo‘shimcha ta‘til uchun to‘lov zarar yetkazilgani uchun mas’ul bo‘lgan ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Jabrlanuvchi, shuningdek uni kuzatib boruvchi shaxsning yo‘l kira xarajatlarini to‘lash miqdori xizmat safari to‘g‘risidagi normativ hujjatlarga muvofiq aniqlanadi.

25. Yo‘qotilgan ish haqi (daromadi)ni to‘lashdan zararni to‘lashning boshqa turlaridan tashqari, ish beruvchi jabrlanuvchiga bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘laydi.

Xodim sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar bilan bog‘liq holda ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan bir yo‘la beriladigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa — ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o‘rtasidagi bitim bo‘yicha aniqlanadi. Bir yo‘la beriladigan nafaqa miqdori jabrlanuvchining bir yillik ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak.

Yillik ish haqi miqdori mazkur Qoidalarning 14 va 15-bandlariga muvofiq hisoblab chiqilgan o‘rtacha oylik ish haqini o‘n ikkiga ko‘paytirish yo‘li

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisani tekshirish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
2. Baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklardan xodimlarni majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkazish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
3. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qoplash.
4. Qanday baxtsiz hodisalar ishlab chiqarishga oid deb tekshiriladi va hisobga olinadi?
5. Ish kuni davomida jabrlanuvchi haqida habar berilmagan hollarda baxtsiz hodisalar qanday tekshiriladi va hisobga olinadi?
6. Tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan o'quvchi va talabalarga oid sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
7. O'rindoshlik asosida ishlaydigan shaxslar bilan sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
8. Bir hududda bir necha tashkilotlar tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan hollarda sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
9. Tashkilot hududida avtotransport xaydovchisi aybi bilan sodir etiladigan baxtsiz xodisalar kim tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi?
10. Qanday baxtsiz xodisalar maxsus tekshiruvdan o'tkaziladi va hisobga olinadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (yangi taxriri) 2016 yil 22 sentabr, O'RQ-410-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
3. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori.

4. “Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash” Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 fevraldagi 60-son qarori.
5. X.Rahimova, A.A‘zamov, T.Tursunov. Mehnatni muhofaza qilish.T. – “O‘zbekiston” -2003.
6. G‘.Yormatov va boshqalar Mehnatni muxofaza qilish: Darslik - Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2002 - 345 b.
7. Friend, Mark A.Fundamentals of occupational safety and health Mark A. Friend and James P.Kohn. Government Institutes. An imprint of.The Scarecrow Press, Inc. Lanham, Maryland • Toronto • Plymouth, UK-2007.—4th ed.

**4-mavzu: Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi.**

**Reja:**

1. Umumiy qoidalar.
2. Attestatsiyani o‘tkazish. Attestatsiyani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi.
3. Mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar talablariga muvofiqligini baholash tartibi.
4. Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

**Umumiy qoidalar**

1. “Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risi”dagi Nizom mehnat sharoitlari, mehnat jarayonining og‘irligi va tig‘izligi, asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish, uning natijalarini rasmiylashtirish hamda ulardan foydalanish, shuningdek attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

2. Ushbu Nizom barcha ish beruvchilar — korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda korxonalar deb ataladi) uchun majburiy hisoblanadi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ish o‘rni** — xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida doimo yoki vaqtincha bo‘lish joyi;

**o‘xshash ish o‘rinlari** — quyidagi belgilarning jami: bir nomdagi kasb yoki lavozim; bir xildagi ish rejimida bir tipdagi texnologik jarayonni yuritishda aynan bir xil kasb vazifalarini bajarish; bir tipdagi ishlab chiqarish uskunasi, asboblari, moslamalar, materiallar va xom ashyodan foydalanish; bir yoki bir necha tipdagi binolarda yoki ochiq havoda ishlash; ventilyatsiya, konditsiyalashtirilgan havo, isitish va yoritishning bir tipdagi tizimlaridan foydalanish, ish joyida obyektlarning (ishlab chiqarish uskunasi, transport vositalari va shu kabilarning) bir xil joylashishi; bir klass va darajadagi zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarining bir xildagi to‘plami; yakka tartibdagi himoya vositalari bilan bir xilda ta‘minlanganlik bilan tavsiflanadigan ish o‘rinlari;

**ish zonasi** — xodimlar doimo yoki vaqtincha bo‘ladigan joylar joylashgan pol yoki maydoncha darajasidan 2 metrgacha balandlikdagi sath;

**turg‘un bo‘lmagan ish o‘rinlari** — hududiy o‘zgarib turadigan ish zonalaridagi ish o‘rinlari, bunda bir yoki bir necha xodimlar xususiyatiga ko‘ra o‘xshash ish yoki operatsiyani bajaradigan ishlab chiqarishning zarur vositalari bilan jihozlangan ish o‘rning bir qismi ish zonasi deb hisoblanadi;

**kasb kasalligi** — ushbu kasb uchun xos bo‘lgan hamda ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining zararli va xavfli omillari ta‘siri natijasida xodim chalingan kasallik;

**ish qobiliyati** — insonning talab etiladigan vaqt oralig‘ida topshirilgan sifatida ishning aniq miqdorini bajarish qobiliyatini tavsiflaydigan organizmning fiziologik va psixologik funksiyalari imkoniyatlari bilan belgilanadigan insonning holati;

**ishlab chiqarish muhiti** — mehnat faoliyati jarayonida xodimga ta‘sir ko‘rsatuvchi kimyoviy, biologik, fizik va ijtimoiy omillarning yig‘indisi;

**mehnat sharoitlari** — xodimning ish layoqati va sog‘lig‘iga ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillari yig‘indisi;

**zararli ishlab chiqarish omili** — ta’siri xodimning kasallikka chalinishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish omili;

**xavfli ishlab chiqarish omili** — ta’siri xodimning jarohat olishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish omili. Miqdoriy tavsifiga va amal qilishining davomiyligiga bog‘liq ravishda ayrim zararli ishlab chiqarish omillari xavfli bo‘lishi mumkin;

**mehnatning xavfsiz shart-sharoitlari** — zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarining xodimga ta’siri istisno etiladigan yoxud ularning ta’siri darajasi belgilangan normativlardan ortiq bo‘lmagan mehnat sharoitlari holati;

**ishlab chiqarish faoliyati** — xom ashyoning har xil turlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni, qurishni, har xil xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga oladigan xatti-harakatlar yig‘indisi;

**YATHV (yakka tartibdagi himoya vositalari)** — zararli yoki xavfli ishlab chiqarish omillarining xodimlarga ta’sirining oldini olish yoki kamaytirish, shuningdek ifloslanishdan himoya qilish uchun foydalaniladigan texnik vositalar (maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibdagi himoyaning boshqa vositalari);

**mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish (attestatsiya)** — ish joylarida mehnat sharoitlarini, mehnat jarayonlarining og‘irligi va tig‘izligini hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligini baholash, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini baholash, shuningdek mehnat sharoitlarini, mehnat jarayonining og‘irligi va tig‘izligini qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqlashtirish maqsadida o‘tkaziladigan kompleks tadbirlar;

**attestatsiya komissiyasi** — attestatsiyaning barcha bosqichlarida mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi bo‘yicha ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil etish, unga rahbarlik qilish va uni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning butun kompleksini amalga oshirish uchun korxonah rahbarining qarori bilan tashkil etiladigan komissiya;

**attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot** — ushbu Nizomda belgilangan mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun talablarga javob beradigan va fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnoma asosida ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarini o'lchaydigan va mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini baholaydigan yuridik shaxs.

4. Attestatsiya fuqarolarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga javob beradigan sog'lig'i va mehnatning xavfsiz shart-sharoitlariga bo'lgan konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirish maqsadida ish o'rinlaridagi mehnat sharoitlarini baholash hamda noqulay, zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

5. Attestatsiya natijalaridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi va:

mehnat sharoitlarini mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

og'ir ishlarda, noqulay, zararli va (yoki) xavfli ishlarda va mehnatning boshqa alohida shart-sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va kompensatsiyalarni belgilash;

xodimlarni ish joylaridagi mehnat sharoitlari, sog'liqqa shikast yetkazishning mavjud xavfi, zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillari ta'siridan himoya qilish chora-tadbirlari hamda og'ir ishlarda, noqulay, zararli va (yoki) xavfli ishlarda va boshqa alohida mehnat sharoitlarida ishlovchi xodimlarga berilishi kerak bo'lgan kompensatsiyalardan xabardor qilish;

ish joylarida mehnat sharoitlarini nazorat qilish;

kasbiy xavfni baholash;

xodimlarni yakka tartibdagi va jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlash;

mehnat sharoitlarining holati to'g'risida statistika hisobotini tayyorlash;

mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etishning mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini tasdiqlash;

kasb kasalligiga shubha tug‘ilganda kasallikning kasb bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi masalani hal etish, shuningdek kasb kasalligi tashhisini aniqlash;

xodimlar mehnatining xavfsiz shart-sharoitlarini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalar va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar talablariga muvofiq xodimlarni sanitariya-maishiy va tibbiy ta‘minlash;

xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni cheklashlarni asoslash, ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarni imtiyozli pensiya ta‘minoti huquqini beruvchilarga tegishli deb topish;

shu jumladan mehnatni muhofaza qilish fondi mablag‘lari hisobiga korxonada mehnat sharoitlari va muhofazasini yaxshilash tadbirlarini rejalashtirish va moliyalashtirish;

xizmatchilar va ishchi kasblari lavozimlari nomlarini Xizmatchilar va ishchi kasblari asosiy lavozimlari klassifikatorida hamda xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining tarmoq tarif-malaka ma‘lumotnomalarida ko‘rsatilgan nomlarga muvofiqlashtirish;

korxonada mehnat sharoitlari va muhofazasining holati to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash va qayta ishlash uchun asos hisoblanadi.

#### 6. Quyidagi:

xodimlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan noqulay, zararli va (yoki) xavfli hamda boshqa alohida mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan;

ularda nogironligi bo‘lgan shaxslar band bo‘lgan;

imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan;

xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi barcha ish o‘rinlari va kasblar attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

Ushbu bandeda ko‘rsatilmagan ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish korxonah rahbarining xohishi bo‘yicha o‘tkaziladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi **Konstitusiyasi**, O‘zbekiston Respublikasining **Mehnat kodeksi** va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari, ushbu Nizom, Xizmatchilar va ishchi kasblarning asosiy lavozimlari klassifikatori, shuningdek sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari, qurilish normalari va qoidalari, mehnatni muhofaza qilish standartlari tizimi, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar, boshqa qonun hujjatlari attestatsiyani o‘tkazishning huquqiy asosi hisoblanadi.

8. Attestatsiyani o‘tkazish davriyligini korxonaning o‘zi belgilaydi, biroq u har 5 yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Attestatsiyaning o‘z vaqtida o‘tkazilishi yuzasidan mas’uliyat korxonah rahbariga yuklanadi.

9. Attestatsiya materiallari qat’iy hisobot beriladigan materiallar hisoblanadi va 50 yil saqlanadi.

Qayta tashkil etishda attestatsiya materiallari to‘liq hajmda qayta tashkil etilayotgan korxonaning huquqiy merosxo‘riga, tugatilgan taqdirda esa — belgilangan tartibda davlat arxiviga beriladi.

## **2. Attestatsiyani o‘tkazish. Attestatsiyani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi.**

10. Attestatsiya fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma asosida attestatsiya bo‘yicha ishlarni bajarish uchun ish beruvchi tomonidan jalb etiladigan attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot bilan birgalikda ish beruvchi tomonidan o‘tkaziladi.

11. Attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

«Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga**, ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

shtatda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassisning malaka sertifikatiga ega bo'lgan hamda faoliyatni faqat ushbu attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotda amalga oshiruvchi kamida uch nafar xodimga ega bo'lish;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning ma'lumotnoma bazasiga, shuningdek attestatsiyani o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotnoma hujjatlarga ega bo'lish;

mulkida xo'jalik yuritish, tezkor boshqarish huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarini o'lchash uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda texnik jihatdan malakaliligi maqullangan laboratoriyaga (keyingi o'rinlarda — texnik jihatdan malakaliligi maqullangan sinov laboratoriyasi deb ataladi) ega bo'lish;

attestatsiyani o'tkazishda olingan axborotning maxfiylikni ta'minlash;

attestatsiyani o'tkazish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

attestatsiyani o'tkazishda mustaqillikni ta'minlash;

attestatsiya to'g'risidagi to'g'ri hisobotni taqdim etish.

Mehnatni muhofaza qilish sohasida professional xizmat ko'rsatuvchi tashkilot rahbaridan sertifikat talab etilmaydi.

Mehnatni muhofaza qilish sohasida professional xizmat ko'rsatuvchilarning akkreditatsiyadan o'tgan yoki texnik jihatdan malakaliligi maqullangan sinov laboratoriyasi rahbari faqat mehnatni muhofaza qilish mutaxassisining malakaviy sertifikatiga ega shaxs bo'lishi kerak.

12. Attestatsiya o'tkazuvchi tashkilot ish o'rinlarida attestatsiyadan o'tkazilayotgan korxonaga nisbatan mustaqil shaxs bo'lishi kerak.

Korxonada attestatsiya bo'yicha ishlarni bajarish uchun bir nechta attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotlarni jalb etishga haqlidir. Bunda attestatsiya bo'yicha ishlar attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotlar o'rtasida ham attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari soni, ham ish o'rinlarida bajariladigan ishlarning turlari bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

13. Attestatsiyani o'tkazishda korxonada attestatsiyani o'tkazuvchi tashkilotdan:

attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot ushbu Nizomda belgilangan mehnatning shart-sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohtlash xavfliligi yuzasidan ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun talablarga to'liq javob berishni hujjatlar bilan tasdiqlashni;

o'lchashlar va baholashlarni normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq o'tkazishni talab qilishga haqlidir.

#### 14. Attestatsiyani o'tkazishda korxonada:

attestatsiyani o'z vaqtida va to'liq o'tkazishda attestatsiyani o'tkazuvchi tashkilotga yordam berishga, zarur axborot va hujjatlarni taqdim etishga, attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning so'roviga ko'ra attestatsiya maqsadlariga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha og'zaki va yozma shaklda tushuntirishlar berishga;

attestatsiyani o'tkazishda tahlil qilinishi va baholanishi kerak bo'lgan masalalar doirasini toraytirishga, shuningdek attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan so'raladigan attestatsiya maqsadlariga tegishli masalalar bo'yicha axborot va hujjatlarni yashirishga (foydalanishni cheklashga) ataylab yo'naltirilgan xatti-harakatlarni qilmaslikka;

ushbu Nizomning **62-bandida** ko'rsatilgan, attestatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning vakillari tomonidan imzolanmagan hujjatlar mavjud bo'lgan attestatsiya to'g'risidagi hisobotni tasdiqlamaslikka majbur.

#### 15. Attestatsiyani o'tkazishda attestatsiyani o'tkazuvchi tashkilot:

normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan ushbu Nizom asosida o'lchashlar va baholashlarni o'tkazish usullarini, shuningdek o'lchashlar va baholashlarni o'tkazuvchi mutaxassislarning soni va shaxsiy tarkibini belgilaydi;

ish o'rinlarida attestatsiya o'tkaziladigan korxonada mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablarini ta'minlash ishlarini tashkil etish bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda o'rganib chiqadi;

attestatsiya davomida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha korxonadan tushuntirishlarni so'raydi va oladi;

ish o‘rinlarida attestatsiya o‘tkazilayotgan korxonadan tomonidan zarur hujjatlar taqdim etilmagan yoki o‘lchashlar va baholashlarni o‘tkazish shart-sharoitlarining talab qilinadigan normativ hujjatlari bilan ta‘minlash korxonadan tomonidan rad etilgan taqdirda attestatsiyani o‘tkazishni rad etadi.

Attestatsiyani o‘tkazish attestatsiyani o‘tkazuvchi tashkilot korxonaning talabiga ko‘ra attestatsiya natijalari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot tomonidan amalga oshirilgan xulosalarni asoslashi shart.

### **Attestatsiyani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi**

16. Attestatsiyani tashkil etish va o‘tkazish uchun ish o‘rinlarida attestatsiya o‘tkaziladigan korxonadan rahbarining yozma qarori bilan doimiy ishlovchi attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda attestatsiya komissiyasi deb ataladi) tashkil etiladi hamda attestatsiya bo‘yicha ishlarni amalga oshirish jadvali belgilanadi.

Zaruriyat bo‘lganda korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha attestatsiya komissiyalari tashkil etilishiga yo‘l qo‘yiladi.

17. Attestatsiya komissiyasi tarkibiga majburiy tartibda bosh muhandis (bor bo‘lganda), mehnatni muhofaza qilish xizmatlari rahbarlari va xodimlari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxonadan xodimlarining boshqa vakillik organi vakillari, attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot vakillari kiritiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli deb topilgan korxonalarda attestatsiyani o‘tkazishda attestatsiyani o‘tkazuvchi tashkilotning rahbari, vakillari, shuningdek bor bo‘lgan taqdirda mehnatni muhofaza qilish xizmatlari rahbarlari va xodimlari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxonadan xodimlarining boshqa vakillik organi rahbarlari attestatsiya komissiyasi tarkibiga majburiy tartibda kiritiladi.

18. Attestatsiya komissiyasiga ish o‘rinlarida attestatsiya o‘tkazilayotgan korxonaning rahbari yoxud korxonadan rahbarining tegishli yozma qarori bilan vakil qilingan shaxs boshchilik qiladi.

Attestatsiya komissiyasining tarkibi, shuningdek attestatsiya bo‘yicha ishlar jadvali korxonadan rahbarining yozma qarori bilan tasdiqlanadi.

19. Attestatsiya komissiyasi (korxonaning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha attestatsiya komissiyasi):

attestatsiyaning barcha bosqichlarida uning o'tkazilishini, unga rahbarlik qilish va uni nazorat qilishni tashkil etadi;

attestatsiyani o'tkazish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar komplektini, tashkiliy-farmoyish beruvchi va metodik hujjatlarni shakllantiradi va ularni o'rganishni tashkil etadi;

xizmatchilar va ishchi kasblari lavozimlari nomlarini Xizmatchilar va ishchi kasblarining asosiy lavozimlari klassifikatorida ko'rsatilgan nomlarga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflarni shakllantiradi;

ish o'rnining mehnat sharoitlari xaritasi bilan tanishadi va uni imzolaydi;

xodimni YATHV bilan ta'minlash, mehnat qilish va dam olishning tegishli rejimini, shuningdek zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlaridagi ish uchun qonun hujjatlarida belgilangan boshqa kafolatlar va preferensiyalarni belgilash yuzasidan korxonalarining majburiyatlariga oid mehnat shartnomasiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritadi (zaruriyat bo'lganda);

attestatsiya natijalari bo'yicha mehnat sharoitlarini mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi.

### **3. Mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqligini baholash tartibi.**

20. Korxonaning mehnat muhofazasi xizmati ushbu Nizomning [1-ilovasiga](#) muvofiq shakl bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxati loyihasini tayyorlaydi.

Attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxatini tuzishda:

o'xshash ish o'rinlari alohida ajratib ko'rsatiladi;

texnologik jarayon tavsiflaridan, ishlab chiqarish asbob-uskunalari tarkibidan, qo'llaniladigan xom ashyo va materiallardan, zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillari ko'rsatkichlarining oldin o'tkazilgan o'lchashlari natijalaridan, normativ-

huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar talablaridan, shuningdek ushbu o'lchashlarni amalga oshirish joylaridan kelib chiqib o'lchanishi va baholanishi kerak bo'lgan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillari, jarohat yetkazish xavfi va xodimning YATHV bilan ta'minlanganligi ko'rsatiladi.

Attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxati korxonaning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha tuzilishi kerak.

Attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxati korxonada rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

21. Har bir ish o'rnini bo'yicha:

attestatsiya komissiyasi tomonidan beriladigan noyob tartib raqami (ko'pi bilan 6 ta belgidan iborat: 000 001 dan 999 999 gacha) ko'rsatiladi. O'xshash ish o'rinlari «a» harfi bilan belgilanadi (berilgan raqamning oxiriga «a» harfi qo'shiladi);

xizmatchi yoki ishchi kasbi lavozimining nomi hamda Xizmatchilar va ishchi kasblarining asosiy lavozimlari klassifikatoriga muvofiq tegishli kod;

ushbu ish o'rnida ishlovchi xodimlar, shu jumladan ayollar soni;

ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining tegishli omili ta'sir ko'rsatishining davomiyligi (%larda yoki soatlarda) ko'rsatiladi yoxud ish o'rnida ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining ushbu omili mavjud bo'lmagan taqdirda «-» belgisi qo'yiladi.

Bunda zararli moddalar (kimyoviy omillar) va (yoki) ustun darajada fibrogen ta'sir ko'rsatuvchi aerozollar mavjud bo'lgan va ularni o'lchash zarur bo'lgan taqdirda tegishli ravishda «P1a» va (yoki) «P1b» belgisi qo'yiladi, qo'shimcha ma'lumot esa ushbu Nizomning 1a va 1b-ilovalariga muvofiq shakl bo'yicha alohida varaqlarda qayd etiladi.

22. Ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha to'ldirilgan ish o'rnining mehnat sharoitlari xaritasi (keyingi o'rinlarda Mehnat sharoitlari xaritasi deb ataladi) mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini baholash uchun asosiy mexanizm va axborot manbai hisoblanadi.

Mehnat sharoitlari xaritasi ish o'rnida mehnatning amaldagi sharoitlari, belgilangan kafolatlar va preferensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ushbu

ish o‘rnida yoki o‘xshash ish o‘rinlari guruhida mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog‘lomlashtirish bo‘yicha tavsiyalar mavjud bo‘lgan hujjat hisoblanadi.

23. Mehnat sharoitlari xaritasi attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari ro‘yxatiga kiritilgan har bir ish o‘rni bo‘yicha to‘ldiriladi. Bir nomdagi barcha o‘xshash ish o‘rinlariga o‘xshash ish o‘rinlari ro‘yxatidan birinchi ish o‘rni uchun bitta xarita to‘ldiriladi.

24. Mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligini baholash:

mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholashni;

ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholashni;

xodimlarning yakka tartibdagi himoya vositalari bilan ta‘minlanganligini baholashni;

ish o‘rinlarida mehnat sharoitlarini kompleks baholashni o‘z ichiga oladi.

#### **Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash**

25. Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilotning mutaxassisleri tomonidan amalga oshiriladi.

26. Attestatsiyadan o‘tkazishda ushbu ish o‘rnida qo‘llaniladigan texnologik jarayon va asbob-uskunalar uchun xos bo‘lgan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining ish o‘rnidagi barcha mavjud omillari baholanishi kerak.

Baholanishi kerak bo‘lgan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining omillari ro‘yxati mehnatni muhofaza qilish talablaridan, texnologik jarayon va ishlab chiqarish asbob-uskunalarining tavsiflaridan, qo‘llaniladigan xom ashyo va materiallardan, zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillari ko‘rsatkichlarining oldin o‘tkazilgan o‘lchashlari natijalaridan, shuningdek xodimlarning takliflaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

27. Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash shtatli ishlab chiqarish (texnologik) jarayonlar va (yoki) korxonaning shtatli faoliyati amalga oshirilishi davomida ishlab chiqarish va mehnat jarayoni omillari darajalarini asboblardan o‘lchash va baholash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Baholashda normativ-huquqiy hujjatlarda va boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan usullardan, shuningdek belgilangan tartibda tekshirilgan o'lchov vositalaridan foydalanilishi kerak.

28. Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi ko'rsatkichlari, mehnat jarayonining og'irligi va jiddiyliги bo'yicha Mehnat sharoitlari gigiyena klassifikatsiyasi bilan belgilanadigan mezonlarga muvofiq o'tkaziladi.

29. Mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini o'lchash va baholash natijalari Mehnat sharoitlari xaritasi I bo'limining «Mehnati sharoitlari darajasi» ustunining tegishli satriga (ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarining kichik darajasiga) kiritiladi. Jumladan:

a) ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarining har bir kichik darajasining berilgan mehnat sharoitlari darajalari asosida ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omiliga baho beriladi:

eng yuqori daraja va zararlilik darajasi bo'yicha;

agar 3 ta va undan ortiq omil 3.1 darajaga mansub bo'lsa, mehnat sharoitlarini umumiy baholash 3.2 darajaga muvofiq bo'ladi;

ikki va undan ortiq 3.2, 3.3, 3.4 darajalar omillari mavjud bo'lsa, mehnat sharoitlari tegishli ravishda bir bosqich yuqori baholanadi;

b) ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni har bir omilining mehnat sharoitlarining berilgan darajalari asosida mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligining umumiy bahosi beriladi:

eng yuqori daraja va zararlilik darajasi bo'yicha;

agar 3 ta va undan ortiq omil 3.1 darajaga tegishli bo'lsa mehnat sharoitlarini umumiy baholash 3.2 darajaga muvofiq bo'ladi;

ikki va undan ortiq 3.2, 3.3, 3.4 darajalar omillari mavjud bo'lsa mehnat sharoitlari tegishli ravishda bir bosqich yuqori baholanadi;

v) zararli ishlab chiqarish omillari bilan munosabatda bo'lish vaqti qisqarganda (vaqt bilan himoya qilish) mehnat sharoitlari kamroq zararli sifatida, biroq 3.1 darajadan past bo'lmagan holda baholanishi mumkin;

g) attestatsiyadan o'tkazilayotgan ish o'rnida bo'lmagan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarini (kichik darajalar) Mehnat sharoitlari xaritasida aks ettirmaslikka yo'l qo'yiladi. Bunda ushbu Nizomda belgilangan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni (kichik darajalar)ning tartib raqamlari saqlanishi kerak.

30. Mehnat sharoitlarining gigiyenik normativlarga muvofiqligini baholash doirasida attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan o'lchashlar o'lchashlar protokollari bilan rasmiylashtirilishi kerak. O'lchashlar protokollari ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining har bir omili bo'yicha rasmiylashtiriladi va baholanishi kerak bo'lgan mehnat sharoitlari xaritasining ajralmas qismi hisoblanadi. Jumladan:

a) protokolda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilayotgan korxonaning to'liq yoki qisqartirilgan nomi;

bevosita attestatsiya o'tkazilayotgan, ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilayotgan korxonaning yoki uning tegishli tarkibiy bo'linmasining amaldagi joylashgan manzili;

ushbu ish o'rnini uchun noyob bo'lishi kerak bo'lgan protokolning identifikatsiya raqami. Protokollarni kodlashtirish tizimi attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan belgilanadi;

Xizmatchilar va ishchi kasblarining asosiy lavozimlari klassifikatoriga muvofiq ish o'rnining, shuningdek ushbu ish o'rnida band bo'lgan xodim kasbining nomi;

o'lchashlar va baholashlar o'tkazilgan sana (ularning alohida ko'rsatkichlari);  
ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilayotgan korxonaning tarkibiy bo'linmasining nomi;

attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning nomi;

attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning sinov laboratoriyasi texnik jihatdan malakaliligini maqullash to'g'risidagi guvohnomasining sanasi va tartib raqami;

o'lchanayotgan omilning nomi;

o'lchashlarning qo'llaniladigan vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar (pribor, asbobning nomi, zavod raqami, amal qilish muddati va tekshirish to'g'risidagi guvohnomaning raqami);

ular asosida ushbu o'lchashlar va baholashlar o'tkaziladigan normativ hujjatlar ko'rsatilgan holda o'lchashlar va baholashlarni o'tkazish usullari;

ruxsat etilgan yo'l qo'yiladigan konsentratsiyalarni (RECHK) ruxsat etilgan cheklangan darajani (RECHD) tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning rekvizitlari (hujjatning turi, uni chiqargan organning nomi, raqami va imzolash sanasi), shuningdek o'lchanadigan omilning normativ darajalari;

zaruriyat bo'lganda, o'lchash o'tkazilayotgan xonaning eskizini ilova qilib, asbob-uskunaning joylashishini ko'rsatgan va unda o'lchashlar (namunalar olish) nuqtasini (nuqtalarini) tushirib, eskizni ilova qilib attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxatiga muvofiq ish o'ri nomini ko'rsatgan holda o'lchashlarni o'tkazish joyi;

o'lchanayotgan omil darajasining normativ va amaldagi qiymati va o'lchashlar o'tkaziladigan barcha joylarda uning ta'siri qancha davom etishi;

ushbu omil bo'yicha mehnat sharoitlari darajasi;

o'lchashlar o'tkaziladigan barcha joylarda omilning amaldagi darajasi bo'yicha xulosa, ushbu omil bo'yicha mehnat sharoitlarining yakuniy darajasi;

b) ish o'rinlari guruhi uchun bitta yig'ma protokolda ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining bitta aniq omili bo'yicha o'lchashlar natijalarini rasmiylashtirishga yo'l qo'yiladi;

v) o'lchashlar va baholashlar bayonnomasi ularni o'tkazgan attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning mutaxassislari, shuningdek attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning mas'ul mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi (tadbirkorlik subyektlaridan muhr bilan tasdiqlash talab qilinmaydi).

### **Ish o'rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash**

31. Ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilotning mutaxassislari tomonidan korxonada xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

32. Quyidagilar:

ishlab chiqarish uskunasini;

texnologik jarayonlarni amalga oshirishda foydalaniladigan moslamalar va asboblari;

mehnat muhofazasi masalalari bo‘yicha xodimlarni tayyorlashning belgilangan talablarga muvofiqligi ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash obyektlari hisoblanadi.

33. Ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash ushbu Nizomning **32-bandida** ko‘rsatilgan obyektlarning mehnat muhofazasi bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar talablariga muvofiqligi yuzasidan o‘tkaziladi, ushbu talablarni bajarmaslik xodimlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin, shu jumladan:

mexanik ta‘sirlardan himoya qilish bo‘yicha talablar;

elektr toki ta‘siridan himoya qilish bo‘yicha talablar;

yuqori yoki past haroratlar ta‘siridan himoya qilish bo‘yicha talablar;

kimyoviy moddalarning zaharli ta‘siridan himoya qilish bo‘yicha talablar.

34. Ishlab chiqarish uskunasining jarohatlash xavfliligini baholashda:

foydalanish hujjatlari komplekti;

ishlab chiqarish uskunasining harakatlanadigan qismlari, shuningdek sochilib ketadigan buyumlar ta‘siridan xodimlarni himoya qilish vositalari;

xavf yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish uskunasini elementlari to‘siqlarining mavjudligi, shu jumladan fiksatorlar, blokirovkalar, germetizatsiyalovchi va boshqa elementlar mavjudligi;

signal bo‘yoqlari va xavfsizlik belgilari;

ishlab chiqarish uskunasining normal ishlashi buzilishlarining signalizatorlari, avariya bilan bog‘liq to‘xtatish vositalarining mavjudligi, shu jumladan elektr ta‘minoti to‘liq yoki qisman to‘xtatilganda va keyinchalik u tiklanganda xavfli vaziyatlar yuzaga kelishini istisno etishga imkon beradigan qurilmalarning

mavjudligi, shuningdek energiya ta'minotini boshqarish halqasining shikastlanishi (energiya ta'minotini tiklashda o'zboshimchalik bilan ishga tushirish, to'xtatish uchun berilgan buyruqni bajarmaslik);

elektr uskunalari, elektr simlarini har xil ta'sirlardan himoya qilishning mavjudligi va normativ talablarga muvofiqligi tekshiriladi.

35. Ishlab chiqarish uskunasi jarohatlash xavfliligini baholash ishlarni bajarishda xavfsizlik talablari mavjud bo'lgan texnik hujjatlarni tahlil qilish, shtatdagi ish davomida ishlab chiqarish uskunasi uning holati mehnat muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tashqi ko'zdan kechirish yo'li bilan o'tkaziladi.

36. Asboblar va moslamalarning jarohatlash xavfliligini baholash tashqi ko'zdan kechirish va ular holatining mehnat muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish yo'li bilan o'tkaziladi.

37. Ishlab chiqarish uskunasi, shuningdek asboblar va moslamalarning jarohatlash xavfliligini baholashda xavfsizlik talablariga muvofiqlik sertifikatlari (deklaratsiyalar) mavjudligi ham tekshirilishi mumkin.

38. Jarohatlash xavfliligini baholash natijalari bo'yicha mehnat sharoitlari quyidagi tarzda tasniflanadi:

jarohatlash xavfliligining 1-darajasi — maqbul (ish o'rnida mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablarining bironta ham nomuvofiqligi aniqlanmagan; ishlab chiqarish uskunasi, binolar va inshootlarni ta'mirlash bilan bog'liq ishlar, xavfliligi yuqori bo'lgan ishlar va mehnat muhofazasi bo'yicha maxsus o'qitishni talab qiladigan boshqa ishlar amalga oshirilmaydi yoki ishlab chiqarish uskunasi va asbob mavjud emas);

jarohatlash xavfliligining 2-darajasi — yo'l qo'yiladigan (ish o'rnida mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablarining bironta ham nomuvofiqligi aniqlanmagan; ishlab chiqarish uskunasi, binolar va inshootlarni ta'mirlash bilan bog'liq ishlar, xavfliligi yuqori bo'lgan ishlar va mehnat muhofazasi bo'yicha maxsus o'qitishni talab qiladigan boshqa ishlar amalga oshiriladi; xizmat muddati oshib ketgan (resursi ishlatib bo'lingan) ishlab chiqarish uskunasi

foydalaniladi, biroq bu ushbu uskunaga xavfsizlikning maxsus talablari bilan taqiqlanmagan; himoya vositalarining ularning himoya funksiyalarini pasaytirmaydigan shikastlanishlari va (yoki) nosozliklari aniqlangan);

jarohatlash xavfliligining 3-darajasi — xavfli (ish o‘rnida mehnat muhofazasi bo‘yicha normalar, qoidalar va yo‘riqnomalar talablariga bir yoki undan ortiq nomuvofiqlik aniqlangan).

39. Ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash natijalari Mehnat sharoitlari xaritasining tegishli bo‘limiga (II bo‘limga) kiritiladi.

### **Xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligini baholash**

40. Xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligini baholash attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilotlar mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

41. Xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligini baholash mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash va ish o‘rnining jarohatlash xavfliligini baholash natijalari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

42. Xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligini baholash quyidagi tartibotlarni izchil amalga oshirish yo‘li bilan o‘tkaziladi:

amalda berilgan YATHV nomenklaturasini xodimlarga bepul berilgan YATHVning tegishli namunaviy normalari bilan solishtirish;

xodimlarga berilgan YATHV muvofiqlik sertifikatlari (deklaratsiyalari) mavjudligini tekshirish;

xodimlarning YATHV bilan ta‘minlashning belgilangan tartibini tekshirish;

berilgan YATHVning ish o‘rnidagi mehnat sharoitlarining amaldagi holatiga muvofiqligini baholash.

Xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligini baholashda qo‘shimcha ravishda xodimlarga berilgan YATHV samaradorligi baholanishi mumkin.

43. Ushbu Nizom talablariga rioya qilish sharti bilan ish o‘rni xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligi talablariga muvofiq deb hisoblanadi. Bitta va undan ortiq nomuvofiqlik mavjud bo‘lgan taqdirda ish o‘rni xodimlarning YATHV bilan ta‘minlanganligi talablariga muvofiq emas deb hisoblanadi.

44. Ish o'rnida xodimlarning YATHV bilan ta'minlanganligi natijalari Mehnat sharoitlari xaritasining tegishli bo'limiga (III bo'limga) kiritiladi. YATHVni berish xodimlarga YATHVni bepul berishning namunaviy normalarida nazarda tutilmagan va mehnat sharoitlarining amaldagi holati bo'yicha talab etilmaydigan hollar bundan mustasno.

#### **Ish o'rinlarida mehnat sharoitlari holatini kompleks baholash**

45. Attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot qonun hujjatlari talablari, shuningdek ish o'rinlari attestatsiyadan o'tkazilayotgan xodimlardan so'rab chiqish asosida qonun hujjatlarida belgilangan hamda noqulay, zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun attestatsiyadan o'tkaziladigan ish o'rniga mos bo'lgan kafolatlar va preferensiyalar to'g'risidagi axborotni tayyorlaydi.

Bunda noqulay mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun har yilgi qo'shimcha ta'tilning qancha davom etishi va ishning alohida xususiyati ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq belgilanadi. Xodimlarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha ta'til 33 kungacha belgilanishi mumkin.

Imtiyozli pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqni baholash ushbu Nizomning 3a-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Tayyorlangan axborot Mehnat sharoitlari xaritasining tegishli bo'limiga (IV bo'limga) kiritiladi.

46. Ish o'rnida mehnat sharoitlari holatini kompleks baholash:

mehnat sharoitlarining gigiyena normativlariga muvofiqligini baholash natijalari bo'yicha belgilangan mehnat sharoitlari darajasini;

jarohatlash xavfliligi bo'yicha mehnat sharoitlari darajasini;

xodimlarning YATHV bilan ta'minlanganligini baholash natijalarini o'z ichiga oladi.

47. Ish o'rnida mehnat sharoitlari holatini kompleks baholash attestatsiya komissiyasining xulosasi shaklida rasmiylashtiriladi. U Mehnat sharoitlari xaritasining tegishli bo'limida (V bo'limda) aks ettiriladi.

Ish o'rnida mehnat sharoitlari gigiyena normativlariga muvofiq bo'lganda, ish o'rnining jarohatlash xavfliligini baholashda mehnat muhofazasi bo'yicha normalar,

qoidalar va yo'riqnomalar talablariga nomuvofiqlik aniqlanmaganda va ish o'rni xodimlarni YATHV bilan ta'minlanganligi talablariga muvofiq bo'lganda ish o'rni mehnat sharoitlari kompleks baholangan holda «mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiq» deb attestatsiyadan o'tkazilgan hisoblanadi.

Ish o'rnida mehnat sharoitlari gigiyena normativlariga nomuvofiq bo'lganda va (yoki) ish o'rnining jarohatlash xavfiligini baholashda ish o'rnining mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda va (yoki) xodimlarning YATHV bilan ta'minlanganligi talablariga nomuvofiq bo'lganda ish o'rni mehnat sharoitlari kompleks baholangan holda «mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiq emas» deb attestatsiyadan o'tkazilgan hisoblanadi.

48. Ish o'rnidagi mehnat sharoitlari ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilayotgan korxonaning xavfli mehnat sharoitlariga tegishli deb topilganda darhol ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining xavfli omillari ta'siri darajasini pasaytirishga yoxud ularning ta'sir ko'rsatish vaqtini kamaytirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

49. Attestatsiya komissiyasi o'tkazilgan attestatsiya natijalari bo'yicha:

a) ushbu Nizomning **4-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalarining yig'ma vedomostini tuzadi. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalarining yig'ma vedomosti korxonaning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha tuziladi;

b) Ushbu Nizomning **5-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha belgilangan mehnat sharoitlari darajalarining yig'ma jadvalini va shu munosabat bilan xodimlarga belgilash zarur bo'lgan kafolatlar va preferensiyalarni tuzadi. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha belgilangan mehnat sharoitlari darajalarining yig'ma jadvali va shu munosabat bilan xodimlarga belgilash

zarur bo'lgan kafolatlar va preferensiyalar korxonaning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha tuziladi.

Agar ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omilini o'lchash ish o'rnida o'tkazilmagan taqdirda, ushbu omilga muvofiq bo'lgan ustun va unda o'lchash va baholash o'tkazilgan ish o'rni raqamiga mos bo'lgan satr bo'sh qoladi (bunda ushbu omil bo'yicha ushbu ish o'rnidagi mehnat sharoitlari maqbul darajaga muvofiq deb hisoblanadi).

50. Attestatsiya natijalari bo'yicha attestatsiya komissiyasi ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha mehnat sharoitlarini mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi.

Mehnat sharoitlarini mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlari rejasi korxonaning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha ishlab chiqiladi.

Mehnat sharoitlarini mehnat muhofazasi bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlari rejasi kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda korxonada rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Mehnat sharoitlarining gigiyenik meyorlarga muvofiqligini baholash doirasida ish o'rinlarida mavjud omillar tegishli meyorlardan oshgan har bir holat bo'yicha tadbirlar rejasida ularni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanishi lozim.

51. Ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilgan korxonaning attestatsiya materiallari mehnat organlarida davlat ekspertizasidan o'tkazilishi kerak.

Attestatsiya materiallari attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan mehnat organlariga kiritiladi.

52. Davlat ekspertizasi tegishli ariza kiritilgan sanadan boshlab yigirma besh kalendar kundan oshmagan muddatda belgilangan tartibda pul to'lash orqali amalga oshiriladi.

Ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha mehnat organi ijobiy xulosa beradi yoki kiritilgan attestatsiya materiallarini aniq normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda rad etish sabablarini ko'rsatib qaytaradi.

Attestatsiyani o'tkazuvchi tashkilot rad etish sabablarini bartaraf etishga yozma xabarnoma olingan kundan boshlab o'n ish kunidan keyin takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishga haqlidir.

53. Davlat ekspertizasini o'tkazish va xulosa berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilanadi.

54. Davlat ekspertisasi va xulosa berish O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar attestatsiya xodimlarning umumiy soni 100 kishidan kam bo'lgan korxonalarda o'tkazilgan bo'lsa, davlat ekspertizasidan o'tkazish hamda xulosa berish Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Xulosa ushbu Nizomga [7-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha tegishli himoya darajasiga ega bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan markazlashtirilgan tartibda tayyorlanadigan maxsus blankada rasmiylashtiriladi»;

Xulosa blankasi qat'iy hisobot beriladigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Blankalar buyurtma bo'yicha «Davlat belgisi» davlat ishlab chiqarish birlashmasida matbaa usulida tayyorlanadi.

55. Mehnat organlarining ijobiy xulosasi olingan taqdirda attestatsiya komissiyasi raisi attestatsiya komissiyasining yakuniy majlisini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Korxonaning alohida tarkibiy bo'linmalarida attestatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun attestatsiya komissiyasining oraliq-yakuniy majlislarini o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

56. Attestatsiya komissiyasining yakuniy (oraliq-yakuniy) majlisi ushbu Nizomning 8-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha attestatsiya komissiyasi majlisining protokoli shaklida rasmiylashtiriladi.

Attestatsiya komissiyasining yakuniy (oraliq-yakuniy) majlisi protokoli korxonara rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

#### **4. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi.**

62. Attestatsiya natijalari attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan attestatsiya to'g'risidagi hisobot shaklida rasmiylashtiriladi, unga:

attestatsiya komissiyasini tashkil etish va attestatsiya bo'yicha ishlarni bajarish jadvalini tasdiqlash to'g'risidagi buyruq;

attestatsiyadan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari ro'yxati;

attestatsiya o'tkazilgan korxonaning jami xodimlari shundan ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

o'lchashlar protokollari bilan birgalikda mehnat sharoitlari xaritalari;

ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasi natijalari yig'ma vedomosti;

attestatsiya natijalari bo'yicha belgilangan mehnat sharoitlari darajalarining yig'ma jadvali hamda shu munosabat bilan xodimlarga belgilanishi zarur bo'lgan kafolatlar va preferensiyalar;

mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish tadbirlari rejasi;

mehnat organlarining ijobiy xulosasi;

attestatsiya komissiyasining yakuniy (oraliq-yakuniy) majlisi (majlislari) protokoli (protokollari);

attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan sinov laboratoriyasining texnik jihatdan malakaliligini maqullash to'g'risidagi guvohnomasi nusxasi.

63. Attestatsiya komissiyasi attestatsiya to‘g‘risidagi hisobot tushgan sanadan boshlab o‘n kalendar kun mobaynida:

attestatsiya to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqadi va uni tasdiqlash uchun korxonaga rahbariga kiritadi;

ish o‘rinlarida attestatsiya o‘tkazilgan xodimlarni tilxat ostida ish o‘rinlari attestatsiyasining natijalari bilan tanishtiradi;

jamoaga shartnomasi va jamoaga bitimiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi.

64. Korxonaga rahbari attestatsiya to‘g‘risidagi hisobot tushgan sanadan boshlab o‘n ish kuni mobaynida attestatsiyaning tugaganligi va attestatsiya to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlash to‘g‘risida yozma qaror qabul qiladi.

65. Attestatsiya materiallari ish o‘rinlarida attestatsiya o‘tkazilgan korxonada ushbu Nizomning 9-bandida belgilangan muddat mobaynida saqlanadi.

#### **Rejadan tashqari attestatsiya o‘tkazish tartibi**

66. Rejadan tashqari attestatsiya:

xodim, kasaba uyushma qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tegishli ish o‘rnida attestatsiya o‘tkazish to‘g‘risida korxonaga rahbariga ariza bilan murojaat qilgan taqdirda;

attestatsiya o‘tkazish sifatini baholash maqsadida o‘tkazilgan mehnat sharoitlari davlat ekspertizasi natijalari bo‘yicha;

mehnat organlari tomonidan korxonaga rahbariga berilgan ko‘rsatmaga muvofiq o‘tkaziladi.

67. Rejadan tashqari attestatsiya natijalari attestatsiyaga qo‘yiladigan ushbu Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Bunda har bir ish o‘rni uchun o‘zgartirish va qo‘shimchalar hisobga olingan holda mehnat sharoitlarining yangi xaritasi rasmiylashtiriladi.

#### **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## **1-amaliy mashg'ulot: Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish va bilimlarni sinash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Ishlovchilarni kasbiy tanlanishi, ishlarni bajarishda kasbiy va psixofiziologik yaroqligini o'rnatuvchi ko'zda tutilgan amaldagi normativ huquqiy hujjatlarga muvofiqligini o'rganish.

Mehnat xavfsizligi bo'yicha yuqori talablar ko'yilgan kasb va ishlar turini xavfsiz usul va uslubiylariga o'qitish, tashkilot ish beruvchisi tasdiqlagan va tashkilotning kasaba uyushmasi bilan kelishilgan shu tashkilotning o'ziga xos dasturlari asosida olib borish kerak.

Mehnat xavfsizligi bo'yicha yuqori talablar ko'yilgan ishlarni bajarishga, yoshi 18 yoshdan kam bo'lmagan, kasbiy malakaga ega, ishlarni xatarsiz bajarish bo'yicha o'qitilgan va ishlarni bajarish huquqiga ega imtihon topshirgan shaxslarga ruxsat beriladi. "O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxati" (ro'yxat raqami 1990, 2009 yil 29 iyul). Xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'tkaziladigan instruktajlarning maqsadi, vazifasi, turlarining o'tkazilish vaqti va tartibini o'rganish hamda ularni rasmiylashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

### **Mashg'ulot rejasi**

Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l – yo'riqlarning maqsadi va vazifasi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l – yo'riqlarning turlari, mazmuni va rasmiylashtirish tartibi.

**Topshiriq.** Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l – yo'riqlarning turi, tarkibi va mazmuni bilan tanishing. Ularni o'tkazish bo'yicha yuritilishi lozim bo'lgan jurnal (1-4 ilova)larni to'ldiring.

### **Nazariy qism**

#### **Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l – yo'riqlarning maqsadi va vazifasi.**

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va sanoat korxonalarida kasb kasalliklari va jarohatlanishga olib keladigan omillarni butunlay yo'qotish sanoat korxonalarini rahbarlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Hozirgi zamon fan va texnikasining o'lishi yangidan yangi texnologiya va mashina-mexanizmlarning joriy etilishi, ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimning yuqori malakali, texnika qonunlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo'lishlarini talab qiladi. Hozirgi vaqtda ishchilar xavfsizligini ta'minlash borasida qanchadan-qancha tavsiyanomalar, qoida va normalar ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan sanoat korxonalarida baxtsiz hodisalarning butunlay yo'qolib ketishini ta'minlovchi sharoit mavjud emas.

Bundan tashqari sanoat korxonalarining xilma-xilligi, hattoki ma'lum bir korxonada ham ish sharoiti bir-biriga o'xshash ikkita sexni topish amri mahol ekanligi, umumiy sanoat korxonalarini xavfsizligini ta'minlovchi, tartibga solingan tavsiya ishlab chiqish mumkin emas. Shuning uchun ham har bir sanoat korxonasi o'zi uchun mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yo'l – yo'riqlar tizimi tashkil qilingan va bu tizimlar ishchilarning xavfsizligini ta'minlovchi ish usullarini o'rgatish bilan ishchining mehnat xavfsizligini saqlash chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

yo'l – yo'riqlarni asosan ikki guruhga bo'lib qarash mumkin:

- 1) kirish yo'l – yo'rig'i;
- 2) ish joyidagi yo'l – yo'riq.

Ish joyidagi yo'l – yo'riq o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- birlamchi yo'l – yo'riq;
- davriy yo'l – yo'riq;
- navbatdan tashqari yo'l – yo'riq;
- maqsadli yo'l – yo'riq.

Sanoat korxonalarining hammasida ish kategoriyasi va xavfli darajasi qanday bo'lishiga qaramay barcha ishchi va xizmatchilar ish davri, mutaxassisligi va malakasidan qat'iy nazar yo'l – yo'riqdan o'tishlari shart.

*Kirish yo'l – yo'rig'i.* Ishga yangi kirayotganlar uchun o'tkaziladi. Bu yo'l – yo'riqning asosiy maqsadi ishga kirayotgan kishini mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi to'g'risida ma'lumot berish, uni sanoat korxonasi maydonlari va sexlaridagi tartib-qoidalardan xabardor qilishdir. Kirish yo'l

– yo‘rig‘i yaxshi jihozlangan va ko‘rgazmali qurollar o‘rnatilgan mehnatni muhofaza qilish xonasida, xavfsizlik texnikasi muhandisitonidan o‘tkaziladi.

Kirish yo‘l – yo‘rig‘i vaqtida ishga kirayotgan ishchi quyidagi holatlar bilan tanishtirilishi shart: O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatlari asoslari, sanoat korxonasi yo‘lga qo‘yilgan ichki tartib qoidalari, sanoat korxonasi maydonida va sexlarida o‘zini tutish qoidalari, sanoat korxonasidagi xavfsizlik texnikasining umumiy talablari, ish joyini tashkil qilish, ishchiga topshirilgan mashina va mexanizmlarni saramjon va ozoda saqlash qoidalari, maxsus ish sharoitini tashkil qilingan ayrim sex va bo‘limlar bilan tanishtirish, baxtsiz hodisalarni oldini olish qoidalarini tushuntirish, bunda asosiy diqqat e‘tiborni har xil erituvchilar, kislotalar, yengil alanganuvchi suyuqliklar, siqilgan havo, elektr toki xavfi mavjud bo‘lgan sexlarga qaratish kerak.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi qoida, normalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma‘lumotlar berilishi kerak. Baxtsiz hodisa ro‘y berganda o‘zini qanday tutish haqida tushuncha beriladi, alkogolli ichimliklar baxtsiz hodisaga olib kelishi haqida aytib o‘tilishi shart. Maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari, sanitar-gigiyena sharoitlariga e‘tibor berish, sanitar maishiy xonalardan foydalanish tartibi, baxtsiz hodisa ro‘y berganda, baxtsiz hodisaga uchragan kishiga vrach kelgunga qadar yordam ko‘rsatish usullari haqida ma‘lumot beriladi.

Kirish yo‘l – yo‘rig‘i o‘tkazilganligi haqida jurnalga qayd qilinadi. (1-ilova).

### **Ish joyidagi yo‘l – yo‘riq:**

*Birlamchi yo‘l – yo‘riq.* Ishga yangi kirgan, bir ishdan ikkinchi ishga o‘tkazilgan, bir mashinadan ikkinchi mashinaga, bir uchastkadan ikkinchi uchastkaga o‘tkazilgan, agar bu o‘tkazishlar vaqtincha bo‘lishidan qat‘iy nazar ish joyidagi yo‘l – yo‘riqdan o‘tkazilishi shart.

Birlamchi yo‘l – yo‘riqda quyidagilar tushuntirilishi kerak: ishchining doimiy ishlash joyi, sexdagi texnologik jarayon va xavfli uchastkalar, ishchining doimiy ishlashi zarur bo‘lgan mashinaning yoki stanokning tuzilishi, mashinaning xavfli

joylari, muhofaza qurilmalari va boshqa saqlovchi vositalar, ularning vazifasi va ulardan foydalanish qoidalari. Ishga tayyorlanish qoidalari, stanokning sozlanganligini tekshirish, yurgizish o‘chirish asboblarining ishlashi, stanokning yerga ulanganligi, yordamchi va asosiy qurollarning mavjudligi. Shaxsiy himoya vositalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalari, maxsus kiyimlar, maxsus poyabzal va bosh kiyimlarga qo‘yiladigan talablar.

Ish joyini tashkil qilish bunda material va tayyor mahsulotlarni joylashtirish, ish joylarini iflos va keraksiz narsalar bilan to‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, yo‘llar, o‘tish joylari va ish joylarini to‘sib qo‘ymaslik.

Transport vositalari, ko‘tarish kranlari va mexanizmlarni ishlatish qoidalari va boshqa yordamchi vositalardan foydalanish tartiblari.

Baxtsiz hodisalar kelib chiqish mumkin bo‘lgan ish usullarini qo‘llashni taqiqlash va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin bo‘lgan zararli moddalar haqida tushuncha berish va ulardan saqlanish usullarini ko‘rsatish.

Yo‘l – yo‘riq o‘tkazayotganda avvalo odatdagi ish sharoitida ishchi o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida ma’lumot beriladi. Lekin sanoat korxonalarida ba’zi bir haddan tashqari holatlar ham yuz berib qolishi mumkin. Masalan avariya, yong‘in va boshqa hollarda ishchi o‘zini qanday tutishi, tez harakat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mana shunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ham ma’lumot berilishi kerak.

Ish joyidagi yo‘l – yo‘riqni master yoki brigadir o‘tkazadi.

*Davriy yo‘l – yo‘riq.* Bu yo‘l – yo‘riqni o‘tkazish vaqtini fabrika, zavod kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishgan holda, sanoat korxonasining rahbari belgilaydi. Bu yo‘l – yo‘riqning mazmuni birlamchi yo‘l – yo‘riq mazmuni bilan bir xil. Yo‘l – yo‘riqning kirish yo‘l – yo‘rig‘i singari hamma ishchilar ish staji, malakasi, razryadidan qat’iy nazar o‘tkazilishi shart.

*Navbatdan tashqari yo‘l – yo‘riq.* Bu yo‘l – yo‘riq texnologik jarayonning o‘zgarishi, yangi mashina va stanoklar kiritilishi va yangi materiallardan foydalanish

natijasida ish sharoitining o'zgarishi sababli ishchilarning xavfsizligini saqlash uchun bilimlari yetishmasligi sezilganda o'tkazilishi mumkin.

Bundan tashqari bu yo'l – yo'riq ba'zi bir ishchilar xavfli ish usullaridan foydalanayotganligi sezilsa, mehnat intizomi yoki xavfsizlik texnikasi qoidalari buzilsa yoki ishchi ishlayotgan joyidan biror-bir sabab bilan (masalan kasallik, ta'til) uzilish ro'y bersa, shuningdek ish joylarida kasb kasalliklari va baxtsiz hodisalar yuz bersa o'tkazilishi mumkin.

Shu sanoat korxonasiga o'xshash korxonada avariya sababli baxtsiz hodisa ro'y berganligi haqida xabar eshiltildandan keyin ham, navbatdan tashqari yo'l – yo'riq o'tkaziladi.

*Maqsadli yo'l – yo'riq.* Maqsadli yo'l – yo'riq bir martalik ish bajarish ya'ni ishchining vazifasiga kirmaydigan (yuk ortish, tushirish, territoriyani tozalash, korxonada territoriyasidan tashqaridagi ishlar), hamda avariyaning oldini olish, tabiiy ofatlarni bartaraf etish va naryad-dopusk bilan bajariladigan xavfli ishlar uchun ish boshlashdan oldin o'tkaziladi. Bu yo'l – yo'riq o'tkazilganligi haqidagi ma'lumot naryad-dopuskka yozib qo'yiladi. Ish joyidagi yo'l – yo'riq o'tkazilganligi haqida ish joyidagi yo'l – yo'riq jurnaliga qayd qilinadi. (2-ilova).

## Kirish yo‘l – yo‘rig‘ini qayd qilish jurnalining shakli

*Titul varag‘i*

\_\_\_\_\_ (Korxonada)

### Mehnat muhofazasi bo‘yicha kirish yo‘l – yo‘rig‘ini qayd qilish JURNALI

Boshlandi 20\_\_y. “\_\_” \_\_\_\_\_

*Keyingi betlar*

yo‘l – yo‘riqni o‘tkazish sanasi	yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi	Kasbi, lavozimi	yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchini yo‘naltirilayotgan ishlab chiqarish bo‘linmasining nomi	Imzosi	
				yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchini	yo‘l – yo‘riq o‘tkazuvchini

## Ish joyidagi yo‘l – yo‘riqni qayd qilish jurnalining shakli

<i>Titul varag‘i</i>																						
<p>_____</p> <p>(Korxonona)</p> <p style="font-weight: bold; text-align: center;">Mehnat muhofazasi bo‘yicha ish joyidagi yo‘l – yo‘riqni qayd qilish JURNALI</p> <p>_____</p> <p>(bo‘linmaning nomi)</p> <p style="text-align: right;">Boshlandi 20__y. “__” _____</p>																						
<i>Birinchi bet</i>																						
<p>_____ <b>xodimlarining RO‘YXATI</b></p> <p>(bo‘linmaning nomi)</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse; margin-top: 10px;"> <thead> <tr> <th style="width: 30%;">Familiyasi, ismi va otasi ismining bosh harflari</th> <th style="width: 30%;">Kasbi, lavozimi</th> <th style="width: 20%;">Yo‘l – yo‘riq yozilgan sahifaning raqami</th> <th style="width: 20%;">Izoh</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </tbody> </table>	Familiyasi, ismi va otasi ismining bosh harflari	Kasbi, lavozimi	Yo‘l – yo‘riq yozilgan sahifaning raqami	Izoh																		
Familiyasi, ismi va otasi ismining bosh harflari	Kasbi, lavozimi	Yo‘l – yo‘riq yozilgan sahifaning raqami	Izoh																			
<i>Keyingi betlar</i>																						
<p>Familiyasi, ismi, otasining ismi _____</p> <p>Kasbi (lavozimi) _____</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse; margin-top: 10px;"> <thead> <tr> <th rowspan="2" style="width: 20%;">Yo‘l – yo‘riqning turi, sababi, o‘tkazilish sanasi</th> <th rowspan="2" style="width: 40%;">Yo‘l – yo‘riqni o‘tkazish mavzusi (yo‘l – yo‘riqni o‘tkazishdagi masalalar yoki yo‘riqnomani raqami)</th> <th colspan="2" style="width: 40%;">Imzosi</th> </tr> <tr> <th style="width: 20%;">yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchini</th> <th style="width: 20%;">yo‘l – yo‘riq o‘tkazuvchini</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </tbody> </table>	Yo‘l – yo‘riqning turi, sababi, o‘tkazilish sanasi	Yo‘l – yo‘riqni o‘tkazish mavzusi (yo‘l – yo‘riqni o‘tkazishdagi masalalar yoki yo‘riqnomani raqami)	Imzosi		yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchini	yo‘l – yo‘riq o‘tkazuvchini																
Yo‘l – yo‘riqning turi, sababi, o‘tkazilish sanasi			Yo‘l – yo‘riqni o‘tkazish mavzusi (yo‘l – yo‘riqni o‘tkazishdagi masalalar yoki yo‘riqnomani raqami)	Imzosi																		
	yo‘l – yo‘riqdan o‘tuvchini	yo‘l – yo‘riq o‘tkazuvchini																				

### *Nazorat savollari*

1. Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'l – yo'riqlarni o'tishdan maqsad nima?
2. Yo'l – yo'riqlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Kirish yo'l – yo'rig'ining mazmuni nimadan iborat?
4. Ish joyidagi yo'l – yo'riq kim tomonidan va qayerda o'tkaziladi?
5. Vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan yo'l – yo'riqni o'tkazish vaqtini belgilashda qanday omillar asos qilib olinadi?
6. Navbatdan tashqari yo'l – yo'riq qanday holatlarda o'tkaziladi?
7. Maqsadli yo'l – yo'riq qanday hollarda o'tkaziladi?
8. Barcha turdagi yo'l – yo'riqlar uchun nechta jurnal yuritiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari**

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (yangi taxriri) 2016 yil 22 sentabr, O'RQ-410-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
3. "Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to'g'risida"gi namunaviy Nizom (ro'yxat raqami 272, 1996 yil 14 avgust).
4. G'.Yormatov va boshqalar Mehnatni muhofaza qilish: Darslik - Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2002 - 345 b.
5. Rukovodstvo po oxrane truda na predpriyatiyax Yunusov B.X., Parsegova L.T. i dr. - Izdatelstvo "Farg'ona", 2004 – 332 s.
6. GOST 12.0.004-90 Mejgosudarstvenniy standart "Organizatsiya obucheniya bezopasnosti truda".

### **2-amaliy mashg'ulot: Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish tartibi.**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarning vazifasi, tarkibi va mazmuni bilan tanishish hamda ularni tuzish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Tashkilot rahbari hamma ishlovchilarni mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalar bilan ta'minlashi kerak. Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni mazmuni, ishlab chiqish tartibi, kelishuvi, tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish "Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida"gi Nizomiga binoan bajariladi (ro'yxat raqami 870, 2000 yil 7 yanvar).

### **Mashg'ulot rejasi**

I. Umumiy qoidalar

II. Yo'riqnomalarning tuzilishi va mazmuni

III. Yo'riqnomalarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi

IV. Yo'riqnomalarni rasmiylashtirish tartibi

V. Yo'riqnomalarni tekshirish va qayta ko'rib chiqish

VI. Yo'riqnomalarni ro'yxatdan o'tkazish, ko'paytirish va hisobga olish

**Topshiriq.** Ixtiyoriy tanlangan kasb yoki ish turi uchun mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma tuzish.

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma xodimlar uchun normativ hujjat bo'lib, ishlab chiqarish binolarda, tashkilot hududida, qurilish maydonchalarida hamda ishlar va xizmat majburiyatlari bajariladigan boshqa joylarda xodimlar uchun xavfsizlik talablarini belgilaydi.

2. Yo'riqnomalar namunaviy (tarmoq) (keyingi o'rinlarda Namunaviy yo'riqnomalar deb yuritiladi) va tashkilot, uchastka va muayyan ish o'rinlari xodimlari uchun yo'riqnomalar (keyingi o'rinlarda Yo'riqnoma deb yuritiladi) bo'lishi mumkin.

3. Yo'riqnomalar muayyan kasblar (elektr payvandchilar, dastgohchilar, chilangarlar, elektrsozlovchilar, farroshlar, laborantlar, sut sog'uvchilar va boshqalar) hamda muayyan ish turlari uchun (balandlikdagi ishlar, o'rnatish, sozlash, ta'mirlash ishlari, sinovlar o'tkazish va boshqalar) ishlab chiqilishi mumkin.

Yo'riqnomalar portlatish ishlari, yuk ko'taruvchi mashina, qozonxonalar, bosim ostida ishlaydigan idishlar, elektr qurilmalar va uskunalarga xizmat

ko'rsatuvchi xodimlarga, shuningdek mehnatni muhofaza qilish qoidalari tarmoqlararo va tarmoq normativ hujjatlarda, Davlat nazorati organlari tomonidan tasdiqlangan mahsus qoidalarda, meyor va yo'riqnomalarda belgilangan boshqa xodimlar uchun ham ishlab chiqilishi lozim.

4. Yo'riqnomalarga faqat xodimlar o'zi bajaradigan ishlar hamda mehnat xavfsizligiga tegishli bo'lgan talablar kiritilishi lozim.

5. Namunaviy yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasining mehnat, mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligi, mehnat xavfsizligi standartlari, tarmoqlararo va tarmoq meyorlari va qoidalari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha boshqa normativ, normativ-texnik va tashkiliy-uslubiy hujjatlariga mos holda ishlab chiqiladi. Ularda ayrim korxonalarining ma'lum bir sharoitlari hisobga olinmaydi.

Namunaviy yo'riqnomalarning amal qilish muddati tegishli mehnatni muhofaza qilish qoidalarning amal qilish muddati hisobga olingan holda belgilanadi.

6. Xodimlar uchun yo'riqnomalar mazkur nizom, namunaviy yo'riqnomalar, ushbu korxonada ishlatiladigan asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchilarning foydalanish va ta'mirlash hujjatlarida ko'rsatilgan xavfsizlik talablari, shuningdek muayyan ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda korxonalarining texnologik hujjatlari asosida ishlab chiqiladi.

Namunaviy yo'riqnomalar bo'lmaganda xodimlar uchun yo'riqnomalar yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar asosida mazkur korxonaning o'ziga hos sharoitlari hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Yo'riqnomada yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning talabiga zid bo'lgan qoidalar bo'lmasligi lozim.

7. Xodimlar uchun yo'riqnomalar talablari majburiydir. Mazkur talablarni bajarmaslik ishlab chiqarish intizomining buzilishi deb hisoblanadi.

8. Xodimlar uchun mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni o'rganish korxonalar rahbari (ish beruvchi) tomonidan ta'minlanadi.

Xodimlar tomonidan yo'riqnomalar talablarini bajarilishi ustidan doimiy nazorat ish beruvchiga, korxonalar, muassasalar, tashkilot (keyingi o'rinlarda – tashkilot deb

yuritiladi), uning tarkibiy bo‘linmalari, sex, uchastka rahbarlariga, ustalar, mehnatni muhofaza qilish xizmatiga (bo‘lim, byuro, injener) va brigadirlarga yuklatiladi.

## **II. Yo‘riqnomalarning tuzilishi va mazmuni**

9. Har bir yo‘riqnomaning nomi va raqami belgilanishi kerak. Yo‘riqnomaning nomida qaysi kasb yoki ishning turi uchun u mo‘ljallangan.

Xodimlar uchun yo‘riqnomalar, masalan “Gazpayvandchi uchun mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnoma”, “Balandlikdagi ishlarni bajarish uchun mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnoma” deb nomlanishi mumkin.

10. Yo‘riqnomaning matni o‘z nomiga ega bo‘lgan boblarga (bo‘limlarga) bo‘linishi kerak. Boblar (bo‘limlar) bandlardan iborat bo‘ladi. Zarur bo‘lgan hollarda bandlar kichik bandlarga bo‘linishi mumkin.

11. Yo‘riqnomaning talablari texnologik jarayonning ketma-ketligiga muvofiq va ushbu ish bajariladigan sharoitlarni hisobga olgan holda bayon etilishi kerak.

12. Xodimlar uchun yo‘riqnoma quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi lozim:

- I. Xavfsizlikning umumiy talablari;
- II. Ishni boshlashdan oldingi xavfsizlik talablari;
- III. Ish vaqtidagi xavfsizlik talablari;
- IV. Avariya holatidagi xavfsizlik talablari;
- V. Ish tugagandan keyingi xavfsizlik talablari.

Izoh: Zaruriyat bo‘lgan hollarda yo‘riqnomalarga qo‘shimcha bo‘limlar kiritilishi mumkin. Masalan, namunaviy yo‘riqnomalarda respublikaning mehnat va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining tegishli qoidalari, qonun chiqaruvchi organlarning ko‘rsatmalari, mazkur namunaviy yo‘riqnoma asosida ishlab chiqiladigan xodimlar uchun yo‘riqnomalarda xavfsizlik talablarini bayon etishning uslubiy hususiyatlarini ifoda qiladigan “Kirish” bo‘limi qo‘zda tutilishi mumkin. Mazkur bo‘limda yo‘riqnomani ishlab chiqishda hisobga olinadigan normativ xujjatlarga havolalar, xujjatlar ro‘yxati va o‘z kuchini yo‘qotgan xujjatlar ro‘yxati berilishi mumkin.

13. Yo‘riqnomaning “Xavfsizlikning umumiy talablari” bo‘limida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

- shaxslarga kasbi bo‘yicha yoki tegishli ishni bajarishga mustaqil ishlashi uchun ruhsat berish sharoitlari (yoshi, jinsi, sog‘lig‘ining holati, yo‘l-yo‘riqdan o‘tishi va boshqalar);

- chekish va alkogol ichimliklarini ichishni taqiqlash, ichki mehnat qoidalariga rioya qilish zarurligi to‘g‘risida ogohlantirish;

- xodimga ta’sir etadigan xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarning tasnifi;

- mehnat tartibi (rejimi), ovqatlanish va dam olish uchun tanaffuslar, ish vaqtning (smenaning) cheklash (zarur bo‘lganda) talablari;

- mazkur kasb uchun berilishi zarur bo‘lgan davlat, tarmoq, respublika standartlari yoki ular uchun texnik shartlar belgilangan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari;

- yong‘in va portlash xavfsizligini ta’minlovchi talablar;

- shikastlanish, hodisalar va uskunalar, moslamalar va asboblarning nosozligi haqida ish beruvchini ogohlantirish tartibi;

- zarur bo‘lgan birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish bo‘yicha ko‘rsatmalar;

- ish vaqtida xodim rioya etishi zarur bo‘lgan shaxsiy gigiyena qoidalari;

- yo‘riqnoma talablarini buzganligi uchun xodimning javobgarligi.

14. “Ishni boshlashdan oldingi xavfsizlik talablari” bo‘limi quyidagilardan:

- ish joyini, shaxsiy himoya vositalarni tayyorlash tartibi;

- uskunalar, moslamalar va asboblari, to‘siqlar, signalizatsiya, himoyalash (bloklash) va boshqa qurilmalarni, yerga ulangan himoya simlarini, shamollatish, mahalliy yoritish va boshqalarni ishga yaroqliligini tekshirish tartibi;

- xom ashyo (yarim mahsulotlarni) mavjudligi va holatini tekshirish tartibi;

- uzluksiz sharoitdagi ishlarda smenani qabul qilish tartibi;

- ishlab chiqarish sanitariya talablaridan iborat bo‘lishi lozim.

15. “Ish vaqtidagi xavfsizlik talablari” bo‘limi quyidagilardan:

- Ishlarni xavfsiz bajarish uslublari va usullari, texnologik uskunalar, moslamalar va asboblardan foydalanish tartibi;

- xom ashyolar (yarim mahsulot, boshlang'ich materiallar, yarim tayyor materiallar), yordamchi materiallar va tayyor mahsulot bilan xavfsiz ishlashga qo'yiladigan talablar;

- transport vositalarni, tara va yuk ko'taruvchi mexanizmlarni xavfsiz ishlatish qoidalari;

- ish o'rinlarida xavfsizlikni ta'minlash ko'rsatmalari;

- normal texnologik rejimdan chiqib ketish (og'ishning) asosiy turlari va ularni bartaraf etish uslublari;

- avariya holatlarini oldini olishga qaratilgan harakatlar;

- nosozliklarni xavfsiz bartaraf etish va profilaktika ishlarni o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar;

- xodimlarning himoya vositalardan foydalanishga bo'lgan talablardan iborat bo'lishi kerak.

16. "Avariya holatidagi xavfsizlik talablari" bo'limiga:

- avariya sodir bo'lganda va baxtsiz hodisalarga olib keladigan holatlardagi harakatlar;

- shikastlanish, zaharlanish va to'satdan kasallikdan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha harakatlar bo'yicha talablar kiritilishi lozim.

17. "Ish tugagandan keyingi xavfsizlik talablari" bo'limi quyidagilardan:

- uskunalarni, moslamalarni, mashina, mexanizmlarni va apparaturalarni xavfsiz o'chirish, to'xtatish, qismlarga ajratish, tozalash va moylash tartibi, uzluksiz sharoitda ishlaganda smena bo'yicha topshirish tartibi;

- ish joyini topshirish tartibi;

- ishlab chiqarish chiqindilarini tozalash tartibi;

- ishlab chiqarish sanitariya va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish talablari;

- ish vaqtida aniqlangan barcha kamchiliklar va nosozliklar haqida rahbariyatni ogohlantirish tartibi;

- himoya vositalardan davomiliy foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar (saqlash, tozalash, tiklash, utilizatsiya qilish) bo'lgan talablardan iborat bo'lishi kerak.

### **III. Yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi**

18. Kasblar va ishlarning ayrim turlari bo‘yicha xodimlar uchun yo‘riqnomalar bosh texnolog, bosh mexanik, bosh energetik, bosh metallurg, mehnat haqi va mehnatni tashkil qilish xizmati hamda boshqa bo‘linmalar boshliqlari ishtirokida mehnatni muhofaza qilish xizmati (mehnatni muhofaza qilish xizmati bo‘lmagan taqdirda, ushbu vazifalar yuklatilgan shaxs) tomonidan tuzilgan ro‘yxatga muvofiq ishlab chiqiladi.

Ro‘yxat korxonada Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari Klassifikatori va Ishlar va ishchi kasblarning yagona tarif-malaka tasnifiga muvofiq tasdiqlangan shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqiladi.

Ro‘yxat bosh injener tomonidan tasdiqlanadi va korxonaning barcha tarkibiy bo‘linmalarga (xizmatlarga) yuboriladi.

19. Xodimlar uchun yangi yo‘riqnomalar korxonada rahbarining buyrug‘i va farmoyishiga muvofiq ishlab chiqiladi.

20. Yo‘riqnomalar xodimlar uchun sex, uchastkalar, bo‘limlar, laboratoriyalar va korxonaning boshqa tegishli bo‘linmalari boshliqlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Barcha xodimlarni yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash bo‘yicha bo‘linma rahbarlari javobgardir.

21. Korxonada xodimlar uchun yo‘riqnomalarni ishlab chiqilishini boshqarish bosh injener yoki uning o‘rinbosariga (qishloq ho‘jaligi tarmog‘ining bosh mutaxassislariga) yuklatiladi.

22. Zarur hollarda korxonada rahbariyati ma‘lum bir bo‘linma xodimlariga yo‘riqnomalarni ishlab chiqish uchun boshqa tashkilotlar yoki bo‘linmalar mutaxassislarini jalb qilishi mumkin.

23. Ish beruvchi (korxonada rahbariyati) xodimlarning yo‘riqnomalarini o‘z vaqtida tekshirish, qayta ko‘rib chiqish va ishlab chiqilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishi lozim, ishlab chiqaruvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatishi, ularga kerakli bo‘lgan mehnat muhofazasi bo‘yicha namunaviy yo‘riqnomalarni, Mehnat xavfsizligi standartlar tizimining standartlarini, shuningdek boshqa normativ va normativ-texnik hujjatlarni olishga yordam berishi kerak.

24. Namunaviy yo‘riqnomalar vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar, birlashmalarning mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan ishlab chiqiladi va tashkilot xodimlari uchun yo‘riqnomalarni ishlab chiqish uchun yo‘naltiriladi.

Namunaviy yo‘riqnomalarni xodimlar uchun yo‘riqnoma sifatida foydalanishda ularni rasmiylashtirish, kelishish va tasdiqlash zarur, mazkur nizomning 31 va 32-bandlarida belgilangan tartibda, zarur hollarda korxonaning ma’lum bir sharoitlari bo‘yicha namunaviy yo‘riqnomalar tasdiqlanganidan keyin amaliyotga tadbiiq qilingan normativ hujjatlarning talablari hisobga olingan holda qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

25. Xodimlarga yo‘riqnomalarni ishlab chiqish uchun quyidagi zarur bo‘lgan tayyorgarlik ishlarni amalga oshirish lozim:

- texnologik jarayonni o‘rganish, uning normal faoliyati hamda optimal rejimdan og‘ishi davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini aniqlash va ulardan himoya vositalar va tadbirlarni belgilash;

- ishlatiladigan uskuna, moslama va asboblarning xavfsizlik talablariga mosligini belgilash;

- yo‘riqnomalarni ishlab chiqishda ishlatiladigan materiallarni tanlab olish;

- tegishli ishlarni bajarishda foydalaniladigan himoya vositalarining konstruktiv xususiyatlari va samaradorligini o‘rganish;

- tarmoq korxonalarida avariya holatlarini va baxtsiz hodisalar to‘g‘risida vazirlik (idoralarining) buyruqlari, farmoyishlari va ma’lumot xatlarini o‘rganish;

- korxonada mazkur kasb (ish turi) bo‘yicha avariya holatlarini, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari holatlarini tahlil qilish;

- yo‘riqnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan ishning xavfsiz usullari va uslublarini belgilash, ularning ketma-ketligini, shuningdek texnik va tashkiliy talablarni belgilash lozim.

26. Yo‘riqnomalarga kiritiladigan normativ hujjatlarning talablari aynan ma’lum bir ish o‘rniga va xodimning amaldagi mehnat sharoitlariga tegishli bo‘lishi lozim.

Aniqlashtirish talab etilmaydigan normativ hujjatlarning talablari yo‘riqnomaga o‘zgartirilmagan holda kiritiladi.

27. Foydalanishga topshirilayotgan yangi ishlab chiqarishlarda xodimlar uchun vaqtinchalik yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi mumkin. Vaqtinchalik yo‘riqnomalar texnologik jarayonlarni (ishlarni) va ishlatilayotgan uskunalarning xavfsiz ishlatilishini ta‘minlashi lozim. Xodimlar uchun vaqtinchalik yo‘riqnomalar ishlab chiqilishiga ham doimiy yo‘riqnomalarga bo‘lgan talablar belgilanadi. Ko‘rsatilgan ishlab chiqarishlarni foydalanishga qabul qilish kuniga qadar vaqtinchalik yo‘riqnomalar ham kasblar bo‘yicha ham ishlar turi bo‘yicha ishlab chiqilishi lozim.

28. Xodimlar uchun yo‘riqnomalarning loyihasi mehnatni muhofaza qilish xizmati, kasaba uyushmasi, yong‘inga qarshi kurashish bo‘limi, korxonaning tibbiy xizmatiga ko‘rib chiqish uchun yo‘llaniladi.

29. Loyihani ko‘rib chiqish jarayonida olingan taklif va mulohazalar umumlashtiriladi va xodimlar uchun yo‘riqnomaning yakuniy loyihasi ishlab chiqiladi.

30. Xodimlar uchun yo‘riqnomalarning yakuniy loyihasi mas‘ul ishlab chiqaruvchi yoki korxonah rahbarining farmoyishiga muvofiq yo‘riqnomalarni ishlab chiqish uchun javobgar bo‘lgan bo‘lim boshlig‘i tomonidan imzolanishi kerak.

31. Yo‘riqnomalarning yakuniy loyihasini tasdiqlashdan avval mehnatni muhofaza qilish xizmati, xizmat bo‘lmagan taqdirda mehnatni muhofaza qilish xizmati funksiyalarini bajarish vazifasi yuklatilgan shaxsga, hamda zarur bo‘lgan hollarda tegishli xizmatlrl, tashkilotlar va mansabdor shaxslar bilan kelishish lozim.

32. Yo‘riqnomalarning yakuniy loyihasi bo‘yicha kelishuv jarayoni tugaganidan so‘ng uch nushada, ulardan biri birinchi nushasi bo‘lgan holda tasdiqlanadi.

33. Xodimlar uchun yo‘riqnomah korxonah rahbari (ish beruvchi) yoki bosh muxandis tomonidan tasdiqlanadi.

Namunaviy yo‘riqnomah mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari yoki vazirlik, idora, korporatsiyah, konsern, uyushmah, birlashmah rahbarining mehnatni

muhofaza qilish bo'yicha mas'ul o'rinbosari tomonidan tegishli kasaba uyushmalari bilan kelishilganidan keyin tasdiqlanadi.

34. Xodimlar uchun yo'riqnoma tasdiqlangan kundan boshlab amalga tadbiiq qilinadi.

Tegishli texnologik jarayonni amalga tadbiiq qilish (ishlab chiqarish boshlanishi) yoki yangi uskunalarni ishga tushirishdan avval xodimlarni tegishli tayyorgarlikdan o'tgazilganidan so'ng yo'riqnoma amalga tadbiiq qilinishi kerak.

#### **IV. Yo'riqnomalarni rasmiylashtirish tartibi**

35. Yo'riqnoma matni qisqa, aniq va har xil talqinlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

36. Xodimlar uchun yo'riqnomalarda biron bir normativ hujjatlarga havolalar bo'lmasligi lozim, ushbu korxonada ishlaydigan xodimlar uchun boshqa yo'riqnomalarga havolalar bundan mustasno.

Ko'rsatilgan normativ hujjatlarning talablari xodimlar uchun yo'riqnomalarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan hisobga olinishi kerak.

Zarur bo'lganda, ushbu hujjatlarning talablari xodimlar uchun yo'riqnomalarda matn yoki izohda ko'rsatilishi lozim.

37. Yo'riqnomalarda keltirilgan tushunchalar qabul qilingan respublikaning mehnat va mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi, "Mehnat xavfsizligi standartlar tizimi. Terminlar va tushunchalar" va boshqa Mehnat xavfsizligi standartlar tizimi standartlariga mos bo'lishi lozim.

Ko'rsatilgan hujjatlarda belgilanmagan tushunchalarni qo'llashda yo'riqnomalarning matnida ularning ta'riflari va tushuntirishlari berilishi lozim.

38. Yo'riqnomalarda so'zlashuv iboralari, shuningdek texnitsizm va professionalizmlar qo'llanmasligi lozim.

39. Yo'riqnomalarning matnida talablarni taqiqlovchi shaklida bayon etishdan qochish lozim, kerak bo'lganda nima sababdan taqiqlanganligi haqida tushuntirishlar berilishi lozim.

40. Yo'riqnomalarda belgilangan talablar xodimlar tomonidan barchasi bir hil bajarilishi kerakligi sabali, yo'riqnomalarda talablarning alohida ma'nosini

ta'kidlaydigan so'zlar ishlatilmasligi lozim (masalan, "qat'iy", "aynan", "majburiy", "so'zsiz" va boshqalar).

41. Ko'rgazmali bo'lishi uchun alohida talablarning ma'nosi rasm, fotosuratlar, diagrammalar yoki chizmalar bilan qo'rstilishi mumkin.

42. Yo'riqnomalarning matnida so'zlar harfli qisqartirishlar (abbreviatura) bilan almashtirilishi mumkin, qisqartirishlar matnda birinchi marta ishlatilganda to'liq tushuntirishlar berilgan sharti bilan.

43. Agar ishning xavfsiz bajarilishi ma'lum bir meyorlar bilan belgilangan bo'lsa, unda ular yo'riqnomada ko'rsatilishi kerak (bo'shliqlar hajmi, masofa va boshqalar).

44. Yo'riqnomalarning har bir bandida bitta tugallangan normativ ko'rsatma bo'lishi kerak.

45. Yo'riqnomalar hajmi va mazmuniga qarab alohida bo'limlar va kichik bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

bo'limlar rim raqamlari bilan raqamlangan bo'lishi kerak, barcha bo'linmalarining kichik bandlari sonli raqamlanishi arab raqamlari bilan amalga oshiriladi;

matnga ilovalar sonli raqamlanishi doimiy ravishda nomi bilan belgilanadi (1-sonli ilova, 2-sonli ilova va boshqalar);

jadvallar ham sonli raqamlanishi doimiy ravishda nomi bilan belgilanishi lozim (Jadval 1, Jadval 2 va boshqalar).

46. Yo'riqnomalarning sarlavha sahifasi (titul varag'i), birinchi va ohirgi sahifalari mazkur nizomning 1, 2 va 3-ilovalarga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.

## **V. Yo'riqnomalarni tekshirish va qayta ko'rib chiqish**

47. Mehnatn muhofaza qilish sohasida zamonaviy talablarga mos bo'lishini ta'minlash uchun yo'riqnomalar vaqti-vaqti bilan tekshirilishi kerak. Bunda yo'riqnomalarni qayta ko'rib chiqilishi va ularga o'zgartirishlar kiritilishi zarurligi aniqlanadi.

48. Xodimlar uchun yo'riqnomalarni tekshirish va qayta ko'rib chiqishni ishlab chiquvchi bo'linma tomonidan amalga oshiriladi.

Yo'riqnomalarni o'z vaqtida tekshirilishi va qayta ko'rib chiqilishi uchun ushbu tashkilotlar rahbarlari va ishlab chiqaruvchi bo'linmalar javobgardir.

49. Xodimlar uchun yo'riqnomalarni tekshirish ishlari mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tarmoqlararo va tarmoq normativ va normativ-texnik hujjatlarda belgilangan muddatlarda, ammo 5 yilda bir martadan kam bo'lgan holda, xavfliligi yuqori bo'lgan kasblarda yoki ishlarni bajarayotgan xodimlar uchun yo'riqnomalar 3 yilda bir martadan kam bo'lmagan holda amalga oshirilishi lozim.

Agar ko'rsatilgan muddatlarda korxonada ishlayotgan xodimlarning mehnat sharoitlari o'zgarmagan bo'lsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan holda va korxonada bo'yicha qabul qilingan buyruqqa (farmoyishi bilan) muvofiq xodimlar uchun yo'riqnomalar amal qilish muddati keyingi davr uchun uzaytiriladi, u haqida yo'riqnomaning birinchi varag'iga tegishli yozuv kiritiladi ("qayta ko'rib chiqildi" deb shtamp, yo'riqnomani qayta ko'rib chiqish uchun mas'ul xodimning imzosi va sana qo'yiladi).

Agar belgilangan muddatlarda vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsern, uyushma va birlashmalar korxonalarida xodimlarning ish o'rinlarida mehnat sharoitlari o'zgarmagan bo'lsa, tegishli kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda buyruq (ko'rsatma) bilan namunaviy yo'riqnomalarning amal qilish muddati namunaviy yo'riqnomaning aslisining sarlavha sahifasida tegishli yozuv qiritgan holda uzaytiriladi.

50. Namunaviy yo'riqnomalar belgilangan muddat tugagunga qadar quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi lozim:

- Respublikaning mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligi qayta ko'rib chiqilganda, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yangi hujjat amalga kiritilganda yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi tarmoqlararo normativ va normativ-texnik hujjatlar qayta ko'rib chiqilganda;

- vakolatli organlar, yuqori turuvchi tashkilotlar, kasaba uyushmalari tashkilotlari va davlat nazorati organlarining ko'rsatmalariga muvofiq;

- yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinganda.

51. Xodimlar uchun yo‘riqnomalar quyidagi hollarda belgilangan muddati tugagunga qadar qayta ko‘rib chiqilishi lozim:

- mazkur nizomning 50-bandida keltirilgan talablarga muvofiq;
- namunaviy yo‘riqnomalar qayta ko‘rib chiqilganda;
- avariya yoki xodimlar shikastlanish holatlari yuzaga kelishi sababli yo‘riqnomalarni qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘lganda;
- texnologik jarayon yoki mehnat sharoitlari o‘zgarganda, shuningdek yangi turdagi uskunalar, materiallar, apparatura, moslamalar va asboblardan foydalanganda.

Ikkinchi holatda yo‘riqnomalarni qayta ko‘rib chiqilishi o‘zgarishlar kiritilishidan oldin amalga oshirilishi kerak.

52. Qayta ko‘rib chiqilgan yo‘riqnomalarni imzolarni rasmiylashtirish, kelishish va tasdiqlash tartibi, yangi ishlab chiqilgan yo‘riqnomalarning tartibi va ushbu Nizomning IV-bo‘limida nazarda tutilgan talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

## **VI. Yo‘riqnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘paytirish va hisobga olish**

53. Tasdiqlangan yo‘riqnomalar korxonaning mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan Yo‘riqnomalarni ro‘yxatga olish jurnalida (4-ilova), mazkur Nizom va yuqori turuvchi tashkilot tomonidan belgilangan tartibga muvofiq qayd etiladi. Ushbu tartib bo‘lmagan taqdirda, u ish beruvchi (korxonah rahbari) tomonidan belgilanadi.

54. Namunaviy yo‘riqnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olish xodimlar uchun yo‘riqnomalar bilan bir hil (4 va 5-ilovalar) tartibda amalga oshiriladi, ularni saqlash tartibi ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

55. Ro‘yxatga olingan yo‘riqnomalar kerakli miqdordagi nusxalarda ko‘paytiriladi (nashr etiladi). Namunaviy yo‘riqnomalarni ko‘paytirish (nashr etish) vazirlik (idora) tomonidan, xodimlar uchun yo‘riqnomalar esa – ish beruvchi (korxonah ma‘muriyati) tomonidan ko‘paytiriladi (nashr etiladi).

56. Yo‘riqnomalarni ko‘paytirish (nashr etish) asl nusxasiga mosligi ta‘minlangan holda har qanday usulda amalga oshirilishi mumkin.

57. Namunaviy yo‘riqnomalar alohida to‘mlamlar yoki kitob shaklida ko‘paytirilishi (nashr etilishi) mumkin.

Xodimlar uchun – qo‘llarga tarqatish uchun kitob, to‘plamlar yoki bir tarafli varaqlar (ish o‘rinlarda yoki ishlab chiqarish uchastkalarda osib qo‘yish uchun) shaklida ko‘paytirilishi (nashr etilishi) mumkin.

58. Yo‘riqnomalar bilan xodimlar, manfaatdor bo‘linmalar (xizmatlar) boshliqlari va korxonaning kasaba uyushmasi ko‘mitasi ta‘minlanishi lozim.

Yo‘riqnomalarning joylashuvi ular bilan tanishishning soddaligi va qulayligini ta‘minlash zurligini hisobga olgan holda bo‘linma (xizmat) rahbari tomonidan belgilanadi:

- xodimlar uchun yo‘riqnomalarni korxonaning bo‘linma (xizmatlar) rahbarlariga mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan Yo‘riqnomalarni tarqatish jurnaliga (5-sonli ilova)qayd etilgandan keyin tarqatiladi;

- korxonaning bo‘linmalar (xizmatlar) rahbarlarida bo‘linmada (xizmatda) barcha kasblar va ishlar bo‘yicha amaldagi yo‘riqnomalarning bir to‘plami, shuningdek korxonaning bosh injeneri tomonidn tasdiqlangan yo‘riqnomalarning ro‘yxati doimiy ravishda saqlanishi lozim;

- har bir uchastka boshlig‘ida (ustada, prorabda va boshqalar) ushbu uchastkada band bo‘lgan barcha kasblar va ishlar turi bo‘yicha amaldagi yo‘riqnomalarning bir to‘plami bo‘lishi kerak;

- xodimlar uchun yo‘riqnomalar o‘rganish uchun birinchi yo‘l-yo‘riqdan o‘tish vaqtida yo‘l-yo‘riqdan o‘tish shaxsiy kartochkasiga imzo qo‘yilgan holda ularning qo‘llariga berilishi mumkin yoki ish o‘rinlarda yohud uchastkalarda osib qo‘yilishi kerak, yoki xodim uchun qulay bo‘lgan ma‘lum bir joyda saqlanishi lozim.

### **3 - amaliy mashg‘ulot: Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish va yetkazilgan zararni to‘lash.**

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblarini o‘rganish, N-1 shakldagi dalolatnomani to‘ldirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma hosil qilish.

#### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblari.
2. N-1 shakldagi dalolatnomani to‘ldirish tartibi.
3. Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish.
4. Baxtsiz hodisalar to‘g‘risida hisobot va ularning kelib chiqishi sabablari tahlili.

**Topshiriq.** Ixtiyoriy tanlangan kasb va jarohatlanish turi uchun N-1 shakldagi dalolatnomani to‘ldiring.

#### **Nazariy qism**

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha baxtsiz hodisalar amalda “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida”gi Nizomda ko‘rsatilgani bo‘yicha tekshiriladi va hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo‘linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko‘rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo‘lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo‘lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

darhol hodisa to‘g‘risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilishi zarur.

Korxonada tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona, poliklinika) bir sutka ichida yordam so‘rab murojaat qilgan xodimlar, shu jumladan, xizmat safaridagi va korxonada

ishlab chiqarish obyektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergan har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

Ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya:

uch ish kuni ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkoni bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotish chora-tadbirlari ko'rsatilgan N-1 shaklidagi dalolatnomani uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko'radi va tekshirish tamom bo'lgandan so'ng uch ish kuni davomida tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomalarni:

jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga hamda tekshirish materiallari bilan birga korxonaning mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga va hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga yuboradi.

N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxonada tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi (2-ilova).

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnoma nusxalarini, kasaba uyushmasi qo'mitasiga yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organlariga, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi yoki O'zenergoinspeksiya organi vakiliga, agar baxtsiz hodisa nazoratdagi tegishli korxonalar (obyektlar)da yuz bergan

bo'lsa, yuqori turuvchi xo'jalik organiga, tegishli vazirlik (xo'jalik boshqaruvi organlari)ga ham ularning talablariga muvofiq yuborishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga tekshirish materiallari bilan yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma 45 yil davomida saqlanishi lozim. Boshqa joylarga yuborilgan tekshirish materiallari, N-1 shaklidagi dalolatnomalar va uning nusxalari ehtiyoj yo'qolguncha saqlanadi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlarini rejalashtirishning ilmiy asosi mehnat xavfsizligini oldindan aytib berishdir.

Korxonada va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta'siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek tabiiy ofatlar (zilzilalar, o'pirilishlar, suv toshqinlari, to'fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

o'z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek avariylarning, odamlar halok bo'lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo'lsa ham, korxonada manfaatlarini ko'zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;

xodim xizmat safarida bo'lgan yoki o'z funksional vazifalarini bajarish vaqtida — yo'l-transport hodisasidagi, temir yo'l, havo yo'llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;

ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo'ljallangan transportda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq o'zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;

ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug'i mavjud bo'lgandagi;

ish beruvchining topshirig'ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek mehnat faoliyati xizmat ko'rsatish obyektlari

orasida yurish bilan bog'liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;

tadbirlarning o'tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat'i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, ko'ngilli yong'in muhofazasi musobaqalari o'tkazilayotgandagi, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo'yicha korxonadan otaliq yordami ko'rsatilayotgandagi;

ichki ishlar organlarining ma'lumotlari asosida — ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;

smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

Tabiiy o'lim, o'zini o'zi o'ldirish, jabrlanuvchining o'z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari (sud-tibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma'lumotlariga ko'ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

**“TASDIQLAYMAN”**

Ish beruvchi

\_\_\_\_\_

(imzo, imzo yoyilmasi)

20 \_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_

korxonada muhri

N-1 shakli

Bir nusxadan yuboriladi:

— jabrlanuvchiga (o'lgan bo'lsa oilasiga);

— mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga;

— hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga

**DALOLATNOMA № \_\_\_\_\_**

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va salomatlikka boshqa xil zarar yetkazilishi to'g'risida**

1. Korxonaning nomi \_\_\_\_\_

1.1. Korxonaning manzili \_\_\_\_\_

(viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

1.2. Mulkchilik shakli \_\_\_\_\_

(davlat, aksiyadorlik, xususiy va hokazo)

1.3. Baxtsiz hodisa yuz bergan joy \_\_\_\_\_

(bo'linma, sex)

2. Vazirlik, xo'jalik boshqaruvi organi \_\_\_\_\_

3. Xodimni yo'llagan korxonasi \_\_\_\_\_

(nomi, manzili, vazirlik)

4. Jabrlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(xo'jalik boshqaruvi organi)

5. Jinsi: erkak, ayol (tagiga chizilsin)

6. Yoshi (to'liq yillar soni ko'rsatilsin) \_\_\_\_\_

7. Kasbi, lavozimi \_\_\_\_\_

7.1. Razryadi, klassi \_\_\_\_\_

8. Baxtsiz hodisa yuz berganda bajarilayotgan ish bo'yicha ish staji \_\_\_\_\_

9. Mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma, o'qitish:

9.1. Kirish yo'riqnomasi (sana) \_\_\_\_\_

9.2. Mehnat xavfsizligi bo'yicha o'qitish (sana) \_\_\_\_\_

9.3. Dastlabki (davriy) yo'riqnoma (sana) \_\_\_\_\_

9.4. O'ta xavfli ishlar uchun bilimlarni tekshirish (sana) \_\_\_\_\_

9.5. Ishga kirayotganida va davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi \_\_\_\_\_

10. Baxtsiz hodisa yuz bergan sana va vaqt \_\_\_\_\_

(yil, kun, oy) (ish boshlashdan to'liq soatlar soni)

11. Baxtsiz hodisa holati \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

11.1. Baxtsiz hodisa sabablari \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

11.2. Jarohat yetkazilishga sabab bo'lgan asbob-uskuna \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

11.3. Jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta'siridaligi) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(tibbiy xulosaga binoan)

11.4. Tashxis \_\_\_\_\_

(dastlabki, oxirgi)

12. Baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish tadbirlari:

No	Tadbirlar nomi	Bajarish	Bajaruvchi	Bajarish haqida
----	----------------	----------	------------	-----------------

		muddati		belgi

13. Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va meyorlari buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslar

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., lavozimi, korxonasi nomi)

\_\_\_\_\_

(ular tomonidan buzilgan qonunlar, qoidalar va

\_\_\_\_\_

meyoriy hujjatlarning moddalari, bandlari)

14. Baxtsiz hodisa guvohlari \_\_\_\_\_

Dalolatnoma tuzildi \_\_\_\_\_

(yil, kun, oy)

Komissiya raisi \_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

Komissiya a‘zolari \_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.SH., imzo)

### 3. Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish

1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish — mazkur Nizomga muvofiq maxsus tekshirish komissiyasi tomonidan guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga qaratilgan tekshiruv.

Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

bir vaqtning o‘zida ikki va undan ziyod xodimlar bilan salomatlikka yetkazilgan zararning og‘irligi darajasidan qat’i nazar, yuz bergan guruhli baxtsiz hodisalar;

oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir baxtsiz hodisalar;

o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar.

2. Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisa to‘g‘risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan (3-ilova) quyidagilarga xabar berishi kerak:

hududiy mehnat organining davlat mehnat inspeksiyasiga;

yuqori turuvchi xo‘jalik organiga;

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga;

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining mahalliy organiga va «O‘zenergoinspeksiya»ning hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxonada yuz bergan bo‘lsa;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga.

3. Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish maxsus vakolatli organ bilan oldindan kelishilmagan va xabardor etmagan holda maxsus tashkil etilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.

Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va uch kishigacha o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisani hududiy mehnat organi buyrug‘iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya maxsus tekshiradi;

rais — hududiy mehnat organining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori yoki O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi vakili yoxud «O‘zenergoinspeksiya» vakili nazorati ostidagi korxonada (obyekt) bo‘yicha;

a‘zolar — yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili, ish beruvchi, II bo‘limning 7, 10, 11, 12 va 13-kichik bandlarida ko‘zda tutilgan hollarda jabrlanuvchining asosiy ish joyi kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxonada xodimlarining boshqa vakillik organi raisi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchining vakili.

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki «O‘zenergoinspeksiya» organi nazorati ostidagi korxonada (obyekt)larda yuz bergan guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisani tegishli hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki «O‘zenergoinspeksiya» respublika yoki mahalliy organlari buyrug‘i asosida tuzilgan

komissiya yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili ishtirokida tekshiradi. Komissiya raisi qilib shu organ vakili tayinlanadi. Komissiya tarkibiga mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektor kiradi.

Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar yuz berganda, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari tarkibida ish beruvchining buyrug‘i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan N-1 shaklidagi dalolatnoma maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan so‘ng bir kun ichida komissiya xulosalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

uch nafardan o‘n bir nafargacha inson sabab bo‘lgan baxtsiz hodisani maxsus tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qaroriga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya tomonidan o‘tkaziladi:

rais — O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori;

a‘zolar — yuqori turuvchi organ rahbarlaridan biri, ish beruvchi, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki tashkilot xodimlarining boshqa vakillik organi raisi.

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki «O‘zenergoinspeksiya» nazorati ostida bo‘lgan tashkilot (obyekt)dagi baxtsiz hodisa Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki «O‘zenergoinspeksiya» organining buyrug‘i asosida tuzilgan komissiya tomonidan yuqori turuvchi organ rahbari ishtirokida tekshiriladi. Komissiya raisi etib Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki «O‘zenergoinspeksiyasi» organi rahbarlaridan biri tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori komissiya tarkibiga kiritiladi.

O‘n bir nafar va undan ortiq insonning o‘limiga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisalar Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.

4. Maxsus tekshirish komissiyasi 15 kun mobaynida baxtsiz hodisani tekshirib chiqadi, korxonada (bo‘linma, sex)dagi mehnatni muhofaza qilish ahvolini,

agar zarur bo'lsa, tarmoqning boshqa korxonalarida ham tekshirishni tashkil etadi, maxsus tekshirish dalolatnomasini tuzadi (4-ilova) hamda III bo'limning 7-bandida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Komissiya a'zolari jabrlanuvchilar yoki ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil etadilar, zarur bo'lsa tegishli organlarga takliflar kiritadilar yoki ijtimoiy tUSDagi yordam masalalarini joyida hal qiladilar, jabrlanuvchiga yoki o'lganning oila a'zolariga ularning huquqlarini tushuntiradilar.

5. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektori maxsus tekshirish komissiyasi chiqargan xulosalardan norozi bo'lsa, shuningdek, u zarur deb hisoblagan boshqa hollarda o'z xulosasini chiqaradi (5-ilova).

Komissiya a'zosi maxsus tekshirish o'tkazayotgan komissiya xulosasidan norozi bo'lganda o'zining alohida fikrini bildirishi mumkin.

6. Maxsus tekshirish komissiyasi talabiga ko'ra ish beruvchi:

baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etish uchun o'zlarining oralaridan ekspert guruhi tuzish mumkin bo'lgan ekspert-mutaxassislarni taklif qilishi;

texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari, sinovdan o'tkazish va boshqa ishlarni amalga oshirishi;

baxtsiz hodisa yuz bergan joyni suratga olishi va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etishi;

tekshirish uchun zarur bo'lgan transport va aloqa vositalari, maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi;

komissiya a'zolari ishlashi uchun ularga jihozlangan alohida xona ajratib berishi;

baxtsiz hodisani maxsus tekshirish materiallarini mashinkada yozishni va yetarli miqdorda ko'paytirishni ta'minlashi shartdir.

Texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari sinovdan o'tkazish va taklif qilingan mutaxassislar amalga oshirayotgan boshqa ishlar, shuningdek, transport va aloqa vositalari xarajatlarini baxtsiz hodisa yuz bergan korxonaga to'laydi.

Komissiya a'zolari tekshirish davomida ish beruvchidan, korxonada va uning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, guvohlar va boshqa shaxslardan yozma va og'zaki tushuntirishlar olishga haqlidirlar.

*Izoh: Ekspert guruhi tekshirish komissiyasi raisining farmoyishiga muvofiq tuziladi. Ekspert xulosasini talab qiluvchi masalalar va ekspert guruhi xulosasi bo'lgan materiallar yozma ravishda rasmiylashtiriladi.*

7. Maxsus tekshirish materiallariga quyidagilar kiradi:

maxsus tekshirish dalolatnomasi;

har bir jabrlanuvchiga alohida tuzilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma;

rejalar, sxemalar, tekshirish protokoli va baxtsiz hodisa yuz bergan joyning fotosuratlari;

yo'l-transport hodisasi yuz bergan joy sxemasi;

so'roqlar protokoli, jabrlanuvchining va baxtsiz hodisani ko'rgan guvohlar va boshqa aloqador shaxslarning, shuningdek, GOST, SSBT standartlari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va meyorlariga rioya qilinishiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning tushuntirishlari, ekspert guruhi tuzish to'g'risidagi farmoyish va boshqalar;

jabrlanuvchilarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitilganligi va yo'riqnomalar olganligi haqidagi qayd daftarlaridan ko'chirmalar;

jabrlanuvchiga yetkazilgan jarohatning xususiyati va og'irligi, o'limi sabablari to'g'risidagi tibbiy xulosa;

ekspert guruhining (zarur bo'lganda) baxtsiz hodisa sabablari haqidagi xulosasi, laboratoriya va boshqa tadqiqotlar, tajribalar, tahlillar va hokazolarning natijalari;

avariya tufayli ko'rilgan moddiy zarar haqidagi ma'lumotnoma;

maxsus tekshirish komissiyasi tuzish haqidagi buyruq yoki qaror;

yo'riqnomalar, nizomlar, buyruqlardan va mehnat xavfsizligi meyorlarini va unga mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilovchi boshqa dalolatnomalardan ko'chirmalar;

korxonada (bo'linma, sex)da mehnatni muhofaza qilish holatini tekshirish to'g'risidagi maxsus tekshirish komissiyasining dalolatnomasi;

zarur bo'lgan hollarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektorining xulosasi.

o'rtacha oylik ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma — yetkazilgan zararni qoplash summasini hisoblab chiqish uchun;

boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi buyruq nusxasi — o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuz berganda.

8. Maxsus tekshirish tugagandan so'ng o'n besh kun mobaynida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat mehnat texnik inspektori, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi qo'mitasi organi yoki «O'zenergoinspeksiya» organi nazoratchisi tekshirish materiallarini:

guruhli, oqibati o'rtacha og'ir yoki og'ir va o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga yuboradi;

maxsus tekshirish bo'yicha barcha materiallarning nusxalarini hududiy mehnat organiga, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, shuningdek, tegishli boshqaruv organi, tashkilotga va jabrlangan xodimni yuborgan tashkilotga yuboradi;

Agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi tashkilot (obyekt)da yuz bergan bo'lsa, maxsus tekshirish materiallari nusxalari O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi yoki «O'zenergoinspeksiya» organiga yuboriladi.

9. Baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada ish beruvchisi (yuqori turuvchi xo'jalik organi rahbari) maxsus tekshirish materiallarini zudlik bilan ko'rib chiqishga, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etish to'g'risida komissiya taklif qilgan chora-tadbirlarni bajarish haqida, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha lavozimi va kasbiga oid vazifalarning bajarilmasligi (buzilishi)ga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish haqida buyruq chiqarishga majburdir.

Ish beruvchi maxsus tekshirish komissiyasi taklif qilgan chora-tadbirlarning bajarilganligi haqida maxsus tekshirish o'tkazishni boshqargan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektoriga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi yoki O'zenergoinspeksiya organining

obyektlar nazorati ostida bo'lgan mahalliy organlariga yozma ravishda axborot beradi.

10. Agar jabrlanuvchi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotgan davrda shu baxtsiz hodisa sababli o'lib qolsa, ish beruvchi bu haqda darhol mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektoriga va ushbu Nizomning III bo'limi **2-bandida** ko'rsatilgan tashkilotlarga xabar berishga majburdir.

Ushbu baxtsiz hodisa o'lim sodir bo'lgan vaqtdan boshlab o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa sifatida hisobga olinishi kerak.

### **1. JABRLANUVCHI (JABRLANUVCHILAR) HAQIDA MA'LUMOTLAR**

Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, kasbi, lavozimi, umumiy va kasb bo'yicha (shu jumladan, ushbu korxonadagi) ish staji, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish, yo'riqnomalar berish, bilimlarni tekshirish vaqti, jabrlanuvchining oilaviy ahvoli, qaramog'idagi oila a'zolari haqidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi) tug'ilgan yili, jabrlanuvchi bilan qarindoshlik munosabatlari).

### **2. KORXONA, BO'LINMA, SEX, ISH JOYINING TAVSIFI**

Baxtsiz hodisa yuz bergan joyni qisqacha tavsiflab, jabrlanuvchiga qaysi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatish kerak.

Agar baxtsiz hodisa obyektidagi halokat natijasida yuz bergan bo'lsa, dalolatnomaga quyidagilar qo'shimcha qilib kiritiladi:

obyekt tavsifi (qozonlar va ko'tarma inshootlar obyektlari uchun obyekt nomi va xili, uning asosiy o'lchovlari, zavod bergan tartib raqami, tayyorlovchi zavod, tayyorlangan va o'rnatilgan yili, so'nggi tekshiruvdan o'tgani, shuningdek, tayinlangan tekshiruvdan o'tish muddati);

halokat toifasi va tavsifi haqida ma'lumotlar;

nobud bo'lgan mahsulotlar (natura ifodasida va so'm hisobida), halokat natijasida yetkazilgan zarar (so'm hisobida).

### **3. BAXTSIZ HODISANING SHART-SHAROITLARI**

Baxtsiz hodisa yuz berishigacha nimalar bo'lgani, mehnat jarayoni qanday kechgani, bu jarayonga kim boshchilik qilganini ko'rsatish, jabrlanuvchi

(jabrlanuvchilar) va baxtsiz hodisaga aloqador bo'lgan boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini tavsiflash, voqealar izchilligini bayon qilish, jarohatlanishga sabab bo'lgan xavfli (zararli) ishlab chiqarish omili, mashina, asbob yoki uskunani ko'rsatish zarur.

#### **4. BAXTSIZ HODISA SABABLARI**

Baxtsiz hodisaning asosiy texnik va tashkiliy sabablarini ko'rsatish, mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va meyorlari, lavozim yo'riqnomalari, ishlarni bexatar olib borish bo'yicha meyor va yo'riqnomalarning aniq qaysi talablari buzilganligini (tegishli moddalar, bandlarga havola qilingan holda), shuningdek, davlat andozalari buzilganini bayon qilish, qaysi xavfli va zararli ishlab chiqarish omili belgilangan meyor va darajalardan oshib ketganligini ko'rsatish kerak.

#### **5. BAXTSIZ HODISA SABABLARINI, ANIQLANGAN MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARI VA MEYORLARI BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI**

Komissiya taklif etgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:  
baxtsiz hodisali halokat oqibatlarini yo'qotish choralari;

baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish va yana shunday hodisa yuz berishining oldini olish choralari;

ular ilova qilinayotgan shakldagi jadval yoki matnda chora-tadbirlar mazmuni, bajarish muddati va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan holda bayon qilinishi mumkin.

Chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarilishiga mas'ul

## **6. KOMISSIYANING MEHNAT QONUNCHILIGI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARI VA MEYORLARI BUZILISHIGA YO‘L QO‘YGAN SHAXSLAR TO‘G‘RISIDAGI XULOSASI**

Bu bo‘limda xatti-harakatlari yoki harakatsizliklari baxtsiz hodisa (baxtsiz hodisali halokat)ga olib kelgan javobgar shaxslar nomini ko‘rsatish, ular rioya qilmagan, belgilangan tartibda tasdiqlangan qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qoidalar va meyoriy hujjatlar, lavozim yo‘riqnomalari va boshqa meyoriy hujjatlar moddalari, bandlari ko‘rsatilishi kerak. Tekshirish komissiyasi tomonidan javobgar shaxslarga nisbatan jazo choralari yuzasidan takliflar qilinadi. Taklif etilgan jazo choralari jinoiy javobgarlikdan (vujudga kelgan taqdirda) ozod qilmaydi. Maxsus tekshirish dalolatnomasida komissiya a‘zolari jabrlanuvchi(lar) yoki ularning oila a‘zolari bilan uchrashganlari, moddiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy tushadagi masalalarni joyida ko‘rib chiqqanlari, mavjud qonunchilikka muvofiq ularning qonuniy huquqlarini tushuntirib berganlari yozilishi kerak.

Maxsus tekshirish dalolatnomasining yakuniy qismida Nizomning III bo‘limi **7-bandiga** muvofiq ilova qilinayotgan materiallar ro‘yxati beriladi.

Komissiya raisi \_\_\_\_\_

*(F.I.SH., sana, imzo)*

Komissiya a‘zolari \_\_\_\_\_

*(F.I.SH., sana, imzo)*

### **4. Baxtsiz hodisalar to‘g‘risida hisobot va ularning kelib chiqishi sabablari tahlili**

1. N-1 shaklidagi dalolatnoma bo‘yicha rasmiylashtirilgan barcha baxtsiz hodisalar hisobotga hamda uch ish kuni ichida «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladi.

2. N-1 shaklidagi dalolatnomalar asosida ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar chog‘ida jabrlanuvchilar to‘g‘risida statistika organi tasdiqlagan shakllarda hisobot tayyorlaydi va uni tegishli tashkilotlarga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Shuningdek, jabrlanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar ish beruvchi tomonidan «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilishi lozim.

3. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishi, ularning mehnat jamoasida ko'rib chiqilishini ta'minlashi va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartdir.

4. Boshqaruv organlari barcha baxtsiz hodisalarning hisobini va tahlilini olib boradi, uni o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotlarga ma'lumot uchun yuboradi. Tegishli kasaba uyushmasi yoki boshqa vakillik organi bilan kelishilgan holda baxtsiz hodisalarning oldini olishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

5. O'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuqori turuvchi kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan birgalikda yuqori turuvchi xo'jalik organlarida va O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi va «O'zenergoinspeksiya» hay'atida (agar baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi obyektida yuz bergan bo'lsa) mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektori ishtirokida muhokama qilinadi.

6. Ikki va undan ziyod kishi halok bo'lgan baxtsiz hodisa Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay'atida, viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasi kengashida, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi yoki «O'zenergoinspeksiyasi» hay'atida, baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi korxonada yuz bergan bo'lsa, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori ishtirokida ko'rib chiqiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay'ati, viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasi kengashi chiqargan qaror bajarilishi shartdir.

7. Baxtsiz hodisa yuzasidan maxsus tekshirish olib borayotgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektorining talabiga binoan hududiy ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash organlari (sud-tibbiy ekspertiza), yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati, yong'in xavfsizligi davlat xizmati 3 sutkadan

kechiktirmay, baxtsiz hodisaga taalluqli hujjatlar va materiallar nusxalarini taqdim etishlari shartdir.

8. Hududiy ichki ishlar organlari Davlat mehnat inspeksiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga hamda «O‘zenergoinspeksiya»ga ishning borishi to‘g‘risida axborot berib turadi.

9. Ushbu Nizomni buzishda ayblanuvchilar mavjud qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

#### **4- amaliy mashg‘ulot: Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish natijalarini rasmiylashtirish tartibi**

**Ishdan maqsad:** Attestatsiya natijalari attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot tomonidan attestatsiya to‘g‘risidagi hisobot shaklida rasmiylashtirish.

Attestatsiya natijalari attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot tomonidan attestatsiya to‘g‘risidagi hisobot shaklida rasmiylashtiriladi, unga:

- attestatsiya komissiyasini tashkil etish va attestatsiya bo‘yicha ishlarni bajarish jadvalini tasdiqlash to‘g‘risidagi buyruq;

- attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari ro‘yxati;

- o‘lchashlar protokollari bilan birgalikda mehnat sharoitlari xaritalari;

- ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi natijalari yig‘ma vedomosti;

- attestatsiya natijalari bo‘yicha belgilangan mehnat sharoitlari darajalarining yig‘ma jadvali hamda shu munosabat bilan xodimlarga belgilanishi zarur bo‘lgan kafolatlar va preferensiyalar;

- mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog‘lomlashtirish tadbirlari rejasi;

- mehnat organlarining ijobiy xulosasi;

- attestatsiya komissiyasining yakuniy (oraliq-yakuniy) majlisi (majlislari) protokoli (protokollari);

- attestatsiyadan o‘tkazuvchi tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan sinov laboratoriyasining akkreditatsiya attestati nusxasi.

Attestatsiya komissiyasi attestatsiya to'g'risidagi hisobot tushgan sanadan boshlab o'n kalendar kun mobaynida:

- attestatsiya to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqadi va uni tasdiqlash uchun korxonaga rahbariga kiritadi;
- ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilgan xodimlarni tilxat ostida ish o'rinlari attestatsiyasining natijalari bilan tanishtiradi;
- jamoa shartnomasi va jamoa bitimiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi.

Korxonaga rahbari attestatsiya to'g'risidagi hisobot tushgan sanadan boshlab o'n ish kuni mobaynida attestatsiyaning tugaganligi va attestatsiya to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash to'g'risida yozma qaror qabul qiladi.

«TASDIQLAYMAN»

Korxonaga rahbari lavozimining nomi

(imzo, familiyasi, atasining ismi)

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_

Korxonaning nomi			
Yuqori turuvchi korxonaga			
Yuridik manzili			
Asosiy mahsulot turi			
<b>STIR</b>		<b>IFUT</b>	<b>MXBT</b>

### MEHNAT SHAROITLARI YUZASIDAN ATTESTATSIYADAN O'TKAZILADIGAN ISH O'RINLARI RO'YXATI

Ishlovchilar soni	Shunda n ayollar	Baholanayotgan omillar													Mehnat og'irligi	Mehnat zo'riqligi (g'ayratliligi)	Shikastlanish xavfliligi
		ta'sir qilish vaqti soatlarda (smena davomiyligiga nisbatan foizda)															
		kimyoviy (zararli moddalar)	biologik	fizik													
				shovqin	infratovush	havodagi ultratovush	umiy vibratsiya	mahalliy vibratsiya	elektromagnit maydonlar va nurlanish	ion hosil qiluvchi nurlanish	mikroiqlim	yorug'lik muhiti	ultrabi nurlanish	lazer nurlanish			
<i>(tarkibiy bo'linma nomi ko'rsatiladi)</i>																	

**Attestatsiya komissiyasi raisi**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F.I.O.) (sana)

**Attestatsiya komissiyasi a'zolari:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F.I.O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F.I.O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F.I.O.) (sana)

**Zararli moddalar va ustuvor fibrogenli ta'sirga ega aerozollar RO'YXATI\***

<b>Moddaning nomi</b>	<b>Chegaraviy konsentratsiya miqdori, mg/kub. m.</b>	<b>Ishlab chiqarish sharoitida havodagi ustuvor agregat holati</b>	<b>Xavflilik klassi</b>	<b>Organizmga ta'sir qilish xususiyatlari</b>

**Attestatsiya komissiyasi raisi**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I.O.) (sana)

**Attestatsiya komissiyasi a'zolari:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

**O'lchamli kimyoviy moddalar va ustuvor fibrogenli ta'sirga ega aerozollarning ish o'rinlari bo'yicha**



T/R	Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari	Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)	Haqiqiy darajasi (o'lchami)	Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)	Mehnat sharoitlari klassi
<b>1. 1. Zararli moddalar, mg/kub. m</b>					
1.	1-2 klass xavflilikka ega zararli moddalar, quyida ko'rsatilganlardan tashqari				
2.	3-4 klass xavflilikka ega zararli moddalar, quyida ko'rsatilganlardan tashqari				
3.	Qo'zg'atish ta'sir kuchiga ega, o'tkir yo'naltirilgan mexanizimli ta'sir etuvchi, o'tkir zaharlanishning rivojlanishiga olib keluvchi xavfli moddalar				
1.	Allergenlar				
2.	Uzaytirilgan ta'sir kuchiga ega kanserogenlar, mutagenlar va boshqalar				
3.	Aerozollar, asosan fibrogen ta'siriga ega				
4.	O'smaga qarshi dorivor vositalar, gormonlar (estrogenlar)				
5.	Narkotik analgetiklar				
<b>1. 2. Biologik omillar</b>					
1.	O'ta xavfli infeksiyalarning patogen mikroorganizmlari				
2.	Boshqa yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi patogen mikroorganizmlar				
3.	Tarkibida tirik hujayra va mikroorganizmlar sporalari bor mikroorganizmlar — produsentlar, preparatlar; (RECHKdan oshib ketishi, marotaba)				
4.	Oqsil preparatlari (RECHKdan oshib ketishi, marta)				
5.	Diagnostika va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida odamlar va				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
	hayvonlardan materiallarni, shuningdek o'limtik materiallarni o'rganish ishlarida				
<b>1. 3. Shovqin, infratovush, ultratovush, tebranish darajasi</b>					
<b>1.</b>	Har qanday oktava chig'idagi tovush bosimining RECHD maksimal oshib ketgan shovqin, dB				
<b>2.</b>	Shovqin tovush darajasi, ekvivalent tovush darajasi, dBA				
<b>3.</b>	Har qanday oktava chig'idagi tovush bosimining RECHD maksimal oshib ketgan infratovush, dB				
<b>4.</b>	Chastotalari 1/3 oktava chiziqlaridagi RECHD oshib ketgan havoli ultratovush, dB				
<b>5.</b>	Kontaktli ultratovush: vibrotezlik, m/sek; vibrotezlikning logarifmik darajasi, dB				
<b>6.</b>	Vibrotezlik bo'yicha har qanday oktava chizig'idagi RECHD maksimal oshib ketgan lokal tebranish, dB				
<b>7.</b>	Lokal tebranish vibrotezlikning ekvivalent to'g'rilangan darajasi, dB				
<b>8.</b>	Vibrotezlik bo'yicha har qanday oktava chizig'idagi RECHD maksimal oshib ketgan umumiy tebranish, dB				
<b>9.</b>	Umumiy tebranish vibrotezlikning ekvivalent				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
	to'g'rilangan darajasi, dB				
<b>1.</b>	Aeroionlar (1 kub. sm havodagi ionlar soni) minimal zaruriy daraja yoki maksimal ruxsat etilgan daraja				
<b>1. 4. Ionlanmagan elektromagnit maydonlari va nurlanishlarning ta'siri</b>					
<b>2.</b>	Doimiy magnit maydoni, kA/m				
<b>3.</b>	Elektrostatik maydon, kV/m				
<b>4.</b>	Sanoat chastotali (50GS) elektr maydonlari, kV/m				
<b>5.</b>	Sanoat chastotali (50 Gs) magnit maydonlari, kA/m				
<b>6.</b>	0. 01-0. 03MGs radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m				
<b>7.</b>	0. 03-3. 0 MGs radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m				
<b>8.</b>	3. 0-30. 0 MGs radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m				
<b>9.</b>	30. 0 — 300. 0 MGs radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, V/m				
<b>10</b>	300. 0 MGs — 300. 0 GGs radiochastotali diapazonda elektromagnitli nurlanishlar, mkVt/kv. sm				
<b>11.</b>	Radiochastotali diapazonda VDT va PEXM yuzaga keltiradigan elektromagnitli nurlanishlar, V/m				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

T/R	Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari	Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)	Haqiqiy darajasi (o'lchami)	Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)	Mehnat sharoitlari klassi
<b>1. 5. Optik diapazonda ionlanmagan elektromagnit nurlanishlar</b>					
1. 5. 1	Lazer nurlanish				
1. 5. 2	Ultrabinafsha nurlanish: UB-A, UB-V, UB-S nurlanish spektrlari doiralari uchun, Vt/kv. m				
<b>1.6. Yilning iliq davridagi ishlab chiqarish xonalari va ochiq hududlar uchun mikroiklim</b>					
1.	Havo harorati, °S				
2.	Havo harakati tezligi, m/s				
3.	Havoning nisbiy namligi, %				
4.	Issqlik tarqalishi, Vt/kv. m				
<b>1.7. Yilning iliq davridagi issiq mikroiklimli ishlab chiqarish xonalari va ochiq hududlar uchun WBGT-indeksi (°S)</b>					
1.	Ia — 68(58-77), Vt/m				
2.	Ib — 88(78-97), Vt/m				
3.	IIa — 113(98-129), Vt/m				
4.	IIb — 145(130-160), Vt/m				
5.	III — 177(161-193), Vt/m				
<b>1. 8. Yilning iliq davridagi ishlab chiqarish xonalari uchun mikroiklim</b>					
1.	Havo harorati, °S, Ia — kategoriyali ishlar uchun				
2.	Havo harorati °S, Ib — kategoriyali ishlar uchun				
3.	Havo harorati, °S, IIa — kategoriyali ishlar uchun				
4 1.	Havo harorati, °S, IIb — kategoriyali ishlar uchun				
2.	Havo harorati, °S, III — kategoriyali ishlar uchun				
3.	Issqlik tarqalishi, Vt/kv. m				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
4.	Havo harakati tezligi, m/s				
5.	Havoning nisbiy namligi, %				
<b>1. 9. Yilning sovuq davridagi ishlab chiqarish xonalari uchun mikroiklim</b>					
1.	Havo harorati, °S, Ia — kategoriyali ishlar uchun				
2.	Havo harorati °S, Ib — kategoriyali ishlar uchun				
3.	Havo harorati, °S, IIa — kategoriyali ishlar uchun				
4.	Havo harorati, °S, IIb — kategoriyali ishlar uchun				
5.	Havo harorati, °S, III — kategoriyali ishlar uchun				
6.	Issiqlik tarqalishi, Vt/kv. m				
7.	Havo harakati tezligi, m/s				
8.	Havoning nisbiy namligi, %				
<b>1. 10. Yilning sovuq davridagi (qish) ochiq hududlar, isitilmaydigan va texnologik meyorlar bo'yicha sovutiladigan xonalar uchun mikroiklim</b>					
1.	Havo harorati, °S				
<b>1. 11. Ishlab chiqarish xonalarining yorug'lik muhiti</b>					
2.	Tabiiy yorug'lik (KEO, %)				
3.	Qo'shimcha yorug'lik (KEO, %)				
4.	Sun'iy yoritilishida ish joyi yuzasidagi yorug'lilik, (YE, lk)				
5.	Yorug'lik manbaining ko'zni qamashtiradigan yarqirashi (ko'zni qamashtirish ko'rsatkichi, R, nisbiy birlik)				
1.	Qaytarilgan yarqirashlik				
2.	Yoritilganlik pulsatsiyasi (yoritilganlik pulsatsiyasi ko'effitsiyenti, Kp, %)				
<b>1. 12. Ionlangan nurlanish</b>					

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
<b>1.</b>	Ionlangan nurlanish, effektli doza				
<b>1. 13. Atmosfera bosimi darajasi</b>					
<b>1.</b>	Ko'tarilgan (atm)/GPa				
<b>2.</b>	Pasaygan (m dengiz sathidan)/GPa				
<b>1. 14. Mehnat jarayonining og'irligi</b>					
<b>1.</b>	Bir smenadagi tashqi mexanik ish birliklarida ifodalangan jismoniy dinamik og'irlik, kg. m.				
<b>2.</b>	Bir smenadagi tashqi mexanik ish birliklarida ifodalangan jismoniy dinamik og'irlik, kg. m. , mintaqaviy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari va yelka poyasi ishtirokida), yukni 1 metrgacha olib borishda				
<b>3.</b>	Bir smenadagi tashqi mexanik ish birliklarida ifodalangan jismoniy dinamik og'irlik, kg. m. , umumiy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari, korpus, oyoq ishtirokida), yukni 1 metrdan 5 metrgacha olib borishda				
<b>1.</b>	Bir smenadagi tashqi mexanik ish birliklarida ifodalangan jismoniy dinamik og'irlik, kg. m. , umumiy og'irlikda (asosan qo'l mushaklari, korpus, oyoq ishtirokida), yukni 5 metrdan ko'p masofaga olib borishda				
<b>2.</b>	Qo'lda ko'tariladigan va tashib o'tiladigan yukning og'irligi				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
	(massasi), kg. Boshqa ish bilan almashgan holda (marotabali) yukni ko'tarish va tashib o'tish (soatiga 2 martagacha)				
<b>3.</b>	Qo'lda ko'tariladigan va tashib o'tiladigan yukning og'irligi (massasi), kg. Doimiy ish smenasida (marotabali) yukni ko'tarish va tashib o'tish.				
<b>4.</b>	Qo'lda ko'tariladigan va tashib o'tiladigan yukning og'irligi (massasi), kg. Smenaning har soati davomida poldan, ish joyining yuzasidan tashib o'tiladigan yuklarning jami og'irligi (massasi).				
<b>5.</b>	Qolipli (stereotip) ish harakatlari (smenadagi miqdori). Lokal og'irlikdagi (qo'l panjasi va barmoqlar mushaklari ishtirokida)				
<b>6.</b>	Qolipli (stereotip) ish harakatlari (smenadagi miqdori). Regional og'irlikdagi (asosan yelka va qo'l mushaklari ishtirokidagi ishlarda).				
<b>1.</b>	Statik og'irlik. Smenada yukni ko'tarib turgan holatda statik og'irlikning o'lchami, zo'r berish, kgs — bir qo'l bilan				
<b>2.</b>	Statik og'irlik. Smenada yukni ko'tarib turgan holatda statik og'irlikning o'lchami, zo'r berish, kgs — ikki qo'l bilan				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
<b>3.</b>	Statik og'irlik. Smenada yukni ko'tarib turgan holatda statik og'irlikning o'lchami, zo'r berish, kgs — gavda va oyoqlar mushaklari ishtirokida				
<b>4</b>	Ishlash holati				
<b>5</b>	Gavdani engashtirish (smenada marotaba)				
<b>6</b>	Gorizontal chiziq bo'ylab keng sathda harakatlanish (smena davomida texnologik jarayon bilan bog'liq holda), km				
<b>7</b>	Vertikal chiziq bo'ylab keng sathda harakatlanish (smena davomida texnologik jarayon bilan bog'liq holda), km				
<b>1. 15. Mehnat jarayonining diqqat talabligi</b>					
<b>1.</b>	Intellektual og'irlik: ishning mazmuni				
<b>2.</b>	Intellektual og'irlik: signallarni (ma'lumotlarni) qabul qilish (idrok qilish) va ularni baholash				
<b>3.</b>	Intellektual og'irlik: topshiriqning murakkablik darajasi				
<b>4.</b>	Intellektual og'irlik: bajarayotgan ishning xarakteri				
<b>5.</b>	Sensor og'irlik: e'tiborni jamlash davomiyligi (smenadagi vaqtning foizi)				
<b>6.</b>	Sensor og'irlik: 1 soat ish vaqtidagi signallarning va xabarlarining zichligi (yorug'lik,				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
	tovushli)				
<b>7.</b>	Sensor og'irlik: baravar kuzatib turadigan ishlab chiqarish obyektlarning soni				
<b>8.</b>	Sensor og'irlik: ko'rish analizatoriga tushadigan og'irlik: farqlash obyektining farqlash o'lchami (ishlayotganning ko'zlaridan farqlash obyektigacha bo'lgan ko'pi bilan 0.5 m masofadagi), mm kuzatuvga e'tiborni jamlangan holdagi davomiyligi (smenadagi vaqtning foizi)				
<b>1.</b>	Sensor og'irlik: ko'rish analizatoriga tushadigan og'irlik: optik asboblardan ishlashda (mikroskoplar, lupalar va boshqalar) kuzatuvga e'tiborni jamlash davomiyligi (smenadagi vaqtning foizi)				
<b>2.</b>	Sensor og'irlik: ko'rish analizatoriga tushadigan og'irlik: videoterminallar ekranlari orqali uzluksiz kuzatish (smenada, soat)				
<b>3.</b>	Sensor og'irlik: eshitish analizatoriga og'irlik (ishlab chiqarish zarurati tufayli so'zlashish yoki farq qilingan (differentsiyalangan) signallarni idrok etish				
<b>4.</b>	Sensor og'irlik: tovushlagich apparatiga og'irlik (soatlarning				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

<b>T/R</b>	<b>Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari</b>	<b>Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)</b>	<b>Haqiqiy darajasi (o'lchami)</b>	<b>Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)</b>	<b>Mehnat sharoitlari klassi</b>
	jamlangan holdagi miqdori, haftadagi gapirganlik)				
<b>5.</b>	Emotsional og'irlik: mas'uliyat darajasi; xatoning muhimligi				
<b>6.</b>	Emotsional og'irlik: shaxsiy hayotga xavf-xatar darajasi				
<b>7.</b>	Emotsional og'irlik: boshqa shaxs hayoti uchun xavfsizlik darajasi				
<b>8.</b>	Og'irlikning bir xilligi				
<b>1.</b>	(monotonligi): oddiy topshiriqlar yoki ko'p marotaba qaytariladigan operatsiyalarni bajarilishida zarur bo'ladigan elementlar soni				
<b>2.</b>	Og'irlikning bir xilligi (monotonligi): oddiy ishlab chiqarish topshiriqlarini yoki qaytariladigan operatsiyalarni bajarish davomiyligi (sekund)				
<b>3.</b>	Og'irlikning bir xilligi (monotonligi): faol harakatlar vaqti (smena davomiyligiga nisbatan, %). Qolgan vaqtda — ishlab chiqarish jarayonini borishini kuzatish				
<b>4.</b>	Og'irlikning bir xilligi (monotonligi): ishlab chiqarish ahvolarining bir xilligi (monotonligi) (texnologik jarayonni sust kuzatuv vaqti, smena vaqtiga nisbatan, %)				
<b>5.</b>	Ish rejimi: ish kunining haqiqiy davomiyligi, soat				

**I. MEHNAT SHAROITLARINING  
GIGIYENIK MEYORLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASH**

T/R	Mehnat jarayoni va ishlab chiqarish muhitining omillari	Gigiyenik meyor (RECHK, RECHD)	Haqiqiy darajasi (o'lchami)	Ta'sir etish davomiyligi (soat/%)	Mehnat sharoitlari klassi
6.	Ish rejimi: ishning smenaliligi				
7.	Ish rejimi: qat'iy belgilangan tanaffuslar va ularning davomiyligi				
<b>Mehnat sharoitlarining gigiyenik meyorlarga mosligining umumiy bahosi</b>					

**II. ISH JOYLARINING JAROHATLASH XAVFLILIGINI BAHOLASH**

**2. 1. Ish joyining shikastlash xavfliligini baholash natijalari**

Huquqiy-meyoriy hujjatlar	Huquqiy-meyoriy hujjatlar ning talablari	Ish joyidagi shikastlash xavfliligi bo'yicha baholanayotgan obyektlarining haqiqiy holati	Ish joyidagi shikastlash xavfliligi bo'yicha baholanayotgan obyektlarining haqiqiy holati	Zururiy chora-tadbirlar

**2. 2. Baholash natijalari bo'yicha xulosa:**

Baholash obyekti:	Xulosa meyoriy talablarga mos (mos emas) (aniqlangan, talablarga mos bo'lmagan bandlar ko'rsatiladi)
Ishlab chiqarish asbob-uskunalari	
Moslama va asboblari	
O'qitish va yo'l-yo'riqlar	

**2. 3. Ish joyidagi mehnat sharoitlari shikastlash xavfliligi bo'yicha \_\_\_\_\_ klassga mansub.**

**III. XODIMLARNING YATHV BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH**

### 3. 1. Xodimga yakka tartibdagi himoya vositalarini (YATHV) berish asosi:

Majburiy  
tusdagi

Zararli va (yoki) xavfli mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga, shuningdek o'ziga xos havo harorati va ifloslanishi bilan bog'liq ishlarda, sertifikatlangan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibdagi himoya vositalarini bepul berish namunaviy meyorlarining nomi

Qo'shimcha

Mehnat sharoitlari bo'yicha ish joylari attestatsiyasi va uskunalarni shikastlash xavfliligi natijalarini baholash bo'yicha

### 3. 2. YATHVni baholash natijalari:

T/R	Amaldagi meyorlarga muvofiq xodimga belgilangan YATHV ro'yxati	Xodimda YATHV mavjudligi (bor, yo'q)	YATHVning mehnat sharoitlariga mosligi (mos, mos emas)	Sertifikat yoki deklaratsiya mavjudligi (raqami va amal qilish muddati)
1.	Majburiy tusdagi:			
	...			
	...			
	...			
2.	Qo'shimcha:			
	...			
	...			
	...			

3. 3. Ish joyi YATHV bilan ta'minlanganlik talablariga javob \_\_\_\_\_.

(beradi, bermaydi)

## IV. KAFOLAT VA PREFERENSIYALAR

4. 1. Zararli va (yoki) xavfli sharoitlarda ishlash uchun imtiyoz va kompensatsiyalar

T/R	Preferensiyalar turlari	Haqiqatda mavjudligi (ha, yo'q)	Mehnat sharoitlarini baholash natijasi bo'yicha:	
			o'rnatish zarurligi (ha, yo'q)	asos

1.	Yillik qo‘shimcha to‘lanadigan ta‘til			
2.	Ish vaqtining davomiyligi			
3.	Davolash-profilaktika, ovqatlanish			

**4. 2. Imtiyozli pensiya ta‘minotiga huquqning \_\_\_\_\_ mavjudligi (agar «ha» bo‘lsa — asoslab berilsin).**

\_\_\_\_\_

**4. 3. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish zarurati \_\_\_\_\_ mavjudligi (agar «ha» bo‘lsa — asoslab berilsin).**

\_\_\_\_\_

## V. ATTESTATSIYA KOMISSIYASINING XULOSASI

**Mehnat sharoitlari kompleks baholash bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish talablariga \_\_\_\_\_**

(mos keladi, mos kelmaydi)

**Attestatsiya komissiyasi raisi**

\_\_\_\_\_

(lavozim)      (imzo)      (F. I. O.)      (sana)

**Attestatsiya komissiyasi a‘zolari:**

\_\_\_\_\_

(lavozim)      (imzo)      (F. I. O.)      (sana)

**Baholangan mehnat sharoitlari natijalari bilan tanishdim**

\_\_\_\_\_

(lavozim)      (imzo)      (F. I. O.)      (sana)

**Mehnat sharoiti noqulay va o‘ziga xos bo‘lgan ishlarda band bo‘lganlik uchun**

**yillik qo‘shimcha ta‘tillarning  
DAVOMIYLIGI**

Omillar	Mehnat sharoitlari klasslari						
	1 klass maqbul	2 klass yo‘l qo‘yilgan	3 klass zararli				4 klass xavfli
			3.1 1- daraja	3.2 2-daraja	3.3 3-daraja	3.4 4-daraja	
Qo‘shimcha ta‘tilning davomiyligi, kunlar hisobida	0	0	3	4 — 6 kungacha	7 — 12 kungacha	13 — 18 kungacha	19 — 24 kungacha

**Imtiyozli pensiya ta‘minotiga huquqni  
BAHOLASH**

Ro‘yxatlar	Mehnat sharoitlari klasslari
Talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda, yoshidan qat’i nazar, pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-RO‘YXATI	4
Talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda umumiy belgilangan yoshdan 10 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-RO‘YXATI	3.4
Talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda umumiy belgilangan yoshdan 5 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 3-RO‘YXATI	3.3

<b>Korxonaning nomi</b>					
<b>Yuqori turuvchi korxonalar</b>					
<b>Yuridik manzili</b>					
<b>Asosiy mahsulot turi</b>					
<b>STIR</b>	<table border="1"> <tr> <td align="center"><b>IF</b></td> <td align="center"><b>MX</b></td> </tr> <tr> <td align="center"><b>UT</b></td> <td align="center"><b>BT</b></td> </tr> </table>	<b>IF</b>	<b>MX</b>	<b>UT</b>	<b>BT</b>
<b>IF</b>	<b>MX</b>				
<b>UT</b>	<b>BT</b>				

**ISH O‘RINLARINI MEHNAT SHAROITLARI YUZASIDAN  
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH  
NATIJARINING YIG‘MA QAYDNOMASI**

Nomi	Attestatsiyadan o‘tgan ish o‘rinlari soni, jami	Ulardan:										
		mehnat sharoitlari klasslari bo‘yicha				shikastlash xavfliligi klasslari bo‘yicha			YATHV bilan ta‘minlanganlik talablariga mosligining bahosi			Mehnat sharoitlarining 3 va 4 klasslari bilan va /yoki «YATHV bilan ta‘minlanganlikka mos kelmaydi» deb baholanganlari
		1	2	3	4	1	2	3	mos	mos emas	YATHV ko‘zda tutilmagan	
<b><i>Korxonaga bo‘yicha jami</i></b>												
Ish o‘rinlari, birlik												
Mazkur ish o‘rinlarida band bo‘lgan xodimlar, nafar												
Shu jumladan ayollar												
<i>(tarkibiy bo‘linmaning nomi ko‘rsatiladi)</i>												
Ish o‘rinlari, birlik												
Mazkur ish o‘rinlarida band bo‘lgan xodimlar, nafar												
Shu jumladan ayollar												

**Attestatsiya komissiyasi raisi**

\_\_\_\_\_ (lavozim)                      \_\_\_\_\_ (imzo)                      \_\_\_\_\_ (F.I.O.)                      \_\_\_\_\_ (sana)

**Attestatsiya komissiyasi a‘zolari:**

\_\_\_\_\_ (lavozim)                      \_\_\_\_\_ (imzo)                      \_\_\_\_\_ (F.I.O.)                      \_\_\_\_\_ (sana)

\_\_\_\_\_ (lavozim)                      \_\_\_\_\_ (imzo)                      \_\_\_\_\_ (F.I.O.)                      \_\_\_\_\_ (sana)

\_\_\_\_\_ (lavozim)

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

\_\_\_\_\_ (sana)

<b>Korxonaning nomi</b>	
<b>Yuqori turuvchi korxonona</b>	
<b>Yuridik manzili</b>	
<b>Asosiy mahsulot turi</b>	
<b>STIR</b>	<b>IFUT</b> <b>MXBT</b>

**«TASDIQLAYMAN»**

Korxonona rahbari  
lavozimining nomi

\_\_\_\_\_  
(imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

20\_\_yil «\_\_»

<b>Korxonaning nomi</b>	
<b>Yuqori turuvchi korxonona</b>	
<b>Yuridik manzili</b>	
<b>Asosiy mahsulot turi</b>	
<b>STIR</b>	<b>IFUT</b> <b>MXBT</b>

**Mehnat sharoitlarini mehnat muhofazasi meyorlari, qoidalari va yo'riqnomalari talablariga moslashtirish bo'yicha**

**TADBIRLAR REJASI**

<b>Ish o'rnining nomi</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Moliyalash tirish manbai</b>	<b>Tadbirni amalga oshirish uchun mas'ul</b>	<b>Ijro etish muddati</b>	<b>Tadbirni amalga oshirish uchun jalb etiladigan bo'linmalar</b>	<b>Amalga oshirilganlik to'g'risida belgi</b>
<i>( tarkibiy bo'linma nomi ko'rsatiladi )</i>							

**Attestatsiya komissiyasi  
raisi**

\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

**Attestatsiya komissiyasi a'zolari:**

\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

\_\_\_\_\_  
(lavozim) (imzo) (F. I. O.) (sana)

**O'zbekiston Respublikasi Gerbi**

**O'zbekiston Respublikasi  
Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi**

**DAVLAT EKSPERTIZASI  
XULOSASI**

**XXN<sub>2</sub>00000000**

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_ sh.

Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish materiallari asosida quyidagilar aniqlandi:

1. Ish o'rinlari mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazilgan korxonalar to'g'risida ma'lumotlar:

Korxonaning nomi			
Yuqori turuvchi korxonalar			
Yuridik manzili			
STIR	IFUT	MXBT	
Attestatsiyadan o'tkazilgan ish o'rinlari soni			

2. Attestatsiyadan o'tkazuvchi tashkilot to'g'risida ma'lumotlar:

Tashkilot nomi			
Yuridik manzili			
Sinov laboratoriyasining akkreditatsiya attestatining raqami va sanasi			
STIR	IFUT	MXBT	

3. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish davomida mazkur ish bo'yicha amaldagi

normalar va normativlardan chetga chiqilmagan.

4. Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha ishlar Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizam talablariga muvofiq amalga oshirilgan.

Davlat mehnat inspeksiyasi  
boshlig‘i(Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri,  
viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh  
boshqarmalari boshlig‘i)

M.O‘.

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

F. I. O.

«TASDIQLAYMAN»

Korxonah rahbari  
lavozimining nomi

\_\_\_\_\_

(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_

### Attestatsiya komissiyasi yakuniy (oraliq-yakuniy) majlisining PROTOKOLI

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_ sh.

<b>Korxonaning nomi</b>			
<b>Yuqori turuvchi korxonah</b>			
<b>Yuridik manzili</b>			
<b>Asosiy mahsulot turi</b>			
<b>STIR</b>	<b>IFUT</b>	<b>MXBT</b>	

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-son buyruqqa muvofiq attestatsiya komissiyasi  
20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_dan 20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_gacha ish o‘rinlarini  
mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan  
attestatsiyadan o‘tkazishni amalga oshirdi.

Attestatsiyadan o‘tkazish

\_\_\_\_\_

(korxonah rahbari lavozimining nomi, F.I.O.)

\_\_\_\_\_ tomonidan 20\_\_yil  
«\_\_» \_\_\_\_\_da tasdiqlangan mehnat sharoitlari yuzasidan attestatsiyadan

o'tkaziladigan ish o'rinlari ro'yxati asosida amalga oshirildi. Attestatsiya natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan: mehnat sharoitlari xaritalari (o'lchash bayonlari bilan birga); ish o'rinlarini mehnat sharoitlari yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish natijalarining yig'ma qaydnomasi; ish o'rinlarini mehnat sharoitlari yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha belgilangan mehnat sharoitlari klasslari hamda shu munosabat bilan xodimlar uchun belgilanishi lozim bo'lgan kafolatlar va preferensiyalarning yig'ma jadvali.

Attestatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha Mehnat sharoitlarini mehnat muhofazasi normalari, qoidalari va instruksiyalari talablariga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib va kasaba uyushmasi bilan kelishilib,

(korxonalar rahbari lavozimining nomi, F.I.O.)

\_\_\_\_\_ tomonidan 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tasdiqlandi.

Attestatsiyadan o'tkazish materiallari davlat ekspertizasidan o'tdi, ular bo'yicha 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_-son xulosa olindi.

Attestatsiyadan o'tkazish natijalarini ko'rib chiqib, attestatsiya komissiyasi qaror qildi:

1. Attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha ishlar yakunlangan deb hisoblansin.
2. ...
3. ...

### Attestatsiya komissiyasi raisi

_____ (lavozim)	_____ (imzo)	_____ (F. I. O.)	_____ (sana)
-----------------	--------------	------------------	--------------

### Attestatsiya komissiyasi a'zolari:

_____ (lavozim)	_____ (imzo)	_____ (F. I. O.)	_____ (sana)
-----------------	--------------	------------------	--------------

_____ (lavozim)	_____ (imzo)	_____ (F. I. O.)	_____ (sana)
-----------------	--------------	------------------	--------------

_____ (lavozim)	_____ (imzo)	_____ (F. I. O.)	_____ (sana)
-----------------	--------------	------------------	--------------

## 5-amaliy mashg'ulot. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari

**Mashg'ulotning maqsadi.** Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga

yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchi o'z fuqarolik javobgarligini ushbu Qoidada belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urtalash shart sharoitlarini o'rganish.

### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Umumiy qoidalar.
2. Majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish, o'zgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tartibi.
3. Sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash tartibi.
4. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish tartibi.
5. Yetkazilgan zarar miqdorini belgilash va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lash tartibi.

## **1. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Qoidalar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish (keyingi o'rinlarda majburiy sug'urta qilish deb ataladi) tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**annuitent** — o'ziga nisbatan annuitetlar shartnomasi tuzilgan va joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

**naf oluvchi** — xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs;

**qoplov summasi** — annuitetlar shartnomasi muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga to'lanadigan pul mablag'lari summasi;

**ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi** (keyingi o'rinlarda majburiy sug'urta qilish shartnomasi deb

**ataladi)** — sugʻurtalovchi uning boʻyicha sugʻurta hodisasi vujudga kelganda kelishilgan toʻlov (sugʻurta mukofoti) yuzasidan ish beruvchiga va (yoki) jabrlanganga yoxud naf oluvchiga mehnatda mayib boʻlganligi, kasb kasalligiga chalinishi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarish bilan bogʻliq holda sogʻligʻining boshqacha tarzda shikastlanganligi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sogʻligʻiga yetkazilgan zararining oʻrnini sugʻurta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladigan sugʻurta shartnomasi;

**annuitetlar shartnomasi** — sugʻurtalovchi unga koʻra annuitetlar shartnomasi boʻyicha annuitetlar shartnomasida kelishilgan toʻlovni (sugʻurta mukofotini) bir yildan koʻp muddatga joriy toʻlovlar tarzida sugʻurta summasi doirasida sugʻurta tovonini toʻlashni amalga oshirish majburiyatini oladigan sugʻurta shartnomasi;

**ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa** — xodimning u mehnat shartnomasi (kontrakt) boʻyicha oʻz vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bogʻliq holda mehnatda mayib boʻlishiga yoki sogʻligʻining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga oʻtkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turgʻun yoʻqotishiga yoxud vafot etishiga sabab boʻlgan hodisa;

**kasb kasalligi** — xodimning unga ishlab chiqarishning zararli yoki xavfli omili taʼsiri natijasi boʻlgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turgʻun yoʻqotishiga sabab boʻlgan oʻtkir yoki surunkali kasalligi;

**jabrlanuvchi** — oʻz mehnat vazifalarini bajarishi bilan bogʻliq holda mehnatda mayib boʻlishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sogʻligʻining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sogʻligʻiga zarar yetkazilgan, sugʻurta tovonini olish huquqiga ega boʻlgan xodim;

**xodim** — ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlayotgan jismoniy shaxs;

**ish beruvchi** — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**sug'urta mukofoti** — ish beruvchining majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qilish yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga majburiy sug'urtalash shartnomasiga yoki annuitetlar shartnomasiga muvofiq to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi;

**majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli** — sug'urtalovchi majburiy sug'urta qilish shartnomasi doirasida jabrlanuvchiga (naf oluvchiga) yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladigan summa;

**annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli** — jabrlanuvchiga (naf oluvchiga) bir yildan ko'p muddatga joriy to'lovlar tarzida sug'urta tovonini to'lashni nazarda tutadigan yetkazilgan zararining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan miqdori;

**sug'urta polisi** — majburiy sug'urta qilishning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi belgilangan namunadagi hujjat;

**majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi** — ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt;

**annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi** — annuitetning annuitetlar shartnomasi amal qiladigan davrda joriy to'lov tarzida sug'urta tovonini amalga oshirish sanasigacha yashashi;

**ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi** — umumiy sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi** — hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi** — kasbga oid mehnat qobiliyatining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berguniga qadar

bo'lgan, foizlarda ifodalangan, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan aniqlanadigan pasayishi;

**mehnatda mayib bo'lish** — xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi.

3. Ish beruvchi u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan yoki ish beruvchilar — jismoniy shaxslar uchun mehnat shartnomasi (kontrakti) tuzilgan sanadan boshlab 15 ish kunidan kechikmay mehnatda shikastlanish, kasb kasalligi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishi shart.

Ish beruvchining o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati ushbu Qoidalarga muvofiq «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-bandi **ikkinchi qismi** qoidalari amalga kiritilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mehnatda shikastlanish, kasb kasalligi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha o'z fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirdagi ish beruvchining mulkiy manfaatlari majburiy sug'urta qilish obyekti hisoblanadi.

5. Ish beruvchi, majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi (keyingi o'rinlarda sug'urtalovchi deb ataladi), annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi, jabrlanuvchi va naf oluvchi majburiy sug'urta qilish subyektlari hisoblanadi.

6. Ish beruvchi ushbu Qoidalar asosida sug'urtalovchi bilan majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzadi, unga muvofiq sug'urta hodisasi vujudga kelgan davrda ish beruvchiga va (yoki) jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga xodimning mehnatda shikastlanishi, kasb kasalligi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'laydi.

Yetkazilgan zararni qoplash bir yildan ko‘p muddatga to‘lovni nazarda tutgan hollarda ish beruvchi mazkur Qoidalarga muvofiq annuitetlar shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi bilan annuitetlar shartnomasini tuzadi, unga ko‘ra annuitetga joriy to‘lovlar tarzida sug‘urta tovonini to‘lovi amalga oshiriladi.

7. Sug‘urta hodisasi munosabati bilan jabrlanuvchiga (naf oluvchiga) yetkazilgan ma‘naviy zarar majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha qoplanmaydi.

8. Majburiy sug‘urta qilish shartnomasi va majburiy sug‘urta qilish polisi, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda, annuitetlar shartnomasi va annuitetlar shartnomasi bo‘yicha polis majburiy sug‘urta qilishning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

## **2. Majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va uning amal qilishini muddatidan oldin to‘xtatish tartibi**

9. Majburiy sug‘urta qilish shartnomasi ommaviy hisoblanadi va ish beruvchi hamda sug‘urta qiluvchi o‘rtasida ushbu Qoidalarga **1-ilovaga** muvofiq shakl bo‘yicha bir yil muddatga tuziladi. Agar ish beruvchi o‘z faoliyatini bir yildan kam muddatda amalga oshirsa, u holda majburiy sug‘urta qilish shartnomasi ish beruvchi faoliyatni amalga oshirish muddatiga tuziladi.

10. Ish beruvchi majburiy sug‘urta qilishni amalga oshiradigan sug‘urtalovchini va annuitet shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchini tanlash huquqiga ega.

11. Sug‘urtalovchi o‘ziga yozma ariza bilan murojaat qilgan va ushbu Qoidalarga muvofiq hujjatlarni taqdim etgan ish beruvchiga majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzishni rad etishga haqli emas.

12. Majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzish uchun ish beruvchi sug‘urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) ushbu Qoidalarga **2-ilovaga** muvofiq shakl bo‘yicha majburiy sug‘urta qilish shartnomasini tuzish to‘g‘risidagi ariza;

b) ish beruvchi — jismoniy shaxs pasportining yoki uning shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatining nusxasi (fotosurati va ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi oxirgi yozuv mavjud bo‘lgan betlari);

v) ish beruvchining (yuridik shaxslar uchun) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.

Ish beruvchi sug'urtalovchiga taqdim etiladigan ma'lumotlar va hujjatlarning to'liqligi va haqqoniyliigi uchun javobgar hisoblanadi.

13. Majburiy sug'urta qilish polisi ish beruvchiga sug'urtalovchining hisob raqamlariga majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan keyingi uch ish kunidan kechikmay beriladi.

Sug'urta polisi blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlikning kamida 3 darajasiga ega bo'lishi kerak. Sug'urta polisi blankasi sug'urtalovchining (annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining) buyurtmasi bo'yicha, bosmaxona usulida «Davlat belgisi» davlat ishlab chiqarish birlashmasida ushbu Qoidalarga 3 va 8-ilovalarga binoan namunalarga muvofiq tayyorlanadi.

14. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda ish beruvchi uning dublikatini olish huquqiga ega.

Dublikat sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchi murojaat qilgan va u dublikatni tayyorlash xarajatlarini ish beruvchi murojaat qilgan sanada qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ko'pi bilan 10 foizi miqdorida to'lagan kundan boshlab ikki kun muddatda beriladi.

15. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi amal qiladigan davrda ish beruvchi yozma shaklda va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan muddatlarda sug'urtalovchiga majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida xabar qilish shart.

16. Ish beruvchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasini taqdim etilgan ma'lumotlardagi o'zgarishlar to'g'risida ariza olinganda sug'urtalovchi, zarurat bo'lganda, majburiy sug'urta qilish shartnomasiga qo'shimcha bitimni tuzadi va sug'urta polisini qaytadan rasmiylashtiradi.

17. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari u amal qilgan davrda o'zgargan taqdirda sug'urta mukofoti miqdoriga o'zgargan shartlarga muvofiq holda o'zgartirish kiritiladi. Bunda tomonlarning sug'urta mukofotining o'zaro hisob-

kitoblariga taalluqli bo'lgan majburiyatlari majburiy sug'urta qilish shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzilgan sanadan boshlab 3 ish kunidan kechikmay bajarilishi kerak.

18. Agar ish beruvchi majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari yoki ushbu Qoidalarning **17-bandida** nazarda tutilgan hollarda majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashga qarshi bo'lsa, u holda sug'urtalovchi majburiy sug'urta qilish shartnomasining bekor qilinishini talab qilishga haqlidir. Bunda majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

19. Majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi quyidagi hollarda muddatidan oldin to'xtatiladi:

- a) ish beruvchi — yuridik shaxs tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda;
- b) ish beruvchi — jismoniy shaxs vafot etganda;
- v) majburiy sug'urta qilish shartnomasi sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'tirof etilganda.

Majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda ham muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin.

20. Majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda sug'urta mukofotining bir qismi to'langan sug'urta to'voni summasiga va mazkur shartnoma amal qilishining kunlar hisobidagi qolgan muddatiga mutanosib ravishda qaytarib beriladi. Bunda majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilishi ushbu Qoidalar 19-bandining «a», «b» va «v» **kichik bandlarida** ko'rsatilganlardan boshqa asoslarga ko'ra muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda sug'urtalovchi sug'urta mukofotining qaytarib berilayotgan qismidan ushbu shartnoma bo'yicha isbotlanadigan xarajatlarning sug'urta mukofotining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdordagi summasini chegirib qolishi mumkin.

### **3. Sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash tartibi**

21. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi quyidagi miqdorda belgilanadi:

- majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan sanadagi holatga ko'ra faoliyatini bir yildan ortiq amalga oshirib kelayotgan ish beruvchi uchun — majburiy shartnoma tuzilgan oydan oldingi o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida;

- o'z faoliyatini yangitdan amalga oshirayotgan ish beruvchi uchun — majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan oydan keyingi o'n ikki oy uchun ish beruvchi barcha xodimlarining bir yillik ish haqi miqdorida. Bunda yillik ish haqi birinchi oydagi ish haqi miqdorini o'n ikkiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqariladi;

- faoliyatini bir yildan kam bo'lgan muddatga amalga oshiruvchi ish beruvchi uchun — ish beruvchi barcha xodimlarining ish beruvchining mazkur faoliyati amalga oshiriladigan muddatdagi ish haqi miqdorida.

22. Majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish muddati davomida yillik ish haqi miqdori o'zgargan taqdirda, sug'urta puli va sug'urta mukofoti qismiga ushbu shartnomaga yozma ravishda qo'shimcha kelishuv tuzish orqali o'zgartirishlar kiritiladi. Bunda majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini qayta hisob-kitob qilish mazkur shartnoma tuzilgan sanada amalda bo'lgan sug'urta tarifi bo'yicha, qolgan sug'urta davri va sug'urta puliga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

23. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti miqdori ushbu Qoidalarga [9-ilovaga](#) muvofiq sug'urta tariflariga binoan hisoblab chiqariladi.

Sug'urta tariflarining majburiy sug'urta qilish shartnomasi amal qiladigan muddat mobaynida o'zgarishi ish beruvchi tomonidan to'lov vaqtida amalda bo'lgan sug'urta tariflari bo'yicha to'langan sug'urta mukofotining o'zgarishiga olib kelmaydi.

24. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini hisoblash sug'urtalovchi tomonidan, majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzish to'g'risidagi arizada ish beruvchi ko'rsatgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

25. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgandan keyin majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzish to'g'risidagi arizada ish beruvchining noto'g'ri va (yoki)

xato ma'lumotlar ko'rsatganligi aniqlangan taqdirda sug'urta mukofoti miqdori sug'urta tariflariga va majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan vaqtda amalda bo'lgan ish beruvchi faoliyat turlarining xavflilik darajasi tavsifiga muvofiqlashtirilishi kerak.

26. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan, majburiy sug'urta qilish shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab besh ish kun mobaynida bir yo'la to'lanadi.

Sug'urta mukofoti naqd pul bilan to'langan taqdirda sug'urtalovchi (uning filiali yoki sug'urta agenti) tomonidan pul mablag'lari qabul qilib olingan sana to'lov sanasi hisoblanadi. Sug'urta mukofoti naqd pulsiz to'langan taqdirda pul mablag'larining sug'urtalovchi (uning filiali yoki sug'urta agenti) hisob raqamiga tushgan sanasi sug'urta mukofoti to'langan sana hisoblanadi.

Ish beruvchining hisob raqamidagi pul mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash ish beruvchining ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlariga mo'ljallangan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

27. Agar sug'urtalovchi majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish davrida sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta puli to'langan sug'urta tovonni summasi miqdoriga kamaytiriladi. Bunda ish beruvchi to'langan sug'urta tovonni summasiga hamda majburiy sug'urta qilish shartnomasining qolgan amal qilish muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotini yetti ish kuni mobaynida qo'shimcha ravishda to'lashi shart.

Majburiy sug'urta qilish shartnomasi tomonlarining huquqlari va majburiyatlari.

28. Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;

- sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- yillik ish haqi miqdori kamaygan taqdirda, sug'urta mukofotining yillik ish haqi miqdorining kamayishiga va majburiy sug'urta qilish shartnomasining tugallanmagan davriga mutanosib qismini olish.

Ish beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 29. Ish beruvchi:

- majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha va ayrim hollarda annuitetlar shartnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi;

- yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi;

- ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi;

- xodimlarni majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan, mazkur shartnoma bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

- sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida taqdim etishi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o'ziga ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi;

- Ish beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

#### 30. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo'lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb etish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotni tekshirish;

- sug'urta mukofotini aniqlash uchun sug'urta xavfini baholash;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### 31. Sug'urtalovchi:

- majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan ish beruvchini tanishtirishi, shu jumladan, uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

- o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan, ish beruvchi va (yoki) jabrlanuvchi yoxud naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

- sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ish beruvchi sug'urta tovonini to'lash uchun murojaat etganidan keyin o'n besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda ish beruvchiga rad etish sabablarini dalillar bilan asoslantirgan holda yozma shaklda xabar qilishi;

- ushbu Qoidalarning 34-bandida nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay qaror qabul qilishi va sug'urta tovonini to'lashi;

- o'zi almashtirilgan taqdirda bu haqda ish beruvchiga darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

### 32. Jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga yoxud annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash haqida yozma shakldagi ariza bilan murojaat etish;

- qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta tovonini olish;

- majburiy sug'urta qilish shartnomasining yoki annuitetlar shartnomasining shartlari to'g'risida ish beruvchidan yoki sug'urtalovchidan yoxud annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan bepul axborot olish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda zaruriyat bo'lganda, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda belgilangan tartibda ishtirok etish;

- ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

33. Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urta tovonini olish haqidagi talab bilan ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga murojaat etish;

- qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urtalovchi va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan sug'urta tovonini olish;

- ish beruvchidan, sug'urtalovchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlari to'g'risida hamda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan annuitetlar shartnomasi shartlari haqida bepul axborot olish;

- xodim o'z mehnat vazifalarini bajarayotganda vafot etganligi haqida ish beruvchiga xabar qilish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda belgilangan tartibda ishtirok etish, zarur bo'lgan hollarda kasaba uyushmasi vakillarini yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda ishtirok etish;

- ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

#### **4. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish tartibi**

34. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirish yakunlariga ko'ra sug'urtalovchiga sug'urta tovonini talabidan iborat bo'lgan yozma shakldagi ariza bilan murojaat qiladi (ushbu Qoidalarga [4-ilova](#)), unga quyidagilar ilova qilinadi:

- ish beruvchining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatlariga ko'ra yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risida ushbu Qoidalarga 5 yoki 5-1-**ilovalarga** muvofiq shakl bo'yicha buyrug'ining nusxasi;

- xodimning yoki naf oluvchining yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talabi ko'rsatilgan, ish beruvchining nomiga yozilgan arizasining nusxasi;

- sug'urta hodisasi yuz berguniga qadar xodim olgan o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- mehnat shartnomasining (kontraktning) nusxasi;

- kasb kasalligida — xodimning kasb kasalligi to'g'risidagi tibbiy xulosa;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini va xodim uchun uning oqibatini tasdiqlovchi hujjatlar (ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani maxsus tekshirish dalolatnomasi, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasining xulosasi, nizolar yuzaga kelgan hollarda esa — sudning qarori).

Xodim vafot etgan taqdirda xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi va naf oluvchining zararining o'rnini qoplanishiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar ham ilova qilinadi.

Ushbu bandeda nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilish taqiqlanadi.

35. Hujjatlarni qabul qilib olgan sug'urtalovchi ish beruvchiga taqdim etilgan hujjatlarning to'liq ro'yxatini va ular qabul qilib olingan sanani ko'rsatgan holda ma'lumotnoma berishi shart.

36. Sug'urtalovchi tegishli so'rovnoma bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlaridan, sudlardan, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya va boshqa tashkilotlardan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa bilan bog'liq hujjatlarni va xulosalarni olishga, shuningdek jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga yetkazilgan zararining sabablarini, holatini va miqdorini mustaqil ravishda aniqlashga haqlidir.

37. Sug'urtalovchi ushbu Qoidalarning 34-bandeda ko'rsatilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab o'n ish kunidan kechikmay sug'urta hodisasini tan olish to'g'risida qaror qabul qilishi va sug'urta tovonini to'lashi shart.

38. Sug'urta hodisasini tan olish va sug'urta tovonni miqdorini aniqlash sug'urtalovchi tomonidan, ish beruvchi taqdim etgan hujjatlarni o'rganish, shuningdek ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirish uchun jalb etilgan ekspertlarning tegishli xulosalari asosida amalga oshiriladi.

39. Sug'urta hodisasi tan olinganda va sug'urta tovonni summasi belgilanganda sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuziladi, u har qaysi tomon uchun bir nusxadan — ikki nusxada, sug'urtalovchi va ish beruvchi tomonidan imzolanadi.

Sug'urta tovonini bir yildan ko'p muddat uchun to'lash zarur bo'lganda sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma sug'urta tovonini bir yildan ko'p muddat uchun asosli ravishda hisoblash uchun ish beruvchi tomonidan tanlangan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi ishtirokida tuziladi. Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma har qaysi tomon uchun bir nusxadan — uch nusxada, sug'urtalovchi, ish beruvchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi tomonidan imzolanadi.

40. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda bu haqda ish beruvchiga uning sug'urta tovonini to'lash talabidan iborat bo'lgan ariza bilan yozma murojaatidan keyin o'n besh ish kunidan kechikmay rad etish asoslari ko'rsatilgan holda xabar qilingan bo'lishi kerak.

## **5. Yetkazilgan zarar miqdorini belgilash va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lash tartibi**

41. Xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tovonni yetkazilgan zarar miqdorida, lekin sug'urta puli miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

42. Agar sug'urta hodisasi natijasida ish beruvchida bir nafardan ko'p xodim oldida javobgarlik paydo bo'lsa va u sug'urta pulidan ortiq bo'lsa majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonni har bir jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga uning yetkazilgan zarar umumiy miqdoridagi ulushiga mutanosib ravishda,

lekin majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

43. Majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'voni:

- jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lov yoki kasb kasalligi aniqlangunga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida belgilanadigan har oylik to'lov;

- marhumning o'rtacha oylik ish haqi miqdoridagi, uning o'ziga va qaramog'ida bo'lgan, lekin yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishiga haqli bo'lmagan, mehnatga qobiliyatli shaxslarga to'g'ri keladigan ulush chegirib tashlangan holdagi har oylik to'lov;

- qonun hujjatlarida belgilangan hollarda jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovi;

- xodim vafot etgan taqdirda majburiy sug'urta qilish shartnomasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdordagi dafn etish xarajatlari;

- ish beruvchining qo'shimcha xarajatlarini qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya qilish tarzida amalga oshiriladi.

44. Qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilgan taqdirda, xodimning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan zararining o'rnini qoplashning belgilangan summasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining oshirilishiga mutanosib ravishda ko'paytiriladi. Bunda zarar o'rnini qoplashning ko'paytirilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish beruvchi tomonidan qo'shimcha tarzda to'lanadi.

45. Agar majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish muddati tugagandan keyin, ko'rsatilgan shartnoma amal qilgan davrda ro'y bergan sug'urta hodisasi oqibatida aniqlangan zarar miqdori belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqilsa, u holda bunday zararni qoplash bo'yicha majburiyat ish beruvchi zimmasida bo'ladi.

46. Majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini, agar yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bir yilgacha muddat uchun to'lovni nazarda tutsa, sug'urtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga to'lanadi. Bunda ish beruvchining talabiga ko'ra sug'urtalovchi unga sug'urta tovonini to'langanini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari nusxasini taqdim etishi shart.

47. Sug'urtalovchining jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari yuridik shaxs — ish beruvchi tugatilganda, jismoniy shaxs — ish beruvchi vafot etganda yoki ushbu shartnoma amal qilgan davrda jabrlanuvchi va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari to'xtatilgan hollarda saqlanib qoladi.

48. Majburiy sug'urta qilish shartnomasining ish beruvchining xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning sog'lig'i yomonlashganligi yoxud vafot etganligi tufayli kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlarning kompensatsiya qilinishiga doir qismi bo'yicha sug'urta tovonini ish beruvchiga, u shunday xarajatlarni amalga oshirganligini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida to'lanadi.

49. Agar yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bir yildan ortiq muddat uchun to'lovni nazarda tutsa, majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini sug'urtalovchi tomonidan ish beruvchiga to'lanadi. Bunda ish beruvchi ushbu Qoidalarning [52-bandiga](#) muvofiq annuitetlar shartnomasini tuzishi va majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olingan sug'urta tovonidan faqat annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash uchun foydalanishi shart. Agar ish beruvchining majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha olgan sug'urta tovonini summasi annuitetlar shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdoridan kam bo'lsa, u holda farq ish beruvchi hisobidan qo'shimcha ravishda to'lanishi kerak.

50. Ish beruvchida ushbu Qoidalarning [49-bandiga](#) muvofiq sug'urta mukofotidagi farqni qo'shimcha ravishda to'lash uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda annuitetlar shartnomasi majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha

olingan sug'urta tovonni puliga mutanosib bo'lgan muddatga tuziladi. Bunda ish beruvchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga zararning tegishli qismini to'lash bo'yicha javobgarlikni zimmasiga oladi.

51. Sug'urta tovonini o'tkazish bo'yicha xarajatlar sug'urtalovchining hisobidan amalga oshiriladi.

1-ilova

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini  
majburiy sug'urta qilish  
SHARTNOMASI**

\_\_\_\_\_ -son

\_\_\_\_\_ shahri 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

Keyingi o'rinlarda «Ish beruvchi» deb ataladigan \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(ish beruvchining nomi)

\_\_\_\_\_ asosida harakat qiladigan  
(hujjatning nomi)

\_\_\_\_\_, bir tomondan  
(F.I.O., lavozimi)

va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 200\_\_ yil \_\_\_\_\_  
da berilgan \_\_\_\_\_-son litsenziya asosida harakat qiladigan, keyingi  
o'rinlarda «Sug'urtalovchi» deb ataladigan \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(sug'urtalovchining nomi)

\_\_\_\_\_ asosida harakat qiladigan  
(hujjatning nomi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O., lavozimi)

orqali, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida  
tuzdilar

**1. Shartnomaning predmeti**

1. Sug'urtalovchi ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son qarori bilan tasdiqlangan Ish

beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga muvofiq sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda ish beruvchiga, jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga mehnatda olgan mayibligi, kasb kasalligi yoki xodimning ushbu shartnoma amal qiladigan davrda mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash majburiyatini oladi.

## **2. Sug'urta puli va sug'urta mukofoti**

2. Sug'urta puli ushbu shartnoma bo'yicha \_\_\_\_\_ so'mni,  
(summasi raqamlar va yozuv bilan)

shu jumladan dafn etish xarajatlari \_\_\_\_\_ so'mni  
(summasi raqamlar va yozuv bilan)

tashkil qiladi

3. Sug'urta mukofoti ushbu shartnoma bo'yicha \_\_\_\_\_ so'mni  
(summasi raqamlar va yozuv bilan)

tashkil qiladi

4. Sug'urta mukofoti ushbu shartnoma tuzilgan sanadan boshlab besh ish kuni mobaynida bir yo'la to'lanadi.

---

---

---

## **3. Shartnomaning kuchga kirishi va amal qilish muddati**

5. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va \_\_\_\_\_ mobaynida amal qiladi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisob raqamiga tushgan kundan keyingi kundagi 00 soat 00 daqiqadan boshlab kuchga kiradi va majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining oxirgi sanasidagi 24 soat 00 daqiqada tugaydi.

6. Sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan sug'urtalovchining hisob raqamiga naqd pulni o'tkazish yoki kiritish yo'li bilan to'lanadi. Pul mablag'larining sug'urtalovchining hisob raqamiga tushgan sanasi majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti to'langan sana hisoblanadi.

## **4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

7. Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtalovchidan majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;

sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

yillik ish haqi miqdori kamayganda sug'urta mukofotining yillik ish haqi miqdorining kamayishiga va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining tugallanmagan davriga mutanosib qismini olish.

Ish beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 8. Ish beruvchi:

majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha va ayrim hollarda annuitetlar shartnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi;

yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kundan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi;

ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kundan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi;

xodimlarni majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan, majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha tomonlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida taqdim etishi;

sug'urtalovchini ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa yuz berganligi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab uch ish kuni mobaynida yozma shaklda xabardor qilishi;

agar sug'urta tovonini jabrlanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan qilingan suiiste'molliklar oqibatida asossiz ravishda to'langan bo'lsa, ortiqcha to'langan

sug'urta tovonini haqida sug'urtalovchiga xabar qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish shart.

Ish beruvchi zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

9. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo'lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb etish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotni tekshirish;

sug'urta mukofotini aniqlash uchun sug'urta xavfini baholash;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Sug'urtalovchi:

majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan ish beruvchini tanishtirishi, shu jumladan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan, ish beruvchi va (yoki) jabrlanuvchi yoxud naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlashi;

sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ish beruvchi sug'urta tovonini to'lash uchun murojaat etganidan keyin o'n besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda ish beruvchiga rad etish sabablarini dalillar bilan asoslantirgan holda yozma shaklda xabar qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarining **34-bandida** nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay qaror qabul qilishi va sug'urta tovonini to'lashi;

o'zi almashtirilgan taqdirda bu haqda ish beruvchiga darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Sug'urtalovchi zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

### **5. Tomonlarning javobgarligi**

11. Tomonlar majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilingan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

### **6. Nizolarni hal etish tartibi**

12. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

### **7. Yakuniy qoidalar**

13. Ushbu shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va muddatidan oldin to'xtatish tartibi sug'urta bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi, ushbu shartnoma bo'yicha ko'rilgan zarar miqdorini aniqlash va sug'urta tovonini to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan, ushbu shartnomaning uzviy qismi hisoblanadigan Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga muvofiq belgilanadi.

### **8. Tomonlarning rekvizitlari:**

Sug'urtalovchi \_\_\_\_\_ Ish beruvchi: \_\_\_\_\_

Manzili: \_\_\_\_\_ Manzili: \_\_\_\_\_

tel: \_\_\_\_\_ faks: \_\_\_\_\_ tel: \_\_\_\_\_ faks: \_\_\_\_\_

h/r \_\_\_\_\_ h/r \_\_\_\_\_

MFO \_\_\_\_\_ STIR: \_\_\_\_\_ MFO \_\_\_\_\_ STIR: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(F.I.O., lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O., lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

M.O'.

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini oldim.

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (Ish beruvchi vakolatli shaxsining F.I.O.)

2-ilova

Sug'urtalovchiga \_\_\_\_\_  
(sug'urtalovchining nomi)

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy  
sug'urta qilish shartnomasini tuzish to'g'risida**

**ARIZA**

Ish beruvchi \_\_\_\_\_  
(F.I.O./nomi)

\_\_\_\_\_ asosida harakat  
(hujjatning nomi)

qiluvchi \_\_\_\_\_ orqali  
(vakolatli shaxsning F.I.O. va lavozimi)

Sizdan Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarida nazarda tutilgan shartlarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzishni so'raydi.

1. Ish beruvchining rekvizitlari:

pochta manzili: \_\_\_\_\_

telefon: \_\_\_\_\_ faks: \_\_\_\_\_ e-mail: \_\_\_\_\_

ariza beruvchi-jismoniy shaxsning

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ berilgan.

pasporti: seriyasi \_\_\_\_\_ nomeri \_\_\_\_\_

2. Ish beruvchining bank rekvizitlari:

bankning nomi: \_\_\_\_\_

hisob raqami

xizmat ko'rsatuvchi bankning MFO \_\_\_\_\_

STIR \_\_\_\_\_

3. IFUT (Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi)ga muvofiq ish beruvchi amalga oshiradigan faoliyat turi (turlari) \_\_\_\_\_

(iqtisodiy faoliyatning kodi va nomi)

4. Barcha xodimlarning yillik ish haqi summasi \_\_\_\_\_ so‘m  
(raqamlar va yozuv bilan)

5. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasining muddati \_\_\_\_\_

6. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) \_\_\_\_\_;

b) \_\_\_\_\_;

7. Biz ushbu arizada keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va to‘liqligini tasdiqlaymiz.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(Ish beruvchi vakolatli shaxsining F.I.O.)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

8. Ariza \_\_\_\_\_ tomonidan qabul qilingan va  
(sug‘urtalovchi xodimining lavozimi va F.I.O.)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da daftarda \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

3-ilova

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini  
majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta  
polisi blankasining**

**NAMUNASI**

*(Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi  
bo‘yicha sug‘urta polisi blankasining old tomoni)*

**O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi**

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi**

**bo'yicha**  
**SUG'URTA POLISI**

№ \_\_\_\_\_

Seriyasi \_\_\_\_\_

№ \_\_\_\_\_

1. Sug'urtalovchining to'liq nomi va rekvizitlari \_\_\_\_\_

2. Ish beruvchining to'liq nomi (F.I.O.) va rekvizitlari \_\_\_\_\_

3. IFUT (Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi)ga muvofiq ish beruvchi amalga oshiradigan faoliyat turi (turlari)\_\_\_\_\_

(iqtisodiy faoliyatning kodi va nomi)

4. Sug'urta puli \_\_\_\_\_

so'm,

(summa raqamlar va yozuv bilan)

shu jumladan dafn qilish xarajatlari \_\_\_\_\_ so'm,

(summa raqamlar va yozuv bilan)

5. Sug'urta mukofoti \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ miqdorida 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da to'langan.

(summa raqamlar va yozuv bilan)

6. Sug'urta davri: 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dan 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ gacha.

7. Xodimning Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi amal qiladigan davrda mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligining yuz berishi ushbu polis bo'yicha sug'urta hodisasi hisoblanadi.

*(Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi blankasining orqa tomoni)*

8. Sug'urtalovchining, shuningdek uning ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzishga, ish beruvchilarning va (yoki) jabrlanuvchilarning yoxud naf oluvchilarning sug'urta to'lovini to'g'risidagi talablarni ko'rib chiqishga hamda sug'urta to'lovini amalga oshirishga vakil qilingan alohida bo'linmalari, ular bilan bog'liq mablag'lar va ularningish vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar:

9. Alohida qaydlar \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Sug'urtalovchining rahbari yoki vakolatli shaxsi

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(F.I.O.)

M.O'.

Berilgan sanasi: 20\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Sug'urta polisi blankasining tavsifi:

Sug'urta polisi blankalari A4 (210 — 297 mm) kattalikda tayyorlanadi.

Sug'urta polisi blankasi foni oq rangda bo'ladi.

4-ilova

Sug'urtalovchiga \_\_\_\_\_

(Sug'urtalovchining to'liq nomi)

\_\_\_\_\_ dan

(Arizachining to'liq ismi (nomi))

Arizachi — jismoniy shaxsning pasporti: seriyasi: \_\_\_\_\_

nomeri: \_\_\_\_\_,

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ berilgan.

Arizachi — yuridik shaxsning rekvizitlari:

STIR \_\_\_\_\_

xizmat ko'rsatuvchi bankning MFO \_\_\_\_\_

h/r \_\_\_\_\_

Majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi:

seriyasi \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da berilgan.

### **Sug'urta tovonini to'lash to'g'risida**

#### **ARIZA**

Ushbu bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son shartnomaga ko'ra sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan hodisa yuz berganligini ma'lum qilaman.

Hodisaning sabablari va holatlari to'g'risida quyidagilarni ma'lum qilaman:

Sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan hodisaga duch kelgan xodimlar:

1. \_\_\_\_\_  
(xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi)

2. \_\_\_\_\_  
(xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi)

Hodisaning sanasi va vaqti: \_\_\_\_\_

Hodisaning joyi: \_\_\_\_\_

Hodisa to'g'risida \_\_\_\_\_ga murojaat qilingan

Hodisaning holatlari: \_\_\_\_\_

Ushbu hodisa bo'yicha haqqoniy va menga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni xabar qildim.

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ . \_\_\_\_\_  
(imzo) (arizachining F.I.O)

Ariza \_\_\_\_\_ tomonidan  
(sug'urtalovchi mas'ul xodimining lavozimi va familiyasi)

qabul qilingan va 20\_\_ yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqami bilan  
daftarda ro'yxatdan o'tkazilgan.

Ushbu arizaga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati

<b>T/R</b>	<b>Hujjatning nomi</b>	<b>Sahifalar soni</b>	<b>Hujjatning sanasi va tartib raqami</b>	<b>Ilova qilinmoqda (ha/yo'q)</b>
1.	Ish beruvchining yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi buyrug'i nusxasi			
2.	Sug'urta hodisasi yuz bergungacha xodimning o'rtacha oylik yoki yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma.			
3.	Mehnat shartnomasi (kontrakt)ning nusxasi.			
4.	Kasbga oid kasallik mavjud bo'lganda — xodimning kasbga oid kasalligi to'g'risida tibbiy xulosa.			
5.	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani maxsus tekshirish dalolatnomasi.			
6.	Vrachlik-mehnat ekspert omissiyasining xulosasi.			
7.	Sud qarori.			
8.	Xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi va naf oluvchining yetkazilgan zararni undirishga huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.			

\_\_\_\_\_ (yuridik shaxsning nomi)

**BUYRUQ № \_\_\_\_\_**

\_\_\_\_\_ shahri 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli ko‘rilgan zararni to‘lash to‘g‘risida**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ ga zarar yetkazilgan.

(jabrlanuvchining F.I.O.)

Ushbu baxtsiz hodisa 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da N-1 shakldagi Dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan. TMEKning 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son xulosasiga ko‘ra \_\_\_\_\_ «\_\_» guruh nogironi deb e’tirof etilgan/etilgan \_\_\_\_\_

(keraklisi ko‘rsatiladi)

muddatga kasbga oid mehnat qobiliyatini \_\_\_\_\_% yo‘qotgan.

Mehnatda mayib bo‘lguniga qadar \_\_\_\_\_ ning  
(jabrlanuvchining F.I.O.)

12 oydagi o‘rtacha oylik ish haqi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ so‘mni tashkil qilgan.

(summa raqamlar va yozuv bilan)

\_\_\_\_\_ ga asoslanib

**BUYURAMAN**

1. \_\_\_\_\_ ga  
(jabrlanuvchining F.I.O.)

\_\_\_\_\_ so‘m miqdorida bir yo‘la nafaqa to‘lansin.

(summa raqamlar va yozuv bilan)

2. \_\_\_\_\_ ga 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dan  
(jabrlanuvchining F.I.O.)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ gacha bo‘lgan davrda har oyda  
\_\_\_\_\_ so‘m miqdorida zarar to‘lansin.

(summa raqamlar va yozuv bilan)

3. Qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori oshirilgan taqdirda yetkazilgan zararni to‘lash summasi oshirilgan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga mutanosib ravishda qayta hisoblab chiqilsin.

Yuridik shaxs rahbari

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

5-1-ilova

\_\_\_\_\_ (yuridik shaxsning nomi)

**BUYRUQ № \_\_\_\_\_**

\_\_\_\_\_ shahri

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

***Boquvchining vafoti munosabati bilan yetkazilgan zararni to'lash to'g'risida***

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ ga zarar yetkazilgan.

(jabrlanuvchining F.I.O.)

Ushbu baxtsiz hodisa 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da N-1 shakldagi Dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan. \_\_\_\_\_ mahalla qo'mitasining 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son ma'lumotnomasi asosida \_\_\_\_\_ vafot etgan kunda uning qaramog'ida

(vafot etgan xodimning F.I.O.)

\_\_\_\_\_ kishi bo'lgan:

1. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_,  
(qarindoshligi) (F.I.O.) (tug'ilgan sanasi)

maktab (litsey) o'quvchisi yoki ishlaydi (ishlamaydi) yoxud shu kabilar;  
(holatga bog'liq holda ko'rsatiladi)

2...

3...

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha yetkazilgan zarar to'lovini olish huquqiga ega bo'lganlar:

1. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_,  
(qarindoshligi) (F.I.O.) (tug'ilgan sanasi)

maktab (litsey) o'quvchisi yoki ishlaydi (ishlamaydi) yoxud shu kabilar;  
(holatga bog'liq holda ko'rsatiladi)

2...

3...

\_\_\_\_\_ ning vafot etgan kunida oxirgi 12 oy  
(vafot etgan xodimning F.I.O.)

uchun o'rtacha oylik ish haqi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ so'mni tashkil qildi.

(summa raqamlar va yozuv bilan)

\_\_\_\_\_ga asoslanib

## BUYURAMAN

1. \_\_\_\_\_ning yetkazilgan zarar to'lovini  
(vafot etgan xodimning F.I.O.)

olish huquqiga ega bo'lgan qaramog'idagi shaxslarga \_\_\_\_\_ so'm  
(summasi raqamlar va yozuv bilan)

bir yo'la nafaqa to'lansin.

2. \_\_\_\_\_ning qaramog'idagilarga boquvchisini  
(vafot etgan xodimning F.I.O.)

yo'qotganligi uchun \_\_\_\_\_ miqdoridagi  
(summasi raqamlar va yozuv bilan)

yetkazilgan zarar to'lovi har oyda quyidagi davrlar uchun to'lansin:

a) \_\_\_\_\_ga 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dan  
(qaramog'dagi shaxsning F.I.O.)

20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_gacha (16 yoshga yetgungacha), kunduzgi o'quv yurtida

o'qishni davom ettirgan taqdirda 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_gacha (18 yoshga to'lgungacha);

b) \_\_\_\_\_ga 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dan  
(qaramog'dagi shaxsning F.I.O.)

200\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_gacha vafot etgan xodimning bolalari, nevaralari, singillari uch yoshga to'lgungacha (ularni parvarish qilayotgan shaxslar uchun);

v) ...

3. Balog'atga yetmagan qaramog'dagi shaxslar uchun 1 va 2-bandlar bo'yicha bir yo'la nafaqa va yetkazilgan zarar to'lovi \_\_\_\_\_  
(naf oluvchining F.I.O.)

4. Qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilgan taqdirda yetkazilgan zararni to'lash summasi oshirilgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga mutanosib ravishda qayta hisoblab chiqilsin.

Ushbu summani qayta hisoblab chiqish yetkazilgan zarar to'lovini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar soni o'zgargan taqdirda ham amalga oshirilsin.

Yuridik shaxs rahbari

\_\_\_\_\_

## V. KEYSLAR BANKI

### 1-keys. Xavf-xatarni miqdoriy tahlili.

Sovutish-kompressor qurilmalari sexining xavf-xatarlar va ishlash imkoniyati tahlili o'tkazilsin. Meyoridan chetga chiqish natijalaridan namuna berilgan(jadval). Tahlil jarayonida har bir qurilma, ishlab chiqarish liniyasi yoki blok uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlar, ularning sabablari aniqlanadi va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar belgilanadi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qaysi chetga chiqish holatlarini tavsiflashda «yo'q», «ko'p», «kam», «shuningdek», «boshqacha», «qaraganda boshqacha», «teskari» va h. singari kalit so'zlar qo'llaniladi. Shuningdek, jadvalda ko'rib chiqilayotgan chetga chiqishning yuzaga kelish ehtimoli V, oqibatlarining og'irlik darajasi T va kritiklik ko'rsatkichi  $K=V+T$  ga berilgan balli ekspert baholari ko'rsatilgan. V va T ko'rsatkichlar 4 balli shkalada belgilangan (4 ball maksimal xavfga to'g'ri keladi).

Kritiklik qiymati yuqori bo'lgan chetga chiqishlar keyinchalik, shu jumladan avariya vaziyatlari ssenariylarini ishlab chiqishda va xavfni miqdoriy baholashda, yanada batafsilroq ko'rib chiqilgan.

Jadval

Sovutish-kompressor qurilmalari sexi kompressor uzelineing xavf-xatarlari va ishlash imkoniyatini o'rganish usuli qo'llanilganda chetga chiqishlar ro'yxati (natijalardan namuna)

Kalit so'z	Chetga chiqish	Sabablar	Oqibatlar	V	T	K	Tavsiyalar
Kam	Modda oqimi yo'q						
Ko'p	Kompressor haydash bosimining oshishi						
	Haydaydigan kompressor haroratining oshishi						
Kam	So'rish bosimining kamayishi						

## **2-keys. «Hodisalar daraxtlari» tahlili.**

Neftni qayta ishlash qurilmasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli avariylarning ssenariylarini miqdoriy tahlil qilish uchun hodisalar daraxti namunalari rasmda berilgan. Hodisa nomining yonidagi raqamlar ushbu hodisa yuzaga kelishining shartli ehtimolini ko'rsatadi. Bunda qo'zg'atuvchi hodisa (rezervuardan neftning to'kilishi)ning yuzaga kelish ehtimoli 1 teng deb qabul qilingan. Alohida hodisa yoki ssenariyning yuzaga kelish chastotasi qiymati qo'zg'atuvchi hodisaning yuzaga kelish chastotasini avariyaning aniq ssenariy bo'yicha rivojlanishning shartli ehtimoliga ko'paytirish yo'li bilan qayta hisoblanadi.

## VI. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
Avariya	texnik qurilmalarni va (yoki) qurilish inshootlarini turli elementlarini to‘satdan yemirilishi, yoki turli jarayonlarni meyoridagi ish rejimini yoki oqimini xavfli buzilishidan iborat xavfli xodisa	The accident is a dangerous event, consisting in a sudden destruction of any elements of technical devices and(or) construction of buildings or in threat of violation of normal operation or flow of any process
Ishlab chiqarishni avtomatizatsiyalash	ishlab chiqarish jarayoni avtomatik qurilmalarda boshqariladigan ishlab chiqarishni tashkil etish uslubi	Automation of production — way of organizing production in which the process control is carried out by automatic devices
Ma‘muriy jazo	ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgani uchun javobgarlik chorasi	Administrative punishment — the measure of responsibility for committing an administrative offense
Ma‘muriy huquqbuzarlik	qonun hujjatlariga binoan ma‘muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik	Administrative offence-encroachment on the rights and freedoms of citizens property, the state and public order, natural wednesday wrongful guilty of (intentional or careless) act or omission for which the law provides for administrative liability
Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa to‘g‘risida dalolatnoma	ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan baxtsiz xodisa tufayli ishchini sog‘ligi buzilganligi faktini tasdiqlovchi, o‘rnatilgan tartibda vakolatli amaldor shaxslar tomonidan	The act of accident on production — a legal document certifying the fact of damage of health owing to accident on manufacture, decorated according to the results of

	o'tkazilgan tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtirilgan, belgilangan namunadagi yuridik hujjat	the investigation into this accident, held in the prescribed manner plenipotentiary officials
Mehnat muhofazasi to'g'risidagi dalolatnoma	barcha yoki ma'lum toifadagi ishchilarga taalluqli, mehnat jarayonida ishchini sog'ligi va hayotini saqlash va xavfsizligi maqsadida ishlab chiqarish faoliyatini yuritish tartibini belgilovchi meyorlar va qoidalardan iborat mehnat muhofazasi va sharoitini rostlovchi hujjatlar	Acts about labour protection — documents that regulate conditions and labor protection, containing the rules and regulations establishing the procedure of implementation of production activities to safety and preservation of health and life of worker in the labor process, applicable to all employees or to certain categories of employees
Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni tahlili	umumiy tendensiyani aniqlash va ogohlantiruvchi tadbirlar qabul qilish maqsadida ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni tadqiqoti va ularni ishlab chiqarish, shikastlovchi omillar turlari va sabablari bo'yicha tahsimoti	The analysis of accidents in the production, research and distribution of accidents on the production facilities, traumatic factors and their causes in order to identify general trends and taking preventive measures
Mehnat sharoiti bo'yicha ish joylarini attestatsiyalash	ishlab chiqarishdagi zararli va (yoki) xavfli omillarni aniqlash maqsadida ish joylaridagi mehnat sharoitini baholash	Certification of workplaces on working conditions — evaluation of working conditions at workplaces in order to identify harmful and (or) dangerous production factors
Xavfsizlik	ziyon yetishi ehtimoli bilan bog'liq, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lmagan riskni yo'qligi	Safety — absence of unacceptable risk associated with the possibility of damage
O'ta past xavfsiz elektr kuchlanishi	42 voltdan yuqori bo'lmagan yer va o'tkazgich orasidagi nominal kuchlanish yoki	Safe extra low voltage — a nominal voltage not exceeding 42 v between conductor and earth, or (for

	(uch fazali tarmoqlar uchun) 24v dan yuqori bo'lmagan o'tkazgich va nol orasidagi nominal kuchlanish	three-phase circuits) not exceeding 24 v between the conductor and the zero
Ishlab chiqarish jihozlarining xavfsizligi	ishlab chiqarish jihozlarining, normativ-texnik hujjatlarda o'rnatilgan sharoitlarda belgilangan funksiyalarini bajarayotganida, mehnat xavfsizligi talablariga mosligini saqlash hususiyati	Machinery safety — the property of the production equipment to maintain compliance with safety work in the performance of given functions in terms of normative-technical documentation.
Ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligi	ishlab chiqarish jarayonlarining, normativ-texnik hujjatlarda o'rnatilgan sharoitlarda amalga oshirilyotganida, mehnat xavfsizligi talablariga javob bera olish hususiyati	The safety of the production process — the property of the production process to meet the requirements of occupational safety when carrying out it in the conditions established by normative-technical documentation
Mehnat xavfsizigi	ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillarni ishchilarga ta'siri bartaraf etilgan mehnat sharoiti	Labour safety — the conditions, which exclude the impact of dangerous and harmful production factors on workers
Ventilyatsiya	ish xonalaridagi havo muhitini belgilangan sifatini ta'minlash uchun zarur tadbirlar va vositalar majmui	Ventilation — a set of measures and devices necessary to ensure the specified quality of the air environment in the working premises
Xavfli moddalar	insonga nisbatan potensial xavfga ega moddalar	Hazardous substances — substances with potential danger towards human beings
Yo'riqnoma jurnali	o'tkazilgan yo'riqnomaning aniq turi qayd etiladigan, belgilangan shakldagi jurnal	Journal of instruction — the magazine of the established form, in which is recorded the conduct of a particular kind of

		instruction
Elektr tokidan himoyalash vositalari	insonlarni elektr toki jarohatlashidan himoyalashga mo'ljallangan texnik vositalar majmui	Protective measures—the complex of technical means designed to protect people from electric shock;
Xavfsizlik zonasi	zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'siri ruxsat etilgan darajadan yuqori bo'lmagan hudud qismi	Safety zone — an area within which the impact of harmful and (or)hazardous production factors exceeds an acceptable level
Ishlar toifasi	inson organizmining Vt lardagi umumiy energiya sarfi asosida ishlarni og'irligi bo'yicha ajratish	Categories of work — division of work according to the severity based on the total energy consumption of the organism in Vt
Kompetent shaxs-	zarur darajadagi tayyorgarlikka va yetarli bilimga, konkret (aniq) ishni bajarish malakasiga va tajribasiga ega shaxs;	Competent person - a person with the necessary training and sufficient knowledge, skills and experience to perform a specific job
Mehnatni muhofaza qilish	mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi	Labour protection is a working on the basis of the relevant legislative and other normative acts of the socio-economic, organizational, technical, sanitary-hygienic and medical-prophylactic measures and means aimed at ensuring safety, preservation of the health and human performance at work.
Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa	xodimning u mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha o'z vazifalarini ish beruvchining hududida ham, undan tashqarida ham bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishiga yoki	Accident at work — an event in which the insured person has received employment injury or other health damage during the performance of his duties under the employment agreement (contract) on the premises of the

	sogʻligʻining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga oʻtkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turgʻun yoʻqotishiga yoxud vafot etishiga sabab boʻlgan hodisa	policyholder or abroad, and which has caused the necessity to transfer the insured to another job, temporary or permanent loss of their professional earning capacity or his death
Kasb kasalligi —	xodimning unga ishlab chiqarishning zararli yoki xavfli omili taʼsiri natijasi boʻlgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turgʻun yoʻqotishiga sabab boʻlgan oʻtkir yoki surunkali kasalligi	Occupational disease — an acute or chronic disease of the insured person resulting from exposure to harmful or dangerous production factors and resulting in temporary or permanent loss of professional working capacity;
Mehnatda mayib boʻlish	xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha yoki turgʻun yoʻqotishi	Work-relate dinjury — temporary or permanent loss of insured occupational disability in an accident at work
Sugʻurtalovchi	Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi	Insurer off-budget pension fund under the Ministry of finance of the Republic of Uzbekistan
Sugʻurta badallari	sugʻurta qildiruvchining mehnatga haq toʻlash fondidan sugʻurtalovchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda amalga oshiriladigan ajratmalari	Insurance premiums — deductions from the payroll of the insured to the insurer, carried out in the manner and amount established by law
Sugʻurtalangan shaxs —	mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlaydigan, sugʻurta qildiruvchi sugʻurtalovchiga shu shartnomaga (kontraktga) muvofiq sugʻurta	Insured person — a natural person subject to mandatory state social insurance against accidents at work and occupational diseases, working under labor agreement (contract),

	badallarini to‘laydigan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi qilinishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxs	under which the policyholder shall pay the insurer insurance premiums
Sug‘urta qildiruvchi —	jismoniy shaxsni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishga yollagan yuridik yoki jismoniy shaxs	Policyholder — a legal or natural person, a natural person hired under an employment contract (contract) in accordance with legislation
Sug‘urta hodisasi —	ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasining amal qilishi davrida xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi vujudga kelganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt	The insured event is verified in the prescribed manner the fact of damage of health or death of the insured in result of accident on manufacture or occupational disease, which would give rise to liabilities of the insurer on payment of insurance compensation

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Maxsus adabiyotlar

1. “Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash” Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 fevraldagi 60-son qarori.
2. “Elektr energetika uskunalariga xizmat ko‘rsatishda yuz bergan baxtsiz hodisalar oqibatida jabrlanganlarga shifokordan oldingi yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomasi” (ro‘yxat raqami 20/15-226/22, 2005 yil 28 noyabr).
3. “Elektr uskunalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalar” (ro‘yxat raqami 1614, 2006 yil 18 avgust).
4. SanPiN RUz № 0224-07 “Sanitariye pravila i normi pri rabote na personalnix kompyuterax, videodispleynix terminalax i orgtexnike”.
5. “Korxonalar, tashkilot va muassasalarda mehnat muhofazasi fondi tashkil qilinishi va uni mablag‘larini ishlatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yil 12 noyabr 245-son qarori.
6. “Balandlikda ishlaganda mehnatni muhofaza qilish qoidalar” (ro‘yxat raqami 1890, 2009 yil 24 yanvar).
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonuni 2009 yil 16 aprel, O‘RQ-210-son.
8. “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish qoidalar” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori.
9. “O‘n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo‘llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro‘yxati” (ro‘yxat raqami 1990, 2009 yil 29 iyul).
10. O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni 2009 yil 30 sentabr, O‘RQ-226-son.
11. SHNK 2.09.04-09. “Korxonalarining ma‘muriy va maishiy binolari”.

12. SanPiN RUz № 0294-11 “Gigiyenicheskiye normativi. PDK vrednix veshestv v vozduxe rabochey zoni”.

13. “Televideniye va radio eshittirish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalari” (ro‘yxat raqami 2248, 2011 yil 25 iyul).

14. “Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i ro‘yxat raqami 2387, 2012 yil 29 avgust).

15. “Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 sentabrdagi 263-son qarori.

16. SanPiN RUz № 0324-16 “Sanitarno-gigiyenicheskiye normi mikroklimate proizvodstvennix pomesheniy”.

17. SanPiN RUz № 0325-16 “Sanitarniye normi dopustimix urovney shuma na rabochix mestax”.

18. SanPiN RUz № 0326-16 “Sanitarniye normi obshey i lokalnoy vibratsii na rabochix mestax.

19. SanPiN RUz № 0335-16 “Sanitarniye normi dopustimix urovney elektrostatcheskix poley na rabochix mestax”.

20. “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi 246-son qarori.

21. SanPiN RUz № 0364-18 “Normi dopustimix nagruzok dlya devushek moloje 18 let i jenshin pri podyome i peremeshenii tyajestey vruchnuyu”.

22. “Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 dekabrdagi 1066-son qaroriga 5-ilova).

23. Dolin P.A. Spravochnik po texnike bezopasnosti. 6-ye izd. -M.: Energoatomizdat, 2015 – 824 s.

24. Belyakov G.I. Oxrana truda, -M.: Agropromizdat, 2010. – 320 s.

25. Belyakov G.I.: Oxrana truda dlya rukovoditeley i spetsialistov predpriyatiy podrobneye: <http://www.labyrinth.ru/books/545428/>

26. Friend, Mark A. Fundamentals of occupational safety and health / Mark A. Friend and James P. Kohn. Government Institutes. An imprint of The Scarecrow Press, Inc. Lanham, Maryland • Toronto • Plymouth, UK-2007.—4th ed.

27. X. Rahimova, A. A'zamov, T. Tursunov. Mehnatni muhofaza qilish. T. – “O‘zbekiston” -2003.

28. G‘. Yormatov va boshqalar Mehnatni muhofaza qilish: Darslik - Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2015 - 345 b.

29. Rukovodstvo po oxrane truda na predpriyatiyax / Yunusov B.X., Parsegova L.T. i dr. - Izdatelstvo «Farg‘ona», 2016 – 332 s.